Despite extensive research on drilling and blasting optimization, many existing approaches do not sufficiently account for site-specific geotechnical and geomechanical conditions, particularly the influence of tectonic disturbances and rock mass anisotropy. Therefore, a comprehensive geotechnical basis for optimizing contour blasting parameters is required to ensure excavation stability, reduce blast-induced damage, and improve the overall efficiency and safety of underground construction.

This study aims to develop a scientifically grounded approach to optimizing contour drilling and blasting parameters for underground excavations in complex structural deposits, considering rock mass structure, stress redistribution, and near-contour damage mechanisms.

Theoretical Background of Contour Drilling and Blasting. Contour drilling and blasting is a controlled excavation technique aimed at forming a smooth and stable excavation boundary while minimizing blast-induced damage to the surrounding rock mass. Unlike conventional production blasting, contour blasting focuses on preserving the integrity of the near-contour zone by reducing tensile stress concentrations and limiting crack propagation beyond the designed excavation profile.

ISSN 3030-3907

Table-1

Influence of Blasting Parameters on Near-Contour Damage

Parameter	Increase in Value	Effect on Contour Quality	Effect on Damage Zone
Borehole diameter	Increase	Reduced contour accuracy	Enlarged damage zone
Hole spacing	Increase	Poor crack coalescence	Irregular overbreak
Charge concentration	Increase	Loss of smooth contour	Increased tensile cracking
Decoupling ratio	Increase	Improved contour control	Reduced damage extent
Initiation delay	Improper	Stress superposition	Local instability

When an explosive charge detonates in a borehole, stress waves propagate radially through the surrounding rock mass. These waves consist of compressive stress followed by reflected tensile stress waves, which play a dominant role in crack initiation. In the near-contour zone, excessive tensile stresses may lead to overbreak, spalling, and the development of a blast-damaged zone (BDZ).

In contour blasting, reduced explosive energy and controlled spacing of boreholes are applied to ensure that induced stresses remain below the tensile strength of the intact rock and the rock mass discontinuities. Theoretical analysis shows that the radius of the damaged zone is proportional to charge concentration and inversely related to the dynamic tensile strength of the rock mass.

The main objective of contour blasting is to create a preferential fracture plane along the excavation boundary. This is achieved by:

- Reducing the charge concentration in contour holes,
- Applying decoupled charging,
- Using small-diameter boreholes,
- Ensuring accurate drilling alignment and spacing.

Crack initiation occurs when the tensile stress exceeds the tensile strength of the rock, while crack propagation depends on stress wave interaction with pre-existing joints and bedding planes. Properly designed contour blasting produces controlled radial cracks that coalesce between adjacent contour holes without propagating into the surrounding rock mass.

Decoupled charging is a fundamental theoretical principle in contour blasting. The decoupling ratio (D), defined as the ratio of borehole diameter to explosive charge diameter, directly influences peak pressure on borehole walls. Higher decoupling ratios significantly reduce borehole pressure, thereby limiting crack penetration depth.

ISSN 3030-3907

Mathematically, the peak borehole pressure P can be expressed as:

$$P \propto \left(\frac{d_e}{d_h}\right)^2 \cdot P_0$$

where:

d_e – explosive charge diameter,

d_h – borehole diameter,

P_0 – detonation pressure of the explosive.

Table-2

Recommended Decoupling Ratios for Contour Blasting

Rock Mass Quality	UCS (MPa)	Recommended Decoupling Ratio
Weak fractured rock	< 40	2.5 – 3.0
Moderately strong rock	40 – 80	2.0 – 2.5
Strong intact rock	> 80	1.5 – 2.0

Theoretical models suggest that optimal spacing between contour holes should ensure interaction of tensile stress zones without excessive overlap. Excessive spacing prevents crack coalescence, while insufficient spacing causes cumulative stress effects and contour degradation.

Empirical and analytical studies indicate that contour hole spacing should be proportional to borehole diameter and rock tensile strength.

Table-3

Typical Contour Hole Spacing Parameters

Borehole Diameter (mm)	Recommended Spacing (m)	Typical Burden (m)
32 – 38	0.5 – 0.7	0.6 – 0.8
40 – 45	0.7 – 0.9	0.8 – 1.0
48 – 51	0.9 – 1.1	1.0 – 1.2

Theoretical Basis for Parameter Optimization. The optimization of contour blasting parameters is based on minimizing the energy input required to achieve controlled fracture along the contour while preventing excessive stress transmission into the rock mass. This requires integrating:

- Rock mass strength and discontinuity structure,
- In situ stress conditions,
- Dynamic rock behavior under blasting loads.

ISSN 3030-3907




Fig-1. Experimental Setup for Measuring Strain Response around a Contour Blast Borehole

The optimization of technological parameters in contour drilling and blasting is a key factor in minimizing blast-induced damage and ensuring the stability of underground excavations in complex geological structures. Unlike production blasting, contour blasting aims not at maximum fragmentation but at controlled crack propagation along the designed excavation boundary. Therefore, parameter selection must be based on geotechnical and geomechanical considerations rather than empirical rules alone.

One of the most influential parameters is contour hole spacing. Excessive spacing leads to insufficient interaction of stress waves and incomplete crack coalescence, resulting in irregular excavation profiles. Conversely, overly small spacing causes excessive stress overlap, increasing tensile damage beyond the contour line. Optimal spacing is typically selected as a function of rock mass quality, joint spacing, and uniaxial compressive strength.

The decoupling ratio plays a critical role in reducing borehole pressure and limiting the radius of blast-induced damage. Decoupled charges reduce the peak detonation pressure acting on the borehole wall, thereby suppressing radial crack extension into the surrounding rock mass. Higher decoupling ratios are especially effective in highly jointed or tectonically disturbed rock masses.

Charge concentration must be carefully controlled to balance sufficient crack initiation with damage limitation. Lower linear charge density is preferred in contour holes to avoid excessive fracturing. Field observations and numerical simulations confirm that controlled energy release significantly improves contour smoothness and reduces overbreak.

The initiation delay sequence determines the interaction of stress waves between adjacent holes. Short, properly selected delays promote sequential fracture

ISSN 3030-3907

development and reduce simultaneous stress superposition. This controlled blasting sequence improves crack directionality toward the free surface and minimizes unwanted rock mass relaxation.

The optimization process involves iterative analysis using geological mapping, rock mass classification, analytical calculations, and numerical geomechanical modeling. By integrating these approaches, technological parameters can be adapted to site-specific conditions, resulting in improved excavation quality, reduced support requirements, and enhanced operational safety.

REFERENCES

1. Hoek, E., & Brown, E. T. (2019). The Hoek–Brown failure criterion and GSI – 2018 edition. Journal of Rock Mechanics and Geotechnical Engineering, 11(3), 445–463.
2. Konya, C. J., & Walter, E. J. (1990). Rock blasting and overbreak control. U.S. Department of the Interior, Bureau of Mines.
3. Olofsson, S. O. (1990). Applied explosives technology for construction and mining. Applex, Sweden.
4. Persson, P. A., Holmberg, R., & Lee, J. (1994). Rock blasting and explosives engineering. CRC Press, Boca Raton.
5. Brady, B. H. G., & Brown, E. T. (2006). Rock mechanics for underground mining (3rd ed.). Springer, Dordrecht.

ISSN 3030-3907

MIRZACHO‘L TUMANI TUPROQLARINING SHO‘RLANISHIDAGI TUZLAR MIQDORI

Sanjar Abdusodiqovich To‘ychiyev
O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti, kat.i.h., t.f.f.d. (PhD)
Toshkent, O‘zbekiston.
E-mail: tuychiyev.sanjar@mail.ru
Siddiqov Doniyor Ikromjon o‘g‘li
O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti,Toshkent, O‘zbekiston.
Ahat Salimovich Togasharov
O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti,Toshkent, O‘zbekiston.
Sidikov Abdulaziz Abdumanop o‘g‘li
O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti,Toshkent, O‘zbekiston.
Chellakarungu Balakrishnan
O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti,Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya. Tuproq sho‘rlanishi keng ko‘lamli sug‘orish ishlari amalga oshiriladigan joylarda inson tomonidan kelib chiqadigan keskin muammodir. Maqolada mintaqadagi tuproq qatlamlaridagi ionlar tarkibi va ularning miqdori bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan. Shuningdek, mintaqa tuproqlarining tarkibini aniqlash usullari hamda tuproqning sho‘rlanish darajasi ham asoslangan. Tuproq eritmalarining kimyosi tuproq sho‘rlanishida muhim rol o‘ynaganligi sababli, bu mavzu bo‘yicha batafsil malumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Tuproq, o‘rta va kuchli sho‘rlangan tuproqlar, tuproqning yer qatlami, tuz miqdori, namligi, plaminniy fotometr.

Annotation. Soil salinity is an acute problem of human origin in places where large-scale irrigation work is carried out. The article presents the distribution of ions in the soil layers of the region by composition and quantity.nnotation. Soil salinity is an acute problem of human origin in places where large-scale irrigation work is carried out. The article presents the distribution of ions in the soil layers of the region by composition and quantity. Methods for determining the composition of the soils of the region and the degree of salinity of the soil are also based. Since the chemistry of soil Solutions plays an important role in soil salinity, detailed information on this topic is provided.

Keywords: soil, medium and strongly saline soils, soil layer, salt content, moisture content, plaminium photometer.

Аннотация. Засоление почвы-серьезная проблема, вызванная деятельностью человека в районах, где проводятся крупномасштабные ирригационные работы. В статье представлен состав ионов в почвенных слоях региона и их распределение по количеству.почвы-серьезная проблема, вызванная

ISSN 3030-3907

деятельностью человека в районах, где проводятся крупномасштабные ирригационные работы. В статье представлен состав ионов в почвенных слоях региона и их распределение по количеству. На этом же основаны методы определения состава почв региона, а также степени засоленности почв. Поскольку химический состав почвенных растворов играет важную роль в засолении почвы, предоставляется подробная информация по этой теме.

Ключевые слова: почва, почвы со средним и сильным засолением, почвенный слой, содержание соли, влажность, фотометр.

KIRISH.

Bugungi kunda dunyoda global iqlim o‘zgarishlari, ekologiya, qurg‘oqchilik, sahrolanish, qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yerlarning degradatsiyasi, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmayotganligi kabi qator muammolar barchaning diqqat e’tiborini jalb etmoqda. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosi bo‘lgan tuproq resurslaridan oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir [1] Tuproq sho‘rlanishi keng ko‘lamli sug‘orish ishlari amalga oshiriladigan joylarda inson tomonidan kelib chiqadigan keskin muammodir. Inson xo‘jalik faoliyati natijasida sho‘rlangan va botqoqlanib tashlandiq holga kelgan yer maydonlarini ekologik jihatdan qayta tiklab, ishlab chiqarishga qaytarishning kam xarjli usullaridan foydalanish muxim ahamiyatga ega [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-fevraldagi PQ-71-sonli “Qishloq xo‘jaligi yerlarining degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqlarning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [3] gi qarori Respublikada iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini oldini olish, qishloq xo‘jaligi yerlarining degradatsiyasini kamaytirish va tuproqdagi gumus miqdorini oshirish orqali ekinlar unumdorligini va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish tartibini belgilaydi.

Mirzacho‘l — O‘zbekiston Respublikasining janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan, cho‘l zonasiga kiruvchi, lekin sug‘orish yo‘li bilan o‘zlashtirilgan yirik agrar hududlardan biridir. Ushbu hududda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng ko‘lamli meliorativ va irrigatsion ishlar amalga oshirilgan, natijada katta maydondagi cho‘l yerlari qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun moslashtirilgan. Bugungi kunda Mirzacho‘l hududi paxtachilik, g‘allachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Shunga qaramay, so‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishlari, suv

ISSN 3030-3907

resurslarining tanqisligi, noto‘g‘ri agrotexnik yondashuvlar va intensiv ekin ekish tufayli tuproqlarning fizik, kimyoviy va biologik xossalari yomonlashmoqda [4]. Ushbu tumanning asosiy qismi sug‘oriladigan bo‘z o‘tloqli tuproqlardan iborat bo‘lib, bu tuproqlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega [5]. O‘zbekiston Respublikasi bo‘z tuproqlari mintaqasi tuproqlari 7 472,8 ming gektar (16,6%), shundan Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyati hududlarida 4 295,5 ming gektarni (9,6%) tashkil etadi. Bo‘z o‘tloqli tuproqlarning meliorativ holati qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va umuman olganda, hududning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mirzacho‘l tumanining tuproqlari turli xil omillar ta’sirida shakllanib, ularning meliorativ holati vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib bormoqda. Sug‘orish, iqlim o‘zgarishi, antropogen ta’sirlar va boshqa omillar tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlariga, sho‘rlanish darajasiga va unumdorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda [6]. Shu sababli, ushbu tuproqlarning meliorativ holatini o‘rganish va uni yaxshilash yo‘llarini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

METODLAR VA MATERIALLAR. Tadqiqot obekti – Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalari. Ushbu tadqiqotda tuproqning 0-5, 5-10, 10-20, 20-40, 40-60, 60-80, 80-100 sm bo‘lgan qatlamlaridan olingan namunalardan foydalanildi.

Izlanishlarda miqdoriy kimyoviy tahlilda quyidagi usullar qo‘llanildi: Xlorid ionini argentometriya usulida [7], magniyni-titrimetrik [8], kalsiy hajmli kompleksometrik aniqlandi [9], sulfat ioni olov spektrofotometrik analizator yordamida [10], karbonat ioni titrimetriya usul [11] bilan aniqlandi. Bundan tashqari tuproq namunalari tarkibidagi -Ca^{2+}, -Mg^{2+}, -K^{+}, -Na^{+}, -Li^{+} ionlarining miqdoriy analizi plaminniy fotometr uskunasida olib borildi hamda tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR. Tuproqning sho‘rlanishi ekinlarning o‘sishi va unumdorligini cheklaydigan holat hisoblanadi. Ilmiy izlanishlarimiz davomida Jizzax viloyatining Mirzacho‘l tumani hududidan olingan tuproq namunalari tarkibidagi sho‘rlanishga olib keluvchi -Ca^{2+}, -Mg^{2+}, -K^{+},-Na^{+}, -Li^{+}, -SO_4^{2-}, -CO_3^{2-}, -Cl^{-} ionlarini kimyoviy usullarda miqdoriy analiz o‘tkazdik hamda olingan natijalar quyida jadvallarda hamda diagrammalarda keltirganmiz [1-3-jadval, 1-3-rasm].

1-jadval.


Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalarining namligi, pH muhiti, eritmaga o‘tgan miqdori va so‘rimning qattiq qismi

Tuproq qatlami, sm	Namlik, %	So‘rimning pH muhiti	Eritmada erigan miqdori, gr	So‘rim qattiq qismining miqdori, gr

ISSN 3030-3907

0-5	0.813	8.05	0.27	0.029
5-10	3.111	8.15	0.332	0.039
10-20	5.129	8.30	0.468	0.021
20-40	7.768	8.42	0.437	0.033
40-60	10.109	8.56	0.363	0.123
60-80	15.869	8.62	0.417	0.092
80-100	16.455	8.67	0.493	0.061

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalarida namlik miqdori tuproq qatlamlarda, ayniqsa 60–100 sm oralig‘ida namlikning keskin ortishi, suvning pastki qatlamlarda to‘planishi hamda drenaj sharoitining yetarli emasligidan dalolat beradi. So‘rim eritmasining pH muhiti barcha qatlamlarda ishqoriydir. Ushbu holat tuproq tarkibida ishqoriy tuzlarning mavjudligi va ularning chuqurlik bo‘yicha to‘planish jarayoni kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Ishqoriy muhit o‘simliklar tomonidan oziqa elementlarining o‘zlashtirilishini cheklab, tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.



1-rasm. Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalarining namligi, pH muhiti, eritmaga o‘tgan miqdori va so‘rim qattiq qismining diagrammasi

Eritmada erigan tuzlar miqdori tuproq qatlamlari bo‘yicha notekis taqsimlangan. 10–20 sm qatlamda erigan moddalar miqdorining nisbatan yuqori bo‘lishi sug‘orish va yuvilish jarayonlari ta’sirida tuzlarning ushbu qatlamda to‘planishi bilan izohlanadi. Chuqur qatlamlarda bu ko‘rsatkichning yana ortib borishi tuzlarning pastga siljishi va ikkilamchi sho‘rlanish jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi. So‘rimning qattiq qismi miqdorining ayniqsa 40–60 sm qatlamda


ISSN 3030-3907

yuqori bo‘lishi ushbu qatlamda tuzlarning cho‘kib, qattiq holatda to‘planayotganidan dalolat beradi.

2-jadval.

Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalarining tarkibidagi suvda eriydigan tuz kationlarining miqdori

Tuproq qatlami, sm	-Ca^{2+} %	-Mg^{2+} %	-K^{+} %	-Na^{+} %	-Li^{+} %	-Ba^{2+} %
0-5	0.9	0.13	0.55	0.04	0	0
5-10	0.334	0.07	0.3	0.02	0.01	0.01
10-20	0.2	0.02	0.15	0.04	0	0
20-40	0.216	0.02	0.14	0.09	0.01	0.01
40-60	0.22	0.04	0.12	0.1	0	0.01
60-80	0.163	0.02	0.16	0.012	0.01	0.01
80-100	0.106	0.02	0.19	0.12	0.01	0.01



2-rasm. Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalarining tarkibidagi suvda eriydigan tuz kationlarining diagrammasi


Tahlillar natijasida Mirzacho‘l tumanidagi tuproqlarda suvda eriydigan kationlar orasida kalsiy, kaliy va natriy ionlari ustunlik qilishi aniqlangan. Kalsiy va kaliy yuqori qatlamlarda ko‘proq to‘plangan bo‘lsa, natriy ayrim chuqurlik qatlamlarida yuqori miqdorda uchrab, tuproq sho‘rlanish darajasining ortayotganini ko‘rsatadi. Magniy ionining miqdori past bo‘lib, litiy va bariy faqat kam miqdorda mavjud. Ushbu natijalar tuproq sho‘rlanish jarayoni faol kechayotganini va meliorativ choralar zarurligini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907

3-jadval.

Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalarining tarkibidagi suvda eriydigan tuz anionlarining miqdori

Tuproq qatlami, sm	$-SO_4^{2-}$ %	$-CO_3^{2-}$ %	$-Cl^-$ %
0-5	0,269	0,1584	4,378
5-10	0,22	0,1576	4,319
10-20	0,204	0,1562	4,289
20-40	0,357	0,1541	2,928
40-60	0,238	0,1527	3,313
60-80	0,158	0,1513	3,313
80-100	0,172	0,1506	3,076



3-rasm. Mirzacho‘l tumanidan olingan tuproq namunalarining tarkibidagi suvda eriydigan tuz anionlarining diagrammasi

Anionlar tarkibida xlorid (Cl^-) va karbonat (CO_3^{2-}) ionlari dominant bo‘lib, xlorid yuqori qatlamlarda ko‘proq to‘planadi va tuproqning xlorid tipidagi sho‘rlanishini ko‘rsatadi. Karbonat miqdori chuqurlik bo‘yicha ortib borib, tuproq ishqoriyligini kuchaytiradi. Sulfat (SO_4^{2-}) ioni nisbatan past miqdorda bo‘lib, uning sho‘rlanishga ta’siri cheklangan. Ushbu natijalar Mirzacho‘l tumani tuproqlarida xlorid–karbonat tipidagi sho‘rlanish jarayoni faol kechayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA. Mirzacho‘l tumani tuproqlarida namlik chuqurlik bo‘yicha ortib boradi. Yuqori qatlamlarda past, 80–100 sm qatlamda esa eng yuqori (16.455 %) miqdorda. So‘rim eritmasining pH qiymati barcha qatlamlarda ishqoriy (8.05–8.67), bu tuproq sho‘rlanishini ko‘rsatadi. Eritmada erigan va qattiq tuzlar miqdori qatlamlarga nisbatan o‘zgarib, pastki qatlamlarda tuzlar to‘planadi.

ISSN 3030-3907

Suvda eruvchan tuz kationlari orasida kalsiy, kaliy va natriy ionlari miqdori ustun bo‘lib, natriy ayrim qatlamlarda yuqori miqdorda to‘plangan, bu sho‘rlanish jarayonining kuchayganini bildiradi. Magniy, litiy va bariy esa kam miqdorda uchraydi. Anionlar tarkibida xlorid va karbonat dominant, bu xlorid–karbonat tipidagi sho‘rlanishni ko‘rsatadi. Sulfat kam miqdorda bo‘lib, sho‘rlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Umuman olganda, olingan tadqiqot natijalari Mirzacho‘l tumani tuproqlarida sho‘rlanish jarayoni hozirgi kunda faol kechayotganini ko‘rsatib, ushbu hududda tuproq unumdorligini saqlash va oshirish maqsadida kompleks meliorativ tadbirlarni amalga oshirish, xususan, tuproqlarni yuvish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish, samarali drenaj tizimlarini joriy etish, sho‘rga va ishqoriy muhitga chidamli ekin turlarini ekish hamda sug‘orish rejimini ilmiy asosda olib borish zarurligini yaqqol namoyon etadi.

ADABIYOTLAR:

1. [1]Axmedova Zaxro Raxmatovna, [2]Yaxyaeva Munavvar Abdukaxxarovna, [3]Xamraeva Ziyoda Tashtemirovna, [4]Shonaxunov To‘lqin Erkinovich, [5]Ibragimov Abdulaziz Adxamovich, [6]Xudoyberdieva Sarvinoz Anvar qizi // Tuproq mikroorganizmlarini sho‘rlanishga chidamlilik xususiyatlagiga ko‘ra ajratish // International scientific and practical conference “application and development of smart technologies in agriculture” may 30, 2024 b. 364-367 *https://doi.org/10.5281/zenodo.11473688*

2. I.U.Urazbaev, N.K.Masharipov, O.I.Xolmatov, B.M.Umarov. Sardoba tumani tuproqlarining sho‘rlanish manbalari «Bioxilma-xillikni saqlash va rivojlantirish» Respublika onlayn ilmiyamaliy anjumani, Guliston 2020 y. 268-271 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-fevraldagi PQ-71-son qarori. *Lex.uz*

4. Rasulova Muxlisa Ilxomjon qizi, S.A.Xurramov // Mirzacho‘l hududi tuproqlaridan samarali foydalanish samaradorligini oshirish // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo https://doi.org/10.5281/zenodo.15696387

5. Abirov, R.A. (2018). O‘zbekiston tuproqlari. Toshkent: Fan va texnologiya.

6. Kuziev, R.K. (2019). Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati va unumdorligini oshirish yo‘llari. Toshkent: O‘zbekiston.

7. Качество воды. Определение содержания хлорида. Титрование нитратом серебра с хроматным индикатором (метод Мора), ST RK ISO 9297-2008 01.01.2019

ISSN 3030-3907

8. Kolorimetrik usul yordamida suvning qattiqligini aniqlash. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 16 | 2023

9. *Шварценбах Г., Флашка Г.* Комплексонометрическое титрование. // М.: Химия, 1970. — 360 с.

10. Yuri Loginov[1], Vladimir Kuznetsov[2] // A New Method for the Quantitative Determination of Sulfate Ions in Aqueous Extracts from Soils and in Aqueous Media, and Analytical Equipment for Its Implementation // Science Journal of Analytical Chemistry 2023; 11(1): 1-8 http://www.sciencepublishinggroup.com/j/sjac doi: 10.11648/j.sjac.20231101.11 ISSN: 2376-8045 (Print); ISSN: 2376-8053 (Online)

11. O. Fayzullayev, N. Turobov, E. Ro‘ziyev, A. Quvatov, N. Muhammadiyev // Analitik kimyo amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari // Toshkent «Yangi asr avlodi» 2006

ISSN 3030-3907

MAHALLIY GALOFIL BAKTERIYALARNING KAROTINOID HOSIL QILISH POTENSIALI

Valiyeva Nilufar Pulatovna

Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabida ma'naviy ma'rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy galofil bakteriyalarning karotinoid hosil qilish potensiali mikrobiologik va biokimyoviy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot doirasida sho‘rlangan muhitlardan ajratib olingan galofil bakteriya shtammlarining pigment hosil qilish qobiliyati spektrofotometrik metod yordamida baholandi. Natijalar ayrim shtammlarning yuqori karotinoid sintezi bilan ajralib turishini ko‘rsatdi, bu esa ularni biotexnologik jihatdan istiqbolli biologik obyekt sifatida baholash imkonini berdi. Olingan ma’lumotlar galofil bakteriyalarni tabiiy karotinoidlar ishlab chiqarishda muqobil manba sifatida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: galofil bakteriyalar, karotinoidlar, pigment sintezi, spektrofotometriya, biotexnologiya, ekstremofil mikroorganizmlar.

Аннотация. В статье исследуется потенциал местных галофильных бактерий к синтезу каротиноидов с микробиологической и биохимической точек зрения. В ходе исследования способность галофильных бактериальных штаммов, выделенных из засолённых сред, к образованию пигментов была оценена с использованием спектрофотометрического метода. Полученные результаты показали, что отдельные штаммы характеризуются высоким уровнем синтеза каротиноидов, что позволяет рассматривать их как перспективные объекты для биотехнологического применения. Результаты исследования расширяют возможности использования галофильных бактерий в производстве природных каротиноидов.

Ключевые слова: галофильные бактерии, каротиноиды, синтез пигментов, спектрофотометрия, биотехнология, экстремофильные микроорганизмы.

Abstract. This article investigates the carotenoid production potential of local halophilic bacteria from microbiological and biochemical perspectives. Halophilic bacterial strains isolated from saline environments were evaluated for their pigment-producing ability using a spectrophotometric method. The results demonstrated that certain strains exhibit high levels of carotenoid synthesis, indicating their potential as promising biological resources for biotechnological applications. The findings highlight the feasibility of utilizing halophilic bacteria as alternative and sustainable sources of natural carotenoids.

Keywords: halophilic bacteria, carotenoids, pigment production, spectrophotometry, biotechnology, extremophilic microorganisms.

ISSN 3030-3907

KIRISH

So‘nggi yillarda biologik faol moddalar, xususan, karotinoidlarga bo‘lgan ilmiy ва амалиy қизиқиш сезиларли даражада ошмоқда. Karotinoidlar kuchli antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, oziq-ovqat, farmatsevtika, kosmetika va biotexnologiya sanoatlarida keng qo‘llaniladi. Ushbu pigmentlar inson salomatligini mustahkamlash, hujayralarni oksidativ stressdan himoya qilish hamda rang beruvchi tabiiy moddalar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli karotinoidlarni ekologik xavfsiz va iqtisodiy samarali manbalardan olish masalasi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. An’anaviy ravishda karotinoidlar o‘simliklar va ayrim suv o‘tlari orqali olinib kelingan bo‘lsa-da, so‘nggi tadqiqotlar mikroorganizmlarning, ayniqsa bakteriyalarning karotinoid ishlab chiqarishdagi salohiyatini ko‘rsatib bermoqda. Bu borada galofil bakteriyalar alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Galofil mikroorganizmlar yuqori sho‘rlangan muhitlarda yashash va rivojlanish qobiliyatiga ega bo‘lib, bunday ekstremal sharoitlarda ularning hujayralari kuchli stress omillariga duch keladi. Natijada galofil bakteriyalar tomonidan sintez qilinadigan karotinoidlar hujayrani himoya qiluvchi muhim biologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalliy ekologik hududlarda, xususan sho‘rxok tuproqlar, sho‘r ko‘llar ва tuz konlarida uchraydigan galofil bakteriyalar bioxilma-xillikning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu mahalliy shtammlar muayyan ekologik sharoitlarga moslashgan bo‘lib, ularning metabolik faolligi, jumladan karotinoid hosil qilish potensiali yetarli darajada o‘rganilmagan. Holbuki, mahalliy galofil bakteriyalarning karotinoid sintez qilish qobiliyatini aniqlash va baholash biotexnologik jarayonlar uchun yangi istiqbolli resurslarni ochib berishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda galofil bakteriyalarning karotinoid sintezi ko‘pincha ekstremal sharoitlarga moslashuv mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, bunday mikroorganizmlardan sanoat miqyosida foydalanish yuqori tuz konsentratsiyasida o‘sish qobiliyati tufayli kontaminatsiya xavfini kamaytirishi va ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirishi mumkin. Bu esa galofil bakteriyalarni karotinoid ishlab chiqarish uchun istiqbolli biologik obyekt sifatida baholashga asos bo‘ladi. Shu munosabat bilan, mazkur maqolada mahalliy galofil bakteriyalarning karotinoid hosil qilish potensialini o‘rganish, ularning biologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda biotexnologik qo‘llanilish istiqbollarini baholash maqsad qilib olindi. Tadqiqot natijalari mahalliy mikrobiologik resurslardan samarali foydalanish va tabiiy karotinoidlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy аҳамиятга эга бўлиши кутилмоқда.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

ISSN 3030-3907

Karotinoidlar biologik faol pigmentlar sifatida tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, ular fotosintetik organizmlar, ayrim zamburug‘lar va mikroorganizmlar tomonidan sintez qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda karotinoidlar hujayrani oksidativ stressdan himoya qilish, erkin radikallarni neytrallash va membranalar barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Shu sababli ularning tabiiy manbalarini izlash va biosintez imkoniyatlarini o‘rganish zamonaviy biotexnologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mikroorganizmlar, ayniqsa bakteriyalarning karotinoid ishlab chiqarish salohiyatiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ilmiy manbalarda bakteriyalar tomonidan sintez qilinadigan karotinoidlar o‘simlik karotinoidlariga nisbatan barqarorroq bo‘lishi, shuningdek, biotexnologik jarayonlarda ularni olishni nazorat qilish osonligi qayd etilgan. Bu esa bakteriyalarni karotinoidlar ishlab chiqarish uchun istiqbolli biologik ob’ekt sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Ekstremal muhitlarda yashovchi mikroorganizmlar, xususan galofil bakteriyalar haqidagi tadqiqotlar ularning noyob metabolik xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Galofil bakteriyalar yuqori tuz konsentratsiyasi sharoitida yashashga moslashgan bo‘lib, bunday muhitda hujayra strukturalari kuchli osmotik va oksidativ stressga duch keladi. Ilmiy adabiyotlarda galofil mikroorganizmlar tomonidan sintez qilinadigan karotinoidlar aynan ushbu stress omillariga qarshi himoya mexanizmi sifatida qaraladi.

Qator tadqiqotlarda galofil bakteriyalar sintez qiladigan karotinoidlar tarkibi va ularning biologik faolligi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday pigmentlar yuqori antioksidant faollikka ega bo‘lib, issiqlik va yorug‘lik ta’siriga nisbatan barqaror hisoblanadi. Bu xususiyatlar galofil bakteriyalardan olingan karotinoidlarni sanoatda, xususan oziq-ovqat va farmasevtika sohalarida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mahalliy galofil bakteriyalarga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar muayyan geografik hududlarda ajratilgan shtammlarga qaratilgan bo‘lib, mahalliy ekologik sharoitlarga moslashgan bakteriyalarning karotinoid hosil qilish potensiali yetarli darajada o‘rganilmagan. Xolbuki, mahalliy shtammlar genetik va metabolik jihatdan noyob xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin va ular biotexnologik jihatdan yangi imkoniyatlarni ochib berishi ehtimoldan xoli emas.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, galofil bakteriyalar karotinoid biosintezi nuqtai nazaridan katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, mahalliy shtammlarning potensialini aniqlash, ularning biosintetik yo‘llarini o‘rganish va optimal kultivatsiya sharoitlarini belgilash bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab,

ISSN 3030-3907

mahalliy galofil bakteriyalarning karotinoid hosil qilish imkoniyatlarini chuqur o‘rganish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda spektrofotometrik miqdoriy baholash metodi qo‘llanildi. Ushbu metod mahalliy galofil bakteriyalar tomonidan hosil qilinadigan karotinoid pigmentlarini ajratib olish va ularning miqdorini optik zichlik (absorbsiya) ko‘rsatkichlari orqali aniqlashga yo‘naltirildi. Metod doirasida bakterial biomassa yig‘ilib, pigmentlar organik erituvchida ekstraksiya qilindi va hosil bo‘lgan ekstraktning karotinoidlarga xos to‘lqin uzunligidagi absorbsiya qiymatlari o‘lchandi. Olingan natijalar asosida turli shtammlarning karotinoid hosil qilish potensiali taqqoslab baholandi hamda eng yuqori pigment ishlab chiqaruvchi izolyatlar ajratib ko‘rsatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida mahalliy sho‘rlangan muhitlardan ajratib olingan galofil bakteriya shtammlarining karotinoid hosil qilish potensiali spektrofotometrik metod asosida baholandi. Tadqiqot jarayonida turli shtammlarning pigment hosil qilish qobiliyati ularning biomassa hosil bo‘lishi va karotinoid ekstraktlarining optik zichlik ko‘rsatkichlari orqali aniqlandi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan galofil bakteriyalar orasida karotinoid sintezi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud. Ayrim shtammlar past darajada pigment hosil qilgan bo‘lsa, ayrim izolyatlar intensiv rang hosil qilishi va yuqori optik zichlik ko‘rsatkichlari bilan ajralib turdi. Bu holat galofil bakteriyalarning karotinoid biosintezi genetik va fiziologik jihatdan turlicha ekanligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Mahalliy galofil bakteriya shtammlarining karotinoid hosil qilish ko‘rsatkichlari

Shtamm kodi	Biomassa (g/L)	Absorbsiya (λ = 450 nm)	Karotinoid miqdori (µg/mg biomassa)
GB–1	1,8	0,42	3,1
GB–2	2,1	0,58	4,6
GB–3	1,9	0,35	2,7
GB–4	2,4	0,71	5,2
GB–5	2,0	0,49	3,9

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, GB–4 shtammi eng yuqori absorbsiya qiymati va karotinoid miqdori bilan ajralib turdi. Bu esa mazkur shtammning karotinoid ishlab chiqarish salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. GB–2 va GB–5 shtammlari ham nisbatan yuqori pigment hosil qilgan bo‘lsa, GB–3 shtammi eng past ko‘rsatkichlarni namoyon etdi.

ISSN 3030-3907

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari mahalliy galofil bakteriyalar karotinoid biosintezi uchun muhim va istiqbolli biologik manba ekanligini ko‘rsatdi. Spektrofotometrik tahlil asosida o‘rganilgan shtammlar orasida karotinoid hosil qilish darajasi sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi, bu esa galofil bakteriyalarning metabolik faolligi va moslashuv mexanizmlarining xilma-xilligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ayrim shtammlarning yuqori karotinoid miqdorini sintez qilishi ularni biotexnologik jarayonlarda qo‘llash uchun istiqbolli obyekt sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari galofil bakteriyalar tomonidan sintez qilinadigan karotinoidlar yuqori sho‘rlanish sharoitida hujayrani oksidativ stressdan himoya qiluvchi muhim biologik omil ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat bunday pigmentlarning antioksidant faolligi va barqarorligi yuqori bo‘lishi bilan izohlanadi. Shu bois, mahalliy galofil bakteriyalardan olingan karotinoidlar oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida tabiiy rang beruvchi va biologik faol modda sifatida qo‘llanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy galofil bakteriyalarning karotinoid hosil qilish potensialini o‘rganish mikrobiologik resurslardan samarali foydalanish va tabiiy karotinoidlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu shtammlarning genetik xususiyatlarini o‘rganish, optimal kultivatsiya sharoitlarini aniqlash hamda karotinoid biosintezini kuchaytirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goodwin T. W. The Biochemistry of the Carotenoids. Vol. 1: Plants. – London: Chapman and Hall, 1980. – 377 p.
2. Britton G., Liaaen-Jensen S., Pfander H. Carotenoids: Natural Functions. – Basel: Birkhäuser Verlag, 2008. – 515 p.
3. Margesin R., Schinner F. Biotechnological applications of halophilic microorganisms // Extremophiles. – 2001. – Vol. 5, №2. – P. 73–83.
4. Oren A. Industrial and environmental applications of halophilic microorganisms // Environmental Technology. – 2010. – Vol. 31, №8–9. – P. 825–834.
5. Ram S., Mitra M., Shah F., Tirkey S. R., Mishra S. Bacteria as an alternative biofactory for carotenoid production // Microbial Cell Factories. – 2020. – Vol. 19. – Article No. 166.
6. Asker D., Ohta Y. Production of canthaxanthin by extremely halophilic bacteria // Journal of Bioscience and Bioengineering. – 2002. – Vol. 93, №6. – P. 617–621.

ISSN 3030-3907

ЗАКОНОМЕРНОСТЬ ИЗМЕНЕНИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ В ЖАРКО КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ

Каримходжаев Н.

Андижанский государственный технический институт, г. Андижан, республика Узбекистан

Аннотация. Представлены результаты работ по анализу факторов, влияющих на изменение технического состояния автомобильных двигателей в жарко климатических условиях эксплуатации Узбекистана

Ключевые слова: автомобиль, двигатель, техническое состояние, жарко-климатические условия, Узбекистан.

Annotatsiya. O‘zbekistonning issiq iqlim sharoitida avtomobil dvigatellarining texnik holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil, dvigatel, texnik holat, issiq iqlimli sharoit, O‘zbekiston.

Abstract. The results of the analysis of factors influencing the change in the technical condition of automobile engines in the hot climatic conditions of Uzbekistan's operation are presented.

Keywords: automobile, engine, technical condition, hot climatic conditions, Uzbekistan.

ВВЕДЕНИЕ.

Автомобили и их двигатели при проектировании, как правило рассчитываются на работу в условиях умеренного климата, хотя и природно-климатические условия, особенно экстремальные случаи оказывают существенное, отрицательное влияние на надежность и износостойкость двигателей [1,2, 4].

Ниже представлены результаты работы, проведенной в Андижанском государственном техническом институте по изучению влияния природно–климатических условий эксплуатации на изменение технического состояния автомобилей в жарко климатических условиях республики Узбекистан.

Условия эксплуатации автомобилей в республике Узбекистан является резко континентальным: лето продолжительное и очень жаркое, а зима короткая и холодная. Днем абсолютная максимальная температура воздуха в тени достигает + 45^0 С, +47^0 С, порой +50^0 С и больше а ночью падает до +5^0…10^0 С. В горных районах после сильной жары (40-47^0 С) автомобиль, проходя через горные перевалы попадает в условия, когда температура воздуха составляет 0-1º С, т.е. резкий перепад температуры составляет 40-46 ^{0} С [1,2].

ISSN 3030-3907

Элементами двигателя являются агрегаты, механизмы и системы, а по отношению к агрегатам и системам — детали. Двигатель средней мощности объединяет более 10 механизмов и систем, которые состоят из 40—45 агрегатов и 750—800 деталей. В процессе эксплуатации около 45—55% агрегатов и деталей теряют свои первоначальные свойства, а примерно 30—35% деталей имеют срок службы меньше, чем двигатель, и требуют особого внимания в работе. Около 20—25% деталей являются определяющими надёжность двигателя и чаще других требуют замены и ремонта, вызывают наибольшие простои двигателя и автотракторных средств. Следует отметить также и неудобства для потребителей, возникающие вследствие отказа, материально-трудовых потерь, снижения эффективности, несчастных случаев — все это обходится значительно дороже, чем стоимость ТО и ремонта. Это ясно свидетельствует о том, как важно и необходимо иметь информацию о надежности тех механизмов и деталей, от которых зависит техническое состояние двигателя. Следовательно, двигатель должен быть надёжным, так как, в этом случае дешевле его эксплуатация, создаются более благоприятные условия как для потребителя, так и окружающей среды. Для этого необходимо, чтобы характеристики надёжности элементов двигателя и его природно-климатические условия эксплуатации, учитывались в начальном этапе его проектирования, поскольку уровень собственной надёжности двигателя закладывается именно на этом этапе проектирования. Отсутствие в этот период должного контроля и руководства может привести к дорогостоящим переделкам двигателя в процессе эксплуатации. Роль организационно-технических мер по обеспечению надёжности двигателя в процессе проектирования показана на рис. 1

ISSN 3030-3907



Рис. 2.3. Методы обеспечения надёжности при проектировании двигателя

В процессе эксплуатации двигатель соприкасается с окружающей средой, а его элементы взаимодействуют между собой, вследствие чего вызывается нагружение деталей, их взаимные перемещения, трение, нагрев, химические преобразования и изменения во время работы физических значений и конструктивных параметров: размеров, взаимного расположения деталей, зазоров и других величин. Техническое состояние двигателя или его агрегатов оценивается совокупностью изменяющихся свойств, характеризуемых текущими значениями конструктивных параметров: x1, x2, x 3, x п. Например, размеры деталей цилиндро-поршневой группы, кривошипно-шатунного и газораспределительных механизмов и т. п. Основное влияние на изменение технического состояния двигателя оказывают его конструкция, качество материалов, из которых изготавливаются детали, технология производства, качество топливо-смазочных материалов, условия работы двигателя и его деталей в эксплуатации, а также качество ТО и ремонта.

КОНСТРУКЦИЯ ДВИГАТЕЛЯ. За счёт совершенствования конструкции двигателей можно существенно продлить процесс изменения технического состояния ,т.е. значительно повысить надёжность, следовательно, и эффективность использования двигателя .Так, установка

ISSN 3030-3907

воздушного фильтра с картонным фильтрующим элементом на двигателе, даже в жарких и запыленных климатических условиях республики обеспечивает задержание до 99,9% пыли, способствуя этим увеличению срока его службы двигателя в 2—2,5 раза [3,4].

Вентиляция картера двигателя уменьшает разжижение масла топливом и износ его деталей. Применение закрытой вентиляции позволяет резко сократить загрязнение окружающей атмосферы токсичными газами. Установка термостата в системе охлаждения двигателя и масляного радиатора способствует поддержанию теплового режима двигателя и сокращения времени его прогрева до рабочей температуры более чем в 3—4 раза. В результате общий износ трущихся пар деталей уменьшается в 7—8 раз [5, 6]. Тонкостенные вкладыши для шатунных и коренных подшипников коленчатого вала превышают срок их службы в 1,5—1,7 раза. Примеры свидетельствуют о том, что совершенствование конструкции элементов двигателя существенно влияет на его техническое состояние.

КАЧЕСТВО ТО И РЕМОНТА. Влияние эксплуатационных факторов на изменение технического состояния двигателя характеризуется тем, что при проведении ТО и ремонта вследствие некачественного выполнения операций работоспособность наиболее ответственных узлов восстанавливается не полностью, в результате чего в жарко-климатических условиях параметры работы двигателя резко ухудшаются. Например, не устранённая в процессе ТО неправильная установка угла опережения зажигания приводит к увеличению расхода топлива на 10—15%. Неотрегулированный зазор между контактами прерывателя при его увеличении до 1 мм (при номинальном зазоре 0,4—0,45 мм) повышает расход топлива на 9%, а уменьшение до 0,2 мм — на 11%. Увеличение зазора между электродами свечи против установленного технической документацией затрудняет пуск холодного двигателя, кроме того, может привести к пробою конденсатора.

Условия работы двигателя и его деталей в эксплуатации. Надёжность работы и техническое состояние двигателя во многом зависят от условий, в которых работают его детали, — нагрузочного, скоростного и теплового режимов, дорожных и климатических условий, запыленности воздуха и загрязненности топливо-смазочных материалов, а также качества ТО и ремонта. В данной работе рассматриваются вопросы влияния запыленности воздуха и загрязненности топливо-смазочных материалов на изменение технического состояния двигателя, а также качества ТО и ремонта.

ISSN 3030-3907

В условиях повышенной температуры охлаждающей среды (главным образом, при эксплуатации двигателей в жарких климатических условиях) уменьшается коэффициент теплоотдачи радиатора, что приводит к перегреву деталей двигателя. В результате возникает детонация, снижается мощность, экономичность и долговечность двигателя. Перегрев вызывает повышенный расход топлива и увеличение токсичности отработавших газов.

Запыленность воздуха, загрязненность топлива и масла. Сильное влияние на интенсивность изменения технического состояния оказывает дорожная и атмосферная пыль. Запыленность воздуха в значительной части территории Узбекистана достигает 3,5 г/м3 , а во время сильных ветров и бурь -17 г/м3 , что в более 10 раз выше, чем запыленности воздуха в умеренной зоне (0,003…1,42 г/м3). Для ясности представления достаточно сказать, что при запыленности воздуха 0,8-1,2 г/м3 видимость полностью теряется [2]. Исследования последних 10—15 лет показали, что одним из основных эксплуатационных факторов, влияющих на техническое состояние автотракторных двигателей, является атмосферная пыль, поступающая в двигатель вместе с потребляемым воздухом, топливом и маслом, а также через неплотности в местах соединения деталей. Пыль, попадая в двигатель, вызывает интенсивный абразивный износ его деталей. Недооценка этого фактора при проектировании, испытании и эксплуатации двигателя может привести к неоправданно высоким затратам вследствие быстрого ухудшения технического состояния и сокращения долговечности [1,2 ,3,4]. Основное количество пыли попадает в двигатель через воздухоочиститель и чем больше количество пыли попадает в двигатель, тем быстрее изнашиваются детали. С увеличением коэффициента пропуска пыли воздухоочистителем резко повышается интенсивность изнашивания цилиндров (рис. 2).

Получено, что при работе двигателя на загрязнённом топливе существенно снижается его надёжность. Механические частицы, попадая с топливом в инжекционную систему питания и в карбюратор, вызывают отказ и изнашивание их деталей и агрегатов. Так, элементами, имевшими наибольшее число отказов являлись инжектор и электрический бензонасос, средняя величина которых соответственно – 2,28 и 2,77 отказ/авт., а в карбюраторном двигателе до 47% отказов элементов топливной аппаратуры, происходило из-за загрязненности топлива. Это показывает, что техническое состояние

ISSN 3030-3907




Рис. 2. Влияние коэффициента пропуска пыли (φ) (φ) воздухоочистителем на скорость изнашивания (i) цилиндров двигателя

Двигателей тесно взаимосвязано с качеством топливо-смазочных материалов, дорожными и климатическими условиями, своевременностью и качеством проведения ТО и ремонта, со степенью совершенства конструкции двигателя.

На техническое состояние автомобилей и их двигателей оказывает влияние множество факторов, такие как нагрузочные и скоростные режимы работы (определяющие величину молекулярно-механического изнашивания) и тепловой режим работы, включая периоды пуска и прогрева (определяющие величину коррозионно- механического изнашивания). Однако, на интенсивность изнашивания двигателей решающее влияние оказывают природное – климатические и дорожные условия. При высокой температуре и повышенной запыленности воздуха износ деталей двигателя, главным образом детали цилиндропоршневой группы интенсивно изнашиваются и в этих условиях превалирующее значение имеет абразивное изнашивание деталей [1,2].

Таким образом, техническое состояние двигателей тесно взаимосвязано с качеством топливо-смазочных материалов, дорожными и климатическими условиями, своевременностью и качеством проведения ТО и ремонта, со степенью совершенства конструкции двигателя. Какой бы совершенной не была конструкция двигателя, с увеличением продолжительности работы и истечением времени его техническое состояние претерпевает изменения. и это приобретает особую значимость для климатических условий республики Узбекистан. Интенсивность изменения технического состояния машины характеризуется надёжностью. Техническое состояние и надёжность двигателя являются родственными

ISSN 3030-3907

понятиями. Чем выше уровень технического состояния, тем и надёжнее двигатель.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

1. Условие эксплуатации автомобилей в республике Узбекистан является резко континентальным: лето продолжительное и очень жаркое, с высоким содержанием пыли в атмосферном воздухе, а зима короткая и холодная.

2. Сильное влияние на интенсивность изменения технического состояния двигателей оказывает ззапылённость воздуха, загрязненность топлива и масла. Пыль, попадая в двигатель, вызывает интенсивный абразивный износ его деталей. Недооценка этого фактора при проектировании, испытании и эксплуатации двигателя может привести к неоправданно высоким затратам вследствие быстрого ухудшения технического состояния и сокращения долговечности.

3. На интенсивность изнашивания двигателей решающее влияние оказывают природно – климатические и дорожные условия. При высокой температуре и повышенной запыленности воздуха износ деталей двигателя, главным образом детали цилиндропоршневой группы интенсивно изнашиваются и в этих условиях превалирующее значение имеет абразивное изнашивание деталей.

4. Какой бы совершенной не была конструкция двигателя, с увеличением продолжительности работы и истечением времени его техническое состояние претерпевает изменения. и это приобретает особую значимость для климатических условий эксплуатации автомобилей в республике Узбекистан.

ЛИТЕРАТУРА

1. Каримходжаев Н., Алматаев Т.О., Одилов Х.Р. Основные причины, вызывающие износ деталей автотранспортных средств, эксплуатирующихся в различных природно-климатических условиях // Universum: Технические науки : электрон. научн. журн. 2020. № 5(74). URL: http://7universum.com/ru/tech/archive/item/9435.

2. Каюмов Б.А. Обеспечение надежности системы питания современных бензиновых двигателей в условиях жаркого климата.-Андижан, Андижонашриёт –манбаа.2019.-104с.

3. Шеховцев А.Ф. и др. Конструктивные отличия и особенности Эксплуатация двигателей в экстремальных условиях. conditions/ekspluadvigatelekstremuslov. 2019. Kovsh.com/ library/ice/climatic

ISSN 3030-3907

4. Recommendations for Cleaning and Pretreatment of Heavy Fuel Oil Alfa Laval. London. 2012. -124 p
5. https://www.autoezda.com/nadegnost/1176.
6. Эксплуатация автомобилей в условиях жаркого климата и пустынно-песчаной местности: «Влияние высоких температур и запыленности на техническое состояние автомобилей»: https://autoinstruction.ru/paper/warm/read/1647637201
7. https://extxe.com/17135/tehnicheskaja-jekspluatacija-avtomobilej-v-osobyh-usloviyax

ISSN 3030-3907

ПРОИЗВОДСТВО КОМБИКОРМОВ ДЛЯ РЫБ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

М.И. Рахманова
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруний
Ш.Н.Исматова
Бухарский государственный технический университет

Аннотация. В условиях стратегического развития рыбоводства в Узбекистане, направленного на увеличение производства рыбы до 400 тыс. тонн к 2030 году, критически важным фактором остается обеспечение отечественного производства качественных комбикормов. В статье проанализированы технологические, сырьевые и экономические проблемы современного кормопроизводства: высокая зависимость от импорта (74,3% в 2023 г.), низкая усвояемость кормов (58,0 – 62,0%), недостаточное использование местных альтернативных белковых источников (шроты подсолнечные, хлопковые). Предложены научно обоснованные пути решения: ферментация шротов с использованием микробных культур, внедрение экструзионных технологий, стандартизация кормов и создание государственной программы импортозамещения. Результаты исследования показывают, что при реализации предложенных мер доля импорта кормов может быть снижена до 30,0% к 2030 г., а эффективность рыбоводства повышена на 35,0 – 40,0%. Работа имеет практическую значимость для разработки государственной политики в сфере агропромышленного комплекса и устойчивого развития рыбоводства.

Ключевые слова: комбикорма для рыб; импортозамещение; ферментация шрота; экструзия; усвояемость корма; рыбоводство; Узбекистан; местное сырьё; кормовая эффективность.

Annotatsiya. O`zbekistonda baliqchilikni strategik rivojlantirish sharoitida 2030-yilga borib baliq yetishtirishni 400 ming tonnaga yetkazishga qaratilgan bo`lib,mamlakatimizda sifatli omixta yem ishlab chiqarishni ta`minlash muhim omil bo‘lib qolmoqda. Maqolada zamonaviy omixta yem ishlab chiqarishning texnologik, xomashyo va iqtisodiy muammolari tahlil qilingan: importga yuqori bog‘liqlik (2023-yilda 74,3%), omixta yemlarning past hazm bo‘lishi (58,0 - 62,0%), mahalliy muqobil oqsil manbalaridan (kungaboqar shroti, paxta shroti) yetarli darajada foydalanmaslik. Ilmiy asoslangan yechim yo‘llari taklif etilgan: mikrob kulturalaridan foydalangan holda shrotlarni fermentatsiyalash, ekstruzion texnologiyalarni joriy etish, omixta yemlarni standartlashtirish va import o‘rnini bosuvchi davlat dasturini yaratish. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali 2030-yilga borib omixta yem importi ulushini 30,0% gacha kamaytirish va baliq yetishtirish samaradorligini 35,0 - 40,0% ga oshirish mumkin. Ish agrosanoat majmuasi va baliqchilikni barqaror

ISSN 3030-3907

rivojlantirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: baliq uchun kormlar; importni almashtirish; o‘g‘riqlarning fermentatsiyasi; ekstruziya; kormlarning qabul qilinishi; baliqchilik; O‘zbekiston; mahalliy xom ashyo; korm samaradorligi.

Abstract. In the context of Uzbekistan’s strategic development of aquaculture, aiming to increase fish production to 400,000 tons by 2030, the key challenge remains the domestic production of high-quality fish feed. This article analyzes the technological, raw material, and economic challenges of current feed production: high import dependency (74.3% in 2023), low feed digestibility (58–62%), and insufficient utilization of local alternative protein sources (sunflower and cottonseed meals). Scientifically grounded solutions are proposed: fermentation of oilseed meals using microbial cultures, implementation of extrusion technology, standardization of feeds according, and establishment of a state import substitution program. The findings indicate that implementation of these measures can reduce feed import dependency to 30% by 2030 and increase aquaculture efficiency by 35–40%. The study has practical significance for formulating state policy in the agro-industrial complex and promoting sustainable aquaculture development.

Keywords: fish feed; import substitution; meal fermentation; extrusion; feed digestibility; aquaculture; Uzbekistan; local raw materials; feed efficiency.

ВВЕДЕНИЕ.

В современном мире рыбоводство приобретает особое стратегическое значение как фактор обеспечения продовольственной безопасности, устойчивого развития пищевой промышленности и рационального использования водных ресурсов. Актуальность развития рыбоводства особенно высока для Узбекистана, где повышение производства рыбы является важной задачей национальной программы «Развитие рыбоводства на 2020–2030 гг.» [1]. В соответствии с программой предполагается увеличить объём производства рыбы с 120 тыс. т в 2020 г. до 400 тыс. т к 2030 г.

Несмотря на высокий потенциал отрасли, ключевым ограничивающим фактором остаётся недостаточное развитие отечественного производства качественных комбикормов. По состоянию на 2024 г. более 75,0% комбикормов для рыб в Узбекистане импортируется, преимущественно из России, Китая и Турции [2]. Такая зависимость создаёт значительную уязвимость к внешним экономическим и логистическим факторам, включая валютные колебания, санкции и перебои в цепочках поставок, что в конечном итоге увеличивает себестоимость рыбы практически на 30,0–40,0% [3].

В связи с вышеизложенным цель настоящей работы заключается в комплексном анализе технологических, экономических и сырьевых проблем производства комбикормов для рыб в Узбекистане, а также в разработке

ISSN 3030-3907

научно обоснованных и практически применимых перспективных направлений их решения с использованием местного сырья и современных технологий кормопроизводства.

Современное состояние производства комбикормов в Узбекистане. По данным Госкомстата Республики Узбекистан, в 2023 г. общее производство комбикормов для рыб составило 82 500 тонн, из которых 61 300 т (74,3%) — импортные, а 21 200 т (25,7%) — отечественного производства [4]. При этом доля кормов, произведённых по современным технологиям (экструзия, гранулирование с термической обработкой), составляет менее 15,0% от общего объёма.

Анализ таблицы 1 показал, что, несмотря на рост абсолютного объёма отечественного производства, доля импорта резко возросла с 55,3% до 74,3% за последние 3 года, что свидетельствует о недостаточной скорости развития производственных мощностей. При этом доля современных кормов (экструзия) за растёт медленно - ~6,6% за 3 года. Это указывает на технологическое отставание и недостаточное внедрение оборудования высокого класса.

Таблица 1

Структура производства и импорта комбикормов для рыб в Узбекистане (2020–2023 гг.)

Год	*Производство, т*	*Импорт, т*	*Доля импорта, %*	*Доля отечественных кормов с экструзией, %*
2020	58 200	72 100	55,3	8,2
2021	64 500	81 300	55,7	10,5
2022	73 800	89 600	54,9	12,1
2023	82 500	110 700	74,3	14,8

В Узбекистане до сих пор преобладают устаревшие линии гранулирования, не обеспечивающие достаточной степени гидротермической обработки, что снижает усвояемость кормов на 20,0–30,0% по сравнению с европейскими аналогами [5, с. 89].

Проблемы производства комбикормов

1. Недостаток локального сырья и низкая эффективность переработки сельхозотходов. Основные компоненты комбикормов — соя, рыбная мука, пшеница, кукуруза. В Узбекистане соя не выращивается в промышленных масштабах, а импортируемая соя из Бразилии и США соя стоит в 1,8 раза дороже, чем в России [6]. Рыбная мука производится только на 2 заводах (Ташкент, Самарканд), и её объём не превышает 5 тыс. т/год, тогда как потребность составляет 25–30 тыс. т/год [7].

ISSN 3030-3907

Узбекистан ежегодно производит более 2 млн. тонн сельхозяйственных отходов (шроты, жмыхи, зерновые отходы). Однако менее 3,0% из них используются в кормопроизводстве. Например, шрот подсолнечника - 180 тыс. т/год, но в корма поступает не более 12 тыс. т [8].




Рисунок-1 Потенциал использования местного сырья в комбикормах для рыб (2024 г.)

Установлено (рис.1), что шроты подсолнечника и хлопчатника составляют около 63,0% потенциального сырья для кормов, но их использование ограничено из-за высокого содержания фитиновой кислоты и низкой биодоступности белка. Технологии обработки (ферментация, термическая деактивация) в Узбекистане не внедрены в промышленных масштабах [8, 9, 10].

2. Низкая эффективность кормов и потери в рыбоводстве. Средний коэффициент кормления (КК) в Узбекистане составляет 2,1–2,4, тогда как в России и Китае — 1,4–1,7 [11]. Это означает, что на 1 кг прироста рыбы тратится на 40,0–70,0% больше корма, чем в передовых странах (табл.2).

Таблица 2

Показатели эффективности кормления рыб в разных странах (2024 г.)

Показатель	*Узбекистан*	*Россия*	*Китай*	*ЕС*

ISSN 3030-3907

КК (кг корма/кг прироста) [11, 12]	2,3	1,5	1,6	1,4
Усвояемость белка, % [13, 13]	60,0 ± 2,0	80,0 ± 2,0	77,0 ± 1,0	82,0 ± 2,0
Себестоимость 1 т корма, USD [15]	780	620	590	710
Доля импорта кормов, % [1, 16]	74	12	35	5

Узбекистан имеет самую высокую себестоимость корма среди стран-аналогов, что связано низкой усвояемостью кормов и высокой долей импортируемых компонентов комбикормов. Уровень усвояемости белка в 60,0 ± 2,0% является критически низким для экономически эффективного и рентабельного рыбоводства. По данным [13, с. 114], при усвояемости белка ниже 65,0% рост рыбы замедляется, а содержание аммиака в воде возрастает, что вызывает у них стресс.

Перспективы развития

1. Использование ферментированных кормовых добавок на основе местного сырья. Разработаны технологии ферментации шрота подсолнечника с использованием штаммов Bacillus subtilis и Aspergillus oryzae. Результаты показали: увеличение содержания доступного белка с 28% до 42%; снижение фитиновой кислоты на 70%; повышение усвояемости корма на 22% (рис.2) [17, с. 56].

Влияние ферментации шрота подсолнечника на усвояемость белка в кормах для карпа было изучено при различных интервалах ферментации: 0, 48, 72, 96 и 120 часов. В контроле (0 часов) усвояемость белка составляла 58%, что объясняется присутствием антипитательных факторов, таких как фитаты и ингибиторы протеаз, ограничивающих доступность аминокислот для пищеварения. После 48 часов ферментации усвояемость белка увеличилась до 65%, что связано с началом ферментативного расщепления белковых комплексов и снижением содержания антипитательных веществ.

ISSN 3030-3907




Рисунок 2 - Влияние продолжительности ферментации шрота подсолнечника на усвояемость белка в кормах для карпа

Продолжение ферментации до 72 часов обеспечило рост усвояемости до 72,0%, что свидетельствует о значительном разрушении клеточных стенок растительного сырья и высвобождении более доступных аминокислот. При 96 часах усвояемость достигла 78,0%, однако дальнейший рост замедлился, что указывает на приближение к максимальной эффективности ферментации. Максимальная усвояемость белка – 79,0% - была достигнута при 120 часах ферментации, после чего увеличение времени не приводило к существенным улучшениям.

Полученные данные подтверждают, что ферментация шрота подсолнечника является эффективным технологическим приемом повышения биологической ценности кормов для карпа. Повышение усвояемости белка обусловлено действием ферментативных систем микроорганизмов, приводящим к гидролизу белковых комплексов и снижению концентрации антипитательных веществ, что делает белок более доступным для переваривания.

Оптимальная продолжительность ферментации для достижения максимальной усвояемости белка в исследованных условиях составляет 120 часов. Использование ферментированного шрота подсолнечника в рационе карпа позволяет повысить эффективность кормления и уменьшить потери белка, что имеет важное значение для рациональной организации аквакультурного производства.

2. Технологические перспективы: внедрение экструзионных технологий и биотехнологических решений. Внедрение современных экструзионных линий (например, модели Kahl EX-100 или

ISSN 3030-3907

отечественной Корм-Экспресс-300) открывает новые возможности для повышения качества и экономической эффективности производства комбикормов в Узбекистане:

- Повышение плотности корма - улучшает транспортировку и хранение.
- Оптимизация плавучести - критически важно для карповых видов, снижает потери корма при кормлении.
- Снижение потерь корма в воде на 30,0 – 35,0% за счёт улучшенной структуры гранул;.
- Увеличение срока хранения до 12 месяцев при сохранении стабильности питательных веществ.
- Снижение микробиологической заражённости за счёт термической обработки при экструзии.

Согласно данным [18, с. 145], внедрение экструзионных технологий в условиях Узбекистана позволяет:

- Снизить себестоимость 1 тонны корма практически на 18,0 – 22,0% за счёт уменьшения потерь сырья, энергии и труда;
- Повысить производительность линии в среднем на 40,0% по сравнению с традиционными методами гранулирования.
- Обеспечить соответствие кормов международным стандартам (например, FAO/WHO, EU Feed Hygiene Regulation).

3. Научно-практические перспективы. Сочетание ферментации местного сырья и внедрения экструзионной обработки позволяет создавать высокотехнологичные корма с улучшенной биологической ценностью и стабильной усвояемостью белка. Дальнейшие исследования целесообразно направить на:

- подбор оптимальных штаммов микроорганизмов для ферментации различных видов кормового сырья;
- изучение комбинированного эффекта ферментации и экструзии на структуру белка и его биодоступность;
- оценку влияния ферментированных кормов на рост, здоровье и продуктивность рыбы в условиях различных водоёмов;
- экономическую оценку и масштабирование технологий ферментации и экструзии для локального производства кормов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Производство комбикормов для рыб в Узбекистане находится на этапе трансформации: от импортной зависимости к локализации производства на основе местного сырья. Основными барьерами являются технологическое отставание, низкая переработка сельхозотходов и отсутствие государственной поддержки. Однако наличие богатого сырьевого

ISSN 3030-3907

потенциала, успешные пилотные разработки в области ферментации и растущий спрос на рыбную продукцию создают благоприятные условия для устойчивого развития отрасли. Внедрение биотехнологий, экструзии и государственной стратегии импортозамещения позволит к 2030 г. снизить долю импорта кормов до 30,0% и повысить эффективность рыбоводства на 35,0 – 40,0%.

Таким образом, перспективы развития комбикормовой индустрии связаны с комплексным использованием местного сырья, биотехнологической переработкой и внедрением современных технологических решений, что обеспечивает стратегическое развитие аквакультуры и рациональное использование ресурсов страны.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Республика Узбекистан. Министерство сельского хозяйства и водных ресурсов. *Национальная программа развития рыбоводства на 2020–2030 годы*. — Ташкент, 2020. — 87 с.
2. Госкомстат Республики Узбекистан. *Статистический ежегодник 2023 года*. — Ташкент, 2024. — С. 156–158.
3. Ибрагимов Р.М. Экономическая эффективность рыбоводства в условиях импортозамещения // Агроэкономика и агропромышленный комплекс. — 2023. — № 4. — С. 34–40.
4. Госкомстат Республики Узбекистан. *Производство комбикормов и кормовых добавок в 2020–2023 гг.* — Ташкент, 2024. — С. 112–115.
5. Саидов А.Х. Технологии производства кормов для рыб в условиях Узбекистана: состояние и перспективы // Пищевая наука и технология. — 2022. — № 3. — С. 85–94.
6. Российский союз агропромышленников. *Цены на импортную сою в 2023 г.* — Москва, 2024. — С. 21.
7. НИИ рыбного хозяйства Узбекистана. *Отчет о производстве рыбной муки за 2023 г.* — Ташкент, 2024. — 32 с.
8. Министерство сельского хозяйства Узбекистана. *Отчет по использованию сельхозотходов в кормопроизводстве*. — Ташкент, 2023. — С. 45–49.
9. Ташкентский химико-технологический институт. *Методические рекомендации по переработке шрота подсолнечника*. — Ташкент, 2022. — 112 с.
10. FAO. *The State of World Fisheries and Aquaculture 2022*. — Rome, 2022. — P. 147–151.
11. Воронин В.А. Эффективность кормления рыб в разных климатических зонах // Вестник рыболовства. — 2023. — № 1. — С. 55–62.

ISSN 3030-3907

12. Liu Y. et al. Feed conversion efficiency in aquaculture: a global review // Aquaculture. — 2023. — Vol. 565. — P. 739101.
13. Козлов И.В. Усвояемость белка в кормах для карповых рыб // Пищевая технология. — 2022. — № 5. — С. 110–117.
14. NRC. *Nutrient Requirements of Fish and Shrimp*. — Washington, DC: National Academies Press, 2021. — P. 89–94.
15. World Bank. *Aquaculture Feed Costs and Market Trends in Central Asia*. — Washington, DC, 2023. — P. 33.
16. Мирзахмедов Т.М. Импорт и локализация кормов для рыб в Центральной Азии // Экономика и управление в агропромышленном комплексе. — 2023. — № 2. — С. 77–84.
17. Ахмедова Л.Р. и др. Ферментация шрота подсолнечника для кормов для рыб // Вестник ТИППП. — 2023. — № 4. — С. 54–61.
18. Петров А.С. Экструзия как ключевой элемент модернизации кормопроизводства // Пищевая промышленность. — 2022. — № 8. — С. 140–148.

ISSN 3030-3907

SANOATDA METROLOGIK TA’MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAHSULOT SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Timur Yusupov

O‘zbekiston Milliy metrologiya instituti, bo‘lim boshlig‘I Buxoro davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Tel.: +998 97 711 70 12

E-mail: timur19850526@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur dissertatsiya ishida sanoat sohalarida metrologik ta’minotni rivojlantirish orqali mahsulot sifatini barqaror ta’minlash hamda uning bozor raqobatbardoshligiga ta’sirini ilmiy asoslash masalalari tadqiq etilgan. Ishda metrologiyaning nazariy asoslari, o‘lchashlar yagonaligi, trasabelik, o‘lchash noaniqligi tushunchalarining mahsulot sifati va texnik tartibga solish tizimi bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan. O‘zbekiston sanoat korxonalarida metrologik ta’minotning amaldagi holati tahlil qilinib, mavjud muammolar – kadrlar salohiyati, texnik jihozlarning holati va standartlarning amaliy ijrosi diagnostika qilingan. Tadqiqotda metrologik ta’minotni modernizatsiya qilishning innovatsion yo‘nalishlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamli metrologiya, intellektual o‘lchash tizimlari hamda milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan sanoat mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorda tan olinishi uchun metrologik ta’minotning kompleks modeli taklif etilgan hamda uning iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: metrologik ta’minot, o‘lchashlar yagonaligi, trasabelik, noaniqlik, sifat menejmenti, texnik tartibga solish, raqamli metrologiya, xalqaro standartlar, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной диссертации исследованы научные и практические аспекты развития метрологического обеспечения в промышленных отраслях как фактора устойчивого обеспечения качества продукции и повышения её конкурентоспособности на рынке. Раскрыта взаимосвязь фундаментальных принципов метрологии — единства измерений, прослеживаемости и оценки неопределенности — с системой управления качеством и технического регулирования. Проведен анализ текущего состояния метрологического обеспечения на промышленных предприятиях Узбекистана и диагностированы существующие проблемы, связанные с кадровым потенциалом, техническим состоянием измерительных средств и практическим применением стандартов. В работе разработаны инновационные подходы к модернизации метрологического обеспечения на

ISSN 3030-3907

основе внедрения информационно-коммуникационных технологий, цифровых измерительных систем и гармонизации национальных стандартов с международными требованиями. Предложена комплексная модель метрологического обеспечения, направленная на повышение экспортного потенциала продукции и её признание на международном рынке, а также обоснована её экономическая эффективность.

Ключевые слова: метрологическое обеспечение, единство измерений, прослеживаемость, неопределенность, менеджмент качества, техническое регулирование, цифровая метрология, международные стандарты, экспортный потенциал, конкурентоспособность.

Annotation. This dissertation investigates the scientific and practical aspects of developing metrological support in industrial sectors as a key factor in ensuring product quality stability and enhancing market competitiveness. The study reveals the interconnection between the fundamental principles of metrology—measurement traceability, unity of measurements, and uncertainty evaluation—and quality management and technical regulation systems. The current state of metrological support at industrial enterprises in Uzbekistan is analyzed, and existing problems related to human resources, technical conditions of measuring instruments, and implementation of standards are diagnosed. Innovative approaches to modernizing metrological support through the introduction of information and communication technologies, digital measurement systems, and harmonization of national standards with international requirements are developed. The author proposes a comprehensive model of metrological support aimed at increasing export potential and international recognition of industrial products, with substantiated economic effectiveness.

Keywords: metrological support, unity of measurements, traceability, uncertainty, quality management, technical regulation, digital metrology, international standards, export potential, competitiveness.

KIRISH

Metrologiya — o‘lchashlar, o‘lchash vositalari va o‘lchash natijalarining ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda tashkiliy-me’yoriy tizimdir. Sanoat tarmoqlarida mahsulot sifatini oshirish, texnologik barqarorlikni ta’minlash va bozorda raqobatbardoshlikka erishish to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchashlar sifatiga bog‘liq. Shu ma’noda, metrologik ta’minot faqat laboratoriya yoki tekshiruv faoliyati emas, balki butun ishlab chiqarish zanjirida qaror qabul qilishning asosiy axborot manbaidir. O‘lchash natijasi ishonchli bo‘lmasa, texnologik parametrni boshqarish, sifatni baholash, xavfsizlikni ta’minlash va sertifikatlash jarayonlari ilmiy asosdan mahrum bo‘ladi [1], [2].

ISSN 3030-3907

Metrologiyaning nazariy poydevori «o‘lchashlar yagonaligi» tushunchasiga tayanadi. Bu tushuncha turli vaqt, joy va vositalarda olingan natijalarning o‘zaro taqqoslanuvchan bo‘lishini anglatadi. Amalda esa bu talab etalonlar zanjiri orqali trassabellikni (kuzatuvchanlik) ta’minlash, o‘lchash noaniqligini baholash, o‘lchash vositalarini me’yorlash va davriy metrologik nazoratni yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi [3], [4].

O‘lchashlar yagonaligi va trassabellik prinsipi

O‘lchash natijasi qiymat sifatida emas, balki etalonga bog‘langan axborot sifatida qaraladi. Milliy etalonlar tizimi orqali o‘lchash vositalari kalibrlanadi, ular esa texnologik o‘lchashlarni ta’minlaydi. Bu zanjir uzluksiz bo‘lganda, o‘lchash natijalari xalqaro darajada tan olinadi. Sanoat korxonalari uchun bu — eksport imkoniyati, laboratoriyalar uchun esa akkreditatsiya talabidir [5].

O‘lchash noaniqligini baholash prinsipi

Zamonaviy metrologiyada «xatolik» tushunchasi o‘rnini «noaniqlik» tushunchasi egallagan. Chunki real o‘lchash sharoitida mutlaq aniqlik mavjud emas. Noaniqlikni hisoblash Type A (statistik) va Type B (no-statistik) komponentlar asosida amalga oshiriladi va yig‘indi standart noaniqlik aniqlanadi [6], [7]. Bu yondashuv mahsulot parametrlarini baholashda ilmiy ishonchlilikni ta’minlaydi.

Me’yorlash va standartlashtirish prinsipi

O‘lchash vositalari va metodikalari me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Me’yorlash o‘lchash vositalarining metrologik xarakteristikalarini belgilaydi, standartlashtirish esa ularni bir xil talablarga moslashtiradi [8], [3]. Bu jarayon sifat menejmenti tizimi bilan uzviy bog‘liq [9].

Davriy poverka va kalibrlash prinsipi

O‘lchash vositalarining ishonchliligi vaqt o‘tishi bilan pasayadi. Shuning uchun ular belgilangan muddatlarda poverka va kalibrlashdan o‘tkaziladi. Poverka — me’yorga moslikni tasdiqlash, kalibrlash esa etalonga nisbatan aniq xarakteristikani aniqlashdir [10].

Ilmiylik va takrorlanuvchanlik prinsipi

O‘lchash natijasi boshqa sharoitda, boshqa mutaxassis tomonidan takrorlanganda ham bir xil natija berishi kerak. Bu prinsip o‘lchash metodikasining ilmiyligini ta’minlaydi [11].

Metrologiyaning funksiyalari

Ilmiy funksiya. O‘lchash nazariyasi, noaniqlik, etalonlar va modellashtirish masalalarini qamrab oladi [12].

Tashkiliy funksiya. Davlat va sohaviy metrologik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi [13], [14].

ISSN 3030-3907

Me’yoriy-huquqiy funksiya. Qonun va standartlar orqali o‘lchash talablarini belgilaydi [15], [16].

Ishlab chiqarish funksiyasi. Kirish, jarayon va chiqish nazoratini ta’minlaydi [17].

Iqtisodiy funksiya. Brakni kamaytiradi, resurs tejaydi, samaradorlikni oshiradi [18].

Sifatni boshqarish funksiyasi. ISO 9001 talablarida o‘lchash vositalarini nazorat qilishni talab qiladi [19].

Metrologiya va mahsulot sifati o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishi

Mahsulot sifati parametrlar orqali ifodalanadi, parametr esa o‘lchanadi. Agar o‘lchash noaniqligi hisobga olinmasa, sifat bahosi ishonchsiz bo‘ladi. Shuning uchun metrologik ta’minot sifatni boshqarish tizimining fundamental qismi hisoblanadi [20], [21].

Etalon → kalibrlash → o‘lchash vositasi → texnologik jarayon → parametr → sifat → raqobatbardoshlik zanjiri amalda doimiy ishlaydi [22], [23].

Metrologiyaning asosiy prinsiplari — yagonalik, trassabellik, noaniqlikni baholash, me’yorlash va davriy nazorat — mahsulot sifati va bozordagi raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Uning funksiyalari esa ilmiy, tashkiliy, me’yoriy va iqtisodiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lib, sifat menejmenti tizimining ajralmas qismiga aylanadi.

Mahsulot sifati amalda o‘lchanadigan parametrlar orqali ifodalanadi. Parametrni ishonchli baholash esa metrologik jihatdan ta’minlangan o‘lchashlarga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, metrologik ta’minot — sifatni ta’minlashning ilmiy-axborot poydevori, texnik tartibga solishning esa amaliy ustunidir. O‘lchash natijasi trassabel, noaniqligi baholangan va me’yorlashgan bo‘lsa, texnologik qarorlar, nazorat va muvofiqlikni tasdiqlash xulosalari ilmiy asosga ega bo‘ladi; aks holda, sifat to‘g‘risidagi xulosalar sub’ektiv tus oladi [1], [2].

Ushbu bobda metrologik me’yorlarni ishlab chiqish mantig‘i, ularning sifatni ta’minlashdagi roli hamda texnik tartibga solish bilan uyg‘unlashuvida kuzatiladigan tizimli muammolar tahliliy yoritiladi.

Metrologik me’yorlarni ishlab chiqishning nazariy-uslubiy asoslari

Metrologik me’yor — o‘lchash vositalari, o‘lchash metodikalari va o‘lchash sharoitlariga qo‘yiladigan ilmiy-texnik talablar majmuasidir. U quyidagi ketma-ket bosqichlarda shakllanadi:

(a) Ilmiy modellash. O‘lchanadigan kattalik tabiati, ta’sir etuvchi omillar va o‘lchash modeli aniqlanadi. Noaniqlik manbalari tarkiblanadi (Type A/Type B) [6], [7].

ISSN 3030-3907

(b) Me’yorlash. Asbobning metrologik xarakteristikalari (diapazon, aniqlik sinfi, sezgirlik, barqarorlik, dreyf) me’yoriy hujjatlarda belgilab qo‘yiladi [3].

(v) Standartlashtirish. O‘lchash metodikalari va talablar standartlar orqali birxillashtiriladi, natijalar taqqoslanuvchanligi ta’minlanadi [8].

(g) Trassabellik. Kalibrlash zanjiri orqali o‘lchash vositalari milliy etalonlarga bog‘lanadi; laboratoriyalar interlaboratoriya taqqoslashlar bilan salohiyatini tasdiqlaydi [5], [4].

(d) Validatsiya/verifikatsiya. Metodika real sharoitda tekshiriladi, takrorlanuvchanlik va qayta ishlab chiqaruvchanlik baholanadi [11].

(e) Davriy nazorat. Poverka va kalibrlash orqali vaqt omili ta’siri kamaytiriladi [10].

Ushbu mantiqiy zanjir sifat nazoratining barcha bosqichlarida — kirish, jarayon va chiqish nazoratida — ishonchli axborotni kafolatlaydi [17].

Metrologik me’yorlar va sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Sifat ko‘rsatkichlari (geometrik aniqlik, fizik-kimyoviy tarkib, mustahkamlik, xavfsizlik parametrlari) o‘lchash natijalariga tayanadi. Agar noaniqlik hisobga olinmasa, qabul qilingan qarorlar xato bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metrologik me’yorlar sifat menejmentining fundamental shartidir [20], [21].

Etalon → me’yor → o‘lchash → nazorat → muvofiqlik → sifat kafolati zanjiri amalda uzluksiz ishlashi lozim [22], [23].

Texnik tartibga solish bilan uyg‘unlashuv

Texnik tartibga solish standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiyani yagona huquqiy maydonda birlashtiradi. Metrologik talablar texnik reglamentlarda aks etganda, muvofiqlikni baholash ilmiy asosga ega bo‘ladi [15], [16].

Biroq amaliyotda qator tizimli muammolar kuzatiladi:

1. Me’yor va amaliyot uzilishi. Standart talablari real o‘lchash imkoniyatlari bilan mos kelmasligi [8].
2. Noaniqlikni inkor etish. Natijalar noaniqliksiz qayd etilishi eksport sinovlarida rad etilish xavfini oshiradi [6].
3. Trassabellik zanjirining to‘liq emasligi. Hujjatda bor, amalda to‘liq ta’minlanmagan holatlar [4].
4. ISO 9001 bilan integratsiya pastligi. O‘lchash vositalari nazorati formal tus olishi [9], [19].
5. Kadrlar malakasi. Noaniqlikni to‘g‘ri baholay olmaslik [2].
6. Interlaboratoriya taqqoslashlar kamligi. Natijalar taqqoslanuvchanligi susayishi [5].

Sanoat misolida metrologik ta’minotning roli

ISSN 3030-3907

Ishlab chiqarishda har bir texnologik parametr (harorat, bosim, o‘lcham, tarkib) o‘lchanadi. Metrologik me’yorlar aniq bo‘lsa, jarayon barqarorligi ta’minlanadi, brak kamayadi, resurs tejaladi [13].

Kirish nazoratida xomashyo parametrlari, jarayon nazoratida texnologik rejim, chiqish nazoratida tayyor mahsulot ko‘rsatkichlari — barchasi metrologik ta’minotga tayanadi [17].

Muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlari

- Noaniqlikni hisoblashni majburiy talab sifatida joriy etish [6].
- Kalibrlash zanjirini raqamli reestr orqali monitoring qilish [4].
- ISO 9001 talablarini metrologik jarayonlar bilan integratsiyalash [9].
- Kadrlar tayyorgarligini kuchaytirish [2].
- Interlaboratoriya taqqoslashlarni muntazamlashtirish [5].

Metrologik me’yorlarning ilmiy asosda ishlab chiqilishi va texnik tartibga solish tizimi bilan uyg‘unlashuvi mahsulot sifatini ta’minlashning hal qiluvchi shartidir. Amaliyotdagi muammolar asosan noaniqlikni baholash, trassabellikni ta’minlash va sifat menejmenti bilan integratsiya darajasi pastligi bilan bog‘liq.

Jahonning rivojlangan davlatlarida metrologik ta’minotni joriy qilish amaliyoti.

Jahonning rivojlangan davlatlarida metrologik ta’minot sanoat raqobatbardoshligining «ko‘rinmas infratuzilmasi» sifatida qaraladi. Bu mamlakatlarda o‘lchashlar yagonaligi, trassabellik va noaniqlikni baholash faqat laboratoriya amaliyoti emas, balki texnologik boshqaruv, sifat menejmenti va muvofiqlikni tasdiqlashning markaziy shartiga aylangan. Xususan, Physikalisch-Technische Bundesanstalt (Germaniya), National Institute of Standards and Technology (AQSh) va National Physical Laboratory (Buyuk Britaniya) kabi milliy metrologiya institutlari sanoat tarmoqlari bilan uzviy bog‘langan holda ishlaydi. Ularda etalonlar tizimi faqat ilmiy laboratoriya doirasida emas, balki ishlab chiqarish zanjirigacha «etib boradigan» tarzda tashkil etilgan.

Bu yondashuvning markazida Bureau International des Poids et Mesures tomonidan muvofiqlashtiriladigan xalqaro etalonlar tizimi va o‘lchashlar trassabelligi turadi. Rivojlangan mamlakatlarda har bir sanoat korxonasidagi o‘lchash vositasi kalibrlash zanjiri orqali milliy etalonga, u esa xalqaro etalonga bog‘langan. Natijada, zavodda olingan o‘lchash natijasi xalqaro laboratoriya natijasi bilan taqqoslanuvchan bo‘ladi. Bu holat eksport, akkreditatsiya va xalqaro sertifikatlash jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida yana bir muhim jihat — noaniqlikni majburiy ko‘rsatish amaliyotidir. O‘lchash natijasi qiymat sifatida emas, balki

ISSN 3030-3907

noaniqlik bilan birga axborot sifatida taqdim etiladi. Bu texnologik qarorlarni ilmiy asoslash, xavf-xatarlarni baholash va sifat barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, yuqori aniqlik talab etiladigan aerokosmik, avtomobilsozlik va farmasevtika sohalarida noaniqlikni hisobga olmasdan turib mahsulotni bozorga chiqarish mumkin emas.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida metrologik ta’minot raqamli texnologiyalar bilan chambarchas integratsiya qilingan. Kalibrlash, poverka va nazorat natijalari yagona raqamli reestrlarda saqlanadi, o‘lchash vositalarining holati real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Bu esa inson omilini kamaytiradi, nazoratni shaffof qiladi va sifatni uzluksiz boshqarish imkonini beradi. Shu sababli bu davlatlarda brak darajasi past, resurs sarfi kam va ishlab chiqarish barqaror.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida texnik tartibga solish va metrologiya o‘rtasida mustahkam integratsiya shakllangan. Texnik reglamentlarda o‘lchash metodikalari, noaniqlik talablari va kalibrlash shartlari aniq ko‘rsatilgan. Bu muvofiqlikni tasdiqlash jarayonini formal emas, balki ilmiy asoslangan jarayonga aylantiradi. Natijada iste’molchi ishonchi ortadi, bozorda sifat madaniyati shakllanadi.

Ushbu xalqaro tajriba O‘zbekiston sanoati uchun katta imkoniyatlar ochadi. Birinchidan, milliy etalonlar bazasini mustahkamlash va trassabellik zanjirini ishlab chiqarish darajasigacha yetkazish orqali eksport salohiyati oshadi. Ikkinchidan, noaniqlikni hisoblash va ko‘rsatish amaliyotini keng joriy etish mahsulot parametrlarini ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Uchinchidan, metrologik jarayonlarni ISO 9001 kabi sifat menejmenti tizimlari bilan chuqur integratsiya qilish orqali nazorat samaradorligi oshadi.

Ayniqsa, kimyo, neft-gaz, oziq-ovqat, farmasevtika va mashinasozlik kabi tarmoqlarda metrologik ta’minotni xalqaro amaliyot asosida qayta tashkil etish brakni kamaytiradi, resurs tejaydi va mahsulot barqarorligini ta’minlaydi. Raqamli kalibrlash reestrlari va interlaboratoriya taqqoslashlarni muntazam yo‘lga qo‘yish esa laboratoriya natijalarining xalqaro darajada tan olinishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan davlatlar tajribasi metrologik ta’minotni faqat nazorat vositasi emas, balki sifatni boshqarishning strategik instrumenti sifatida qarash lozimligini ko‘rsatadi. Bu yondashuvni O‘zbekiston sanoatiga moslashtirish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish va milliy sifat infratuzilmasini mustahkamlash mumkin.

Sanoat korxonalarida metrologik ta’minotning mavjud holati:

O‘zbekiston sanoatida metrologik ta’minotning amaldagi holatiga baho berishda uni alohida laboratoriya yoki tekshiruv jarayoni sifatida emas, balki ishlab chiqarish zanjiriga singib ketgan funksional tizim sifatida ko‘rish talab etiladi.

ISSN 3030-3907

Mahsulot sifati parametrlar orqali ifodalanadi, parametr esa o‘lchanadi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalaridagi metrologik holatni tahlil qilish — sifat, barqarorlik va raqobatbardoshlik darajasini tahlil qilish demakdir.

Yirik sanoat korxonalarida metrologik ta’minot nisbatan tizimli shakllangan. Bunday korxonalarda alohida metrologik xizmatlar, kalibrlash laboratoriyalari va nazorat bo‘limlari mavjud. Kirish nazoratida xomashyo parametrlari o‘lchanadi, texnologik jarayonda harorat, bosim, sarf, geometrik o‘lchamlar doimiy monitoring qilinadi, chiqish nazoratida esa tayyor mahsulot parametrlari tekshiriladi. Bu jarayonda o‘lchash vositalarining poverkasi va kalibrlashi rejali tarzda amalga oshiriladi. Natijada texnologik rejim barqarorligi ta’minlanadi, brak ulushi kamayadi, resurs sarfi optimallashadi.

Ammo tahlil shuni ko‘rsatadiki, yirik korxonalarda ham metrologik ta’minot ko‘pincha «nazorat funksiyasi» sifatida qabul qilinadi, «boshqaruv instrumenti» sifatida emas. O‘lchash natijalari texnologik qarorlar qabul qilishda to‘liq qo‘llanilmaydi. Noaniqlikni baholash amaliyoti esa ko‘p hollarda yetarli darajada joriy etilmagan. O‘lchash natijalari qiymat sifatida qayd etiladi, ammo uning ishonch oralig‘i hisobga olinmaydi. Bu esa sifatni ilmiy baholash imkoniyatini cheklaydi.

Yirik sanoat tarmoqlarida — neft-gaz, kimyo, energetika, metallurgiya va mashinasozlikda — zamonaviy o‘lchash vositalari mavjud bo‘lsa-da, ularning barchasi trassabellik zanjiri orqali milliy etalonlarga bog‘langan deb aytish qiyin. Kalibrlash hujjatlari mavjud, lekin ularning amaliy monitoringi va raqamli nazorati yetarli emas. Bu holat ayniqsa filial va hududiy sexlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kichik va o‘rta biznes sub’ektlarida esa vaziyat tubdan farq qiladi. Bunday korxonalarda metrologik ta’minot ko‘pincha formal tusga ega. O‘lchash vositalari mavjud, lekin ularning davriy poverkasi o‘z vaqtida o‘tkazilmaydi. Kalibrlash zanjiri to‘liq ta’minlanmagan. Ko‘p hollarda o‘lchash vositasi «ishlayotgan bo‘lsa — demak to‘g‘ri o‘lchayapti» degan qarash ustuvor. Bu esa mahsulot parametrlarining ishonchli baholanmasligiga olib keladi.

Kichik biznesda metrologik bilimlar yetishmasligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. O‘lchash metodikasini to‘g‘ri qo‘llash, noaniqlikni baholash, o‘lchash vositalarini tanlash kabi masalalar ko‘pincha intuitiv hal etiladi. Natijada bir xil mahsulot turli partiyalarda turlicha sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi. Bu esa bozorda ishonchni pasaytiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta korxonalarda metrologiya sifat menejmenti tizimi bilan integratsiyalashmagan. ISO 9001 talablarida o‘lchash vositalari ustidan nazorat alohida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bu talab

ISSN 3030-3907

formal hujjat bilan cheklanadi. Real ishlab chiqarish jarayonida esa o‘lchash natijalari qaror qabul qilishda yetarli darajada ishtirok etmaydi.

Yirik va kichik korxonalar o‘rtasidagi asosiy farq — metrologik infratuzilma va madaniyat darajasida. Yirik korxonalarda asbob-uskuna bor, lekin ilmiy yondashuv yetishmaydi. Kichik korxonalarda esa na infratuzilma, na bilim yetarli. Har ikki holatda ham metrologik ta’minot sifatni boshqarishning markaziy elementiga aylanmagan.

Bu holat sanoat mahsulotlarining barqaror sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Ayniqsa eksportbop mahsulot ishlab chiqarishda noaniqlikni hisobga olmaslik, trassabellikni ta’minlamaslik va kalibrlash madaniyati pastligi xalqaro talablarga mos kelmaslikka olib keladi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston sanoatida metrologik ta’minotni tahlil qilish uning texnik holatini emas, balki sifatni boshqarishdagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Metrologiya nazorat vositasi emas, balki texnologik barqarorlikni ta’minlovchi strategik instrument sifatida qabul qilinishi kerak. Yirik korxonalarda noaniqlikni baholash va raqamli monitoringni joriy etish, kichik biznesda esa metrologik savodxonlikni oshirish va markazlashgan kalibrlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali sifat barqarorligiga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari sanoat tarmoqlarida metrologik ta’minotni takomillashtirish mahsulot sifati barqarorligini ta’minlash, texnologik jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish va bozorda raqobatbardoshlikni oshirishning hal qiluvchi omili ekanligini ko‘rsatdi. O‘lchashlar yagonaligi, trasabelik va noaniqlikni baholash tamoyillarini ishlab chiqarish amaliyotiga chuqur joriy etish orqali sifatni nazorat qilish emas, balki uni boshqarish imkoniyati yaratiladi. Milliy metrologiya standartlarini xalqaro talablar bilan mazmunan uyg‘unlashtirish va o‘lchash natijalarini sifat menejmenti tizimiga integratsiya qilish sanoat mahsulotlarining ishonchliligi va barqarorligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, metrologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli o‘lchash texnologiyalarini joriy etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sanoatda o‘lchash madaniyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa eksport salohiyatini oshirish, xalqaro sertifikatlash jarayonlarini yengillashtirish va O‘zbekiston sanoatining xalqaro bozordagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda taklif etilgan kompleks yondashuv metrologiyani formal talabdan strategik boshqaruv instrumentiga aylantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Исаев Р.И. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш : дарслик /Р.И.Исаев,У.Н.Кармова. – Ўзбекистон алоқа ва ахборотлаштириш агентлиги, Тошкент ахборот технологиялари ун-ти, 2011. – 494 б.; 21 см. –

ISSN 3030-3907

Бибилогр.: б. 482–487 (98 номда). – ISBN 978-9943-10-538-6 (муқовали) : 200 нусха. – [11-1178] б оф

2. Исматуллаев, П. Р. Метрология асослари : ўқув қўлл. / П. Р. Исматуллаев, Ш. А. Қодирова ; муҳаррир Ш. Темиров ; Ўзбекистон Респ. олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Тошкент : Стандарт, 2012. – 302, [1] б. ; 21 см. – 500 нусха. – ISBN 978-9943-4000-1-6. – [12-1326] б оф

3. Ўлчаш воситаларининг метрологик характеристикаларини меъёрлашга доир / П. Р. Исматуллаев, П. И. Қаландаров, Ш. А. Қодирова, Х. Ш. Жабборов // Ta'lim texnologiyalari. – 2013. – № 1. – Б. 35–40. – Рез. рус, инг. – Библиогр.: 6 ном.

4. Машарипов, Ш. М. Обеспечение метрологических прослеживаемостей измерений на уровне национальных метрологических институтов / Ш. М. Машарипов, Х. М. Махмудов // Вестн. Ташк. гос. техн. ун-та. – 2017. – № 1. – С. 37–41. – Рез. узб., англ. – Библиогр.: 9 назв.

5. Жебровский,С. Обеспечение единства измерений – важное условие международного сотрудничества / С.Жебровский // Экон. вестн. Узбекистана. – 2010. – № 5-6. – С. 62–63.

6. Латипов В.Б. Ўлчаш хатолиги ва ноаниқлиги орасидаги боғлиқлик // Стандарт. – 2008. – № 3. – Б. 38 – 39. – Библиогр. : 3 номда.

7. Латипов В.Б., Хакимов О.Ш. Ўлчашларнинг йиғинди стандарт ноаниқлигини ҳисоблаш // Кимёвий технология. Назорат ва бошқарув. – 2007. – № 6. – Б. 30 – 32. – Библиогр.: 2 номда.

8. Стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва метрологияга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами = Сборник нормативно-правовых актов по стандартизации, сертификации и метрологии / Ўзбекистон Респ. Адлия вазирлиги ; [Тўпловчилар А.И.Ўралов ва бошқ.]. − Т. : Адолат, 2008. − 263 б. ; 21 см. − Текст парал. : ўзбек, рус. − ISBN 978-9943-332-45-4 (муқовали) : Шартнома нархда, 3000 нусха. − [08-1747] б оф

9. Суванов, Ф. ISO 9001:2015 талабларига мувофиқ сифат менежменти тизимини яратиш / Ф. Суванов // Korxonani boshqarish. – 2016. – № 11. – Б. 17–21.

10. Чем отличается поверка от калибровки? [Понятия «поверка» и «калибровка» часто используются в области метрологии, но их на практике все еще многие путают] / Подготовил: Б. С. Утабаев // Инфокоммуникации: Сети-Технологии-Решения. –2024.– № 1.– Стр. 60.- 62 . – Рез. узб., англ. – Библиогр.: 6 назв.

ISSN 3030-3907

11. Исматуллаев П. Р. Системный подход к измерению и постулаты метрологии / П. Р. Исматуллаев, И. Н. Хасанов // Хим. технология. Контроль и упр. – 2007. – № 6. – С. 32 – 35. – Рез. узб., англ. – Библиогр.: 5 назв.
12. Исматуллаев, П. Р. Метрология – наука об измерениях. Основные этапы развития метрологии / П. Р. Исматуллаев // Хим. технология. Контроль и упр. – 2015. – № 2. – С. 31–35. – Рез. узб., англ. – Библиогр.: 7 назв.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 апрелдаги “Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш агентлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2935-сонли Қарорига шарҳ // Халқ сўзи. – 2017. – 2 май ; Еркин Қарақалпақстан. – 4май. – Қорақалпоқ.
14. Камалов, А. Развивая систему единства измерений : [РУз проведена пресс-конференция с представителями ГУ «Узбекский национальный институт метрологии»] / А. Камалов // Правда востока. – 2024. – 5 март. – С. 1,4.
15. "Метрология тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида : Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 7 апрель, № ЎРҚ-614 Қонуни // Халқ сўзи. – 2020. – 8 апр. – Б. 1.
16. Метрология тўғрисида (янги таҳрири) : Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Халқ сўзи. – 2020. – 8 апр. – Б. 1–2.
17. Бондарева Г.И. Входной контроль и метрологическое обеспечение на предприятиях технического сервиса [Текст] / Г.И. Бондарева, О.А. Леонов, Н.Ж. Шкаруба // Сельский механизатор. - 2017. - № 4. - С. 36-38.
18. Леонов, О.А. Экономика качества, стандартизации и сертификации: учебник [Текст] / О.А. Леонов, Г.Н. Темасова, Н.Ж. Шкаруба. - 2016. - 251 с.
19. Суванов, Ф. Построение системы менеджмента качества в соответствии с требованиями ISO 9001:2015 / Ф. Суванов // Упр. предприятием. – 2016. – № 11. – С. 56–60.
20. Гличев, А.В. Основы управления качеством продукции [Текст] / А.В. Гличев. - М.: РИА Стандарты и качество, 2001.
21. Бондарева Г.И Эффективность внедрения системы качества на предприятиях технического сервиса АПК [Текст] / Г.И. Бондарева, О.А. Леонов, Н.Ж. Шкаруба, Ю.Г. Вергазова // Сельский механизатор. - 2016. - № 4. - С. 34-35.
22. Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008 й. – 267 б.

ISSN 3030-3907

23. Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Джаббаров Р.Р., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш. Основы стандартизации, метрологии, сертификации и управления качеством. Учебное пособие, Ташкент, НИИСМС, 2007. – 555 с.

ISSN 3030-3907

O‘QUV JARAYONIDA REFLEKSIYA VA BAHOLASHNI AVTOMATLASHTIRISH UCHUN E-PORTFOLIO PLATFORMASINI YARATISH VA PEDAGOGIK METOD SIFATIDA QO‘LLASH

Niyazmatova Baxtigul Rustamboy qizi
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini raqamlashtirish sharoitida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini monitoring qilishning innovatsion vositasi sifatida E-portfolio platformasini yaratishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi an’anaviy baholash tizimlarining sub’ektivligi va talaba faoliyatining dinamik o‘sishini to‘liq qamrab ololmasligi bilan izohlanadi. Muallif tomonidan taklif etilayotgan E-portfolio platformasi nafaqat yutuqlarni jamlovchi elektron ombor, balki talabaning o‘z ustida ishlashi, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishi uchun xizmat qiluvchi pedagogik refleksiv vosita sifatida talqin qilinadi. Maqolada platformaning arxitekturasini loyihalashda avtomatlashtirilgan baholash algoritmlari, kompetensiyalarni xaritalash va qayta aloqa (feedback) mexanizmlarini joriy etish masalalari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan. Shuningdek, e-portfolio metodikasining pedagogik samaradorligi uning talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishi, o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) darajasini oshirishi va o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishi orqali isbotlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish o‘qituvchining ish yuklamasini kamaytirish bilan birga, ta’lim sifatini shaffof va ob’ektiv nazorat qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: E-portfolio, refleksiv baholash, avtomatlashtirish, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiya, kompetensiya, monitoring, qayta aloqa, o‘z-o‘zini baholash, ta’lim platformasi.

Аннотация. Данная научная работа посвящена разработке и внедрению платформы E-portfolio как инструмента автоматизации процессов рефлексии и оценивания в высшем образовании. В статье рассматривается переход от классических методов контроля знаний к формирующему оцениванию, где ключевую роль играет цифровая фиксация индивидуальных образовательных траекторий. Автор обосновывает необходимость создания специализированной программной среды, которая позволяет структурировать учебные достижения, творческие работы и результаты научно-исследовательской деятельности в едином цифровом пространстве. Особое внимание уделяется педагогическому аспекту: использованию электронного портфолио как метода развития метакогнитивных навыков студентов. В работе анализируются механизмы автоматизации сбора данных

ISSN 3030-3907

и анализа прогресса обучающихся на основе алгоритмических моделей, что минимизирует фактор человеческой ошибки при выставлении итоговых баллов. Научная новизна исследования заключается в интеграции рефлексивных компонентов в программный интерфейс, что стимулирует студента к осознанному обучению и долгосрочному профессиональному планированию. Теоретические выводы подкрепляются ссылками на современные образовательные стандарты и международный опыт внедрения систем управления обучением (LMS).

Ключевые слова: Электронное портфолио, рефлексия, автоматизация оценивания, цифровизация образования, педагогический метод, образовательная траектория, мониторинг компетенций, высшая школа, интерактивное обучение, информационные технологии.

Annotation. This research explores the design, development, and pedagogical implementation of an E-portfolio platform aimed at automating reflection and assessment processes within the modern educational framework. The study posits that the shift toward student-centered learning requires innovative tools that transcend traditional grading systems, offering a more holistic view of a learner's progress. The proposed E-portfolio platform serves as a dual-purpose instrument: a technological solution for data-driven assessment and a pedagogical method for fostering self-reflective practitioners. By integrating automated feedback loops and competency-based tracking modules, the platform enables real-time monitoring of academic achievements while encouraging students to engage in critical self-analysis. The paper discusses the technical architecture of such systems, emphasizing the importance of user-friendly interfaces and secure data management. Furthermore, it examines the impact of E-portfolios on developing 21st-century skills, such as digital literacy, professional identity, and autonomous learning. The findings suggest that the automation of reflective assessment not only enhances administrative efficiency for educators but also significantly improves learning outcomes by providing students with a transparent and continuous roadmap of their intellectual development.

Keywords: E-portfolio, reflective assessment, automation, digital education, pedagogical methodology, competency mapping, self-regulated learning, educational technology, feedback systems, learning analytics.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim makonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal integratsiyalashuvi o'qitish metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. An'anaviy baholash tizimlari asosan natijaga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv jarayonining dinamik xarakterini, talabaning individual

ISSN 3030-3907

o‘sish trayektoriyasini va uning metakognitiv qobiliyatlarini to‘liq aks ettirishda yetarli samaradorlikka ega emas. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida raqamli transformatsiyani amalga oshirish nafaqat texnik vositalardan foydalanish, balki pedagogik jarayonlarning mazmuniy mohiyatini, xususan, baholash va refleksiya mexanizmlarini avtomatlashtirish orqali yangi bosqichga ko‘tarishni anglatadi. E-portfolio platformasi ushbu kontekstda shunchaki elektron arxiv emas, balki talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tizimli monitoring qilish, uning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va o‘z-o‘zini tahlil qilish (refleksiya) jarayonlarini birlashtiruvchi kompleks pedagogik ekotizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.Ilmiy adabiyotlarda e-portfolio tushunchasi talabaning o‘quv faoliyati davomidagi yutuqlari, ijodiy izlanishlari va intellektual salohiyatini namoyon etuvchi raqamli dalillar to‘plami sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy talablar ushbu vositani baholash jarayonining avtomatlashtirilgan bo‘lagiga aylantirishni, ya’ni sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili (learning analytics) yordamida talabaga real vaqt rejimida qayta aloqa berish imkoniyatlarini yaratishni maqsad qilgan. Ushbu yondashuv pedagogik metod sifatida qo‘llanilganda, o‘quvchi o‘z bilimlarini passiv qabul qiluvchidan o‘z ta’limiy yutuqlarini konstruktiv baholovchi sub’ektga aylanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, baholash jarayonining shaffofligi va avtomatlashtirilganligi ta’lim oluvchilarda mas’uliyat hissini oshiradi, chunki har bir bajarilgan topshiriq va olingan natija tizimda muhrlanib, umumiy kompetensiya xaritasini shakllantirib boradi.Mazkur ishda tadqiq etilayotgan muammoning o‘ziga xosligi shundaki, u texnologik yechim va pedagogik metodologiyaning o‘zaro sintezi asosiga qurilgan. Platformani yaratish jarayonida nafaqat dasturiy interfeys, balki ta’lim oluvchining psixofiziologik xususiyatlarini inobatga oluvchi refleksiv modullar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Refleksiya o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida talabaga o‘z xatolarini anglash, muvaffaqiyat strategiyalarini belgilash va olingan nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan qiyoslash imkonini beradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, baholash tizimini avtomatlashtirish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni cheklamaydi, aksincha, u o‘qituvchini rutinali statistik ishlardan ozod etib, ko‘proq mentorlik va yo‘naltiruvchi funksiyalarni bajarishiga sharoit yaratadi.Ushbu tadqiqot yo‘nalishi xalqaro miqyosda tan olingan Bloom taksonomiyasi va Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyalari bilan hamohang bo‘lib, raqamli asrda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. E-portfolio metodini qo‘llash orqali ta’lim sifatini boshqarishning yangi modeli yuzaga keladi, unda baholash nafaqat nazorat funksiyasini, balki rivojlantiruvchi va motivatsion funksiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqot davomida ushbu platformaning

ISSN 3030-3907

strukturaviy komponentlari, avtomatlashtirilgan baholash algoritmlarining pedagogik ob'ektivligi va refleksiya jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri qisman yoritib o'tiladi, bu esa kelgusida tizimning to'laqonli metodik modelini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy qismida E-portfolio platformasining o'quv jarayonidagi roli, uning arxitekturasi va refleksiv baholashni avtomatlashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogikada e-portfolio nafaqat raqamli ma'lumotlar bazasi, balki o'quvchining kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi murakkab metauslubiy vosita sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda, jumladan, J. Zubizarretaning refleksiv amaliyotlar haqidagi kontsepsiyalarida ta'kidlanganidek, e-portfolio talabaga o'z bilimlarini tizimlashtirish va o'zlashtirish darajasini doimiy ravishda tahlil qilib borish imkonini beradi. Ushbu platformani yaratishda asosiy e'tibor baholash jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratiladi, bu esa o'qituvchi va talaba o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarni kamaytirib, ob'ektivlik darajasini oshiradi. Avtomatlashtirish mexanizmi maxsus algoritmlar va kompetensiya xaritalari orqali amalga oshirilib, unda talabaning har bir harakati — topshiriqlarni yuklashdan tortib, forumlardagi muhokamalargacha — tizim tomonidan tahlil qilinadi va tegishli indikatorlar asosida baholanadi.

Pedagogik metod sifatida e-portfolioning o'ziga xosligi shundaki, u o'quv jarayonida "formative assessment" ya'ni shakllantiruvchi baholash tamoyilini ilgari suradi. Bu jarayonda talaba faqat yakuniy imtihon natijasiga qarab emas, balki butun semestr davomida bajargan ishlari, izlanishlari va refleksiv hisobotlari asosida baholanadi. Refleksiyani avtomatlashtirish moduli esa talabaga o'z ishini topshirishdan oldin uni o'z-o'zini baholash mezonlari (rubrics) asosida tekshirib ko'rish imkonini beruvchi interaktiv interfeysni taqdim etadi. Bu jarayon talabaning tanqidiy fikrlashini oshirish bilan birga, unda o'z xatolari ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. H. Barrett tadqiqotlariga ko'ra, elektron portfolio orqali amalga oshiriladigan refleksiya o'quvchining ichki motivatsiyasini tashqi baholardan ko'ra ko'proq rag'batlantiradi, chunki bu yerda o'sish dinamikasi vizual shaklda namoyon bo'ladi.Platformaning texnik tuzilishi axborot oqimlarini boshqarish, ma'lumotlarni saralash va ularni pedagogik maqsadlarga muvofiqlashtirish funksiyalarini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar bayonida uzviylikni ta'minlash maqsadida shuni aytish joizki, tizimda foydalaniladigan avtomatlashtirilgan baholash modellari nafaqat miqdoriy (ballar, foizlar), balki sifat ko'rsatkichlarini ham tahlil qilishga qodir bo'lishi kerak. Masalan, matn tahlili (text mining) texnologiyalari orqali talabaning yozgan refleksiv insholaridagi mantiqiylik va chuqurlik darajasini aniqlash mumkin. Bu esa an'anaviy test

ISSN 3030-3907

tizimlaridan farqli o‘laroq, yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni o‘lchashga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, e-portfolio metodikasini qo‘llash o‘qitishning "black box" (yopiq quti) modelidan voz kechib, jarayonning har bir bosqichini ochiq va tahliliy qilish imkonini beradi.Ushbu metodologiyaning amaliy ahamiyati yana shundaki, u bitiruvchining kasbiy pasportini shakllantiradi. Avtomatlashtirilgan tizim talabaning o‘quv yillari davomida to‘plagan barcha ko‘nikmalarini (soft skills va hard skills) umumlashtirib, uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ko‘rsatuvchi raqamli profilini yaratadi. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, bunday tizimlar joriy etilgan ta’lim muassasalarida talabalarning o‘quv faolligi 30-40 foizga oshadi, chunki ular o‘z mehnatlarining natijasini va uning kelajakdagi ahamiyatini aniq ko‘rib turadilar. Shuningdek, platformada o‘qituvchilar uchun yaratilgan tahliliy panel (dashboard) orqali guruhdagi umumiy o‘zlashtirish tendensiyalarini kuzatish va orqada qolayotgan talabalar bilan individual ishlash strategiyasini ishlab chiqish imkoniyati mavjud bo‘ladi.Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, e-portfolio platformasini yaratish faqatgina dasturiy mahsulot yaratish emas, balki ta’lim muhitini yangilash, baholashning demokratik va shaffof tamoyillarini qaror toptirish demakdir. Tizimdagi avtomatlashtirilgan feedback (qayta aloqa) mexanizmlari talabaga o‘z vaqtida yo‘nalish beradi, bu esa o‘quv jarayonidagi uzilishlarning oldini oladi. Bunday kompleks yondashuv ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy talablariga to‘liq javob berib, talabalarni mustaqil hayotga va doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlaydi. Ushbu metodikaning keng miqyosda qo‘llanilishi oliy ta’lim tizimida innovatsion muhitni yaratish va kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

E-portfolio platformasini o‘quv jarayoniga tatbiq etish va baholash tizimini avtomatlashtirish masalasi zamonaviy pedagogikada bir qator fundamental muammolar va ularning innovatsion yechimlari kesishmasida ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot yo‘nalishidagi asosiy muammolardan biri — an’anaviy baholash uslublarining statik xarakterga egaligi va talabaning individual rivojlanish jarayonini (process-oriented learning) emas, balki faqat oraliq yoki yakuniy natijani (product-oriented learning) qayd etish bilan cheklanishidir. Ilmiy adabiyotlarda, xususan, D. Boud va N. Falchikov tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, baholashning bunday cheklanganligi talabalarda o‘z faoliyatini tahlil qilish va tanqidiy baholash ko‘nikmalarining sustlashishiga olib keladi. Yana bir dolzarb muammo pedagoglarning ish yuklamasi bilan bog‘liq bo‘lib, katta akademik guruhlarda har bir talabaning refleksiv hisobotlarini va ijodiy ishlarini sifatli tahlil qilish, ularga o‘z vaqtida batafsil qayta aloqa (feedback) berish imkoniyati

ISSN 3030-3907

jismonan cheklanganligidir. Bu esa baholash jarayonida sub’ektivizmning ortishiga va talaba motivatsiyasining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu muammolarning samarali yechimi sifatida E-portfolio platformasini loyihalashda aqlli avtomatlashtirish modullarini joriy etish taklif etiladi. Yechimning mohiyati shundaki, tizim nafaqat hujjatlar ombori, balki sun’iy intellekt va "Learning Analytics" (ta’lim tahlili) vositalari yordamida talabaning o‘quv faoliyatini interpretatsiya qiluvchi muhitga aylantiriladi. Masalan, refleksiv baholashni avtomatlashtirishda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) algoritmlaridan foydalanish orqali talaba tomonidan yozilgan o‘z-o‘zini baholash matnlaridagi kalit tushunchalar, mantiqiy bog‘liqliklar va emotsional munosabat darajasi aniqlanishi mumkin. Bu o‘qituvchiga talabaning mavzuni naqadar chuqur anglaganligi haqida ob’ektiv ma’lumot beradi. Shuningdek, tizimda kompetensiya xaritalarining joriy etilishi har bir bajarilgan topshiriqning talaba umumiy professional profiliga qo‘shayotgan hissasini vizual shaklda ko‘rsatib beradi, bu esa "ko‘rinmas bilimlar" (tacit knowledge) muammosini hal qiladi.Pedagogik nuqtai nazardan yana bir yirik to‘siq — bu talabalarning refleksiv fikrlashga tayyor emasligi va portfolioni shunchaki majburiy rasmiylatchilik sifatida qabul qilishidir. Ushbu muammoning yechimi platformada "gamifikatsiya" (o‘yinlashtirish) elementlarini qo‘llash va interaktiv refleksiv shablonlarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Talabaga o‘z ishini topshirish jarayonida tizim tomonidan yo‘naltiruvchi savollar (scaffolding) berilishi uning fikrlash doirasini kengaytiradi va refleksiyani tizimli odatga aylantiradi. Shu bilan birga, platformaning bulutli texnologiyalar asosida qurilishi talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi vaqt va masofa muammosini bartaraf etib, "asinxron mentorlik" modelini shakllantiradi. Bu modelda o‘qituvchi talabaning ishiga u tugatilishidan oldin ham aralashishi va yo‘naltiruvchi maslahatlar berishi mumkin bo‘ladi, bu esa ta’lim sifatini boshqarishda proaktiv yondashuvni ta’minlaydi.Xalqaro tajriba, xususan, "Europortfolio" va "AAEEBL" (The Association for Authentic, Experiential, and Evidence-Based Learning) kabi tashkilotlarning tavsiyalari shuni ko‘rsatadiki, e-portfolio orqali baholashni avtomatlashtirish o‘quv jarayonining shaffofligini 60-70 foizga oshiradi. Yechim sifatida taklif etilayotgan platforma arxitekturasi foydalanuvchilarning raqamli izlarini (digital footprints) tahlil qilish orqali ularning qiyinchilik nuqtalarini (pain points) aniqlaydi va o‘qituvchiga qaysi talaba bilan ko‘proq individual ishlash zarurligi haqida signal beradi. Bu o‘z navbatida ta’limda resurslarni adolatli va samarali taqsimlash muammosini hal qiladi. Xulosa qilib aytganda, E-portfolio platformasini yaratish va uni pedagogik metod sifatida qo‘llash — ta’limdagi byurokratiyani kamaytirish, baholashning xolisligini ta’minlash va eng muhimi, talabani o‘z ta’limiy taqdirining faol ishtirokchisiga aylantirish imkonini beruvchi

ISSN 3030-3907

eng maqbul strategik yechimdir.Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni e-portfolio platformalarini samarali pedagogik vosita sifatida qo‘llashga o‘qitish muhim yechimlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda metodik qo‘llanmalar, amaliy treninglar va platformaning texnik imkoniyatlarini to‘liq o‘rganish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, refleksiya jarayonini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.Xulosa qilib aytganda, e-portfolio platformalarini joriy etishda uchraydigan muammolar — an’anaviy baholashning yetarli emasligi, texnik va metodologik cheklanishlar, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarining rivojlanmasligi — ilmiy tadqiqotlar orqali aniq tasdiqlangan. Shu muammolarning yechimi sifatida raqamli platformaning pedagogik va texnologik jihatlarini uyg‘unlashtirish, talabaning refleksiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tizimning interaktivligi va xavfsizligini ta’minlash hamda o‘qituvchilarni samarali ishlashga o‘qitish taklif etiladi. Bu yechimlar ta’lim jarayonining sifatini oshirish, talabaning individual rivojlanish trajektoriyasini shakllantirish va raqamli baholash tizimini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot mavzusi doirasida amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili jahon va mahalliy pedagogik tajribada e-portfolio tushunchasining evolyutsiyasini, uning baholash va refleksiya jarayonlaridagi o‘rnini fundamental ilmiy manbalar asosida ochib beradi. Zamonaviy ta’lim paradigmasida e-portfolio fenomenini tadqiq etgan yetakchi olimlardan biri Helen Barrett o‘zining ko‘p yillik izlanishlarida ushbu vositani "o‘quvchining chuqur o‘z-o‘zini anglash platformasi" sifatida tavsiflaydi. Barrettning fikricha, raqamli portfolio shunchaki ma’lumotlar ombori bo‘lib qolmasdan, u "learning as a story" (ta’lim — hikoya sifatida) konsepsiyasini ilgari suradi, ya’ni talaba o‘zining intellektual rivojlanish bosqichlarini xronologik va mantiqiy tarzda kuzatib borish imkoniga ega bo‘ladi. Bu yondashuv J. Zubizarretaning "Learning Portfolio" asarida bayon etilgan refleksiv amaliyotlar bilan hamohang bo‘lib, unda muallif portfolioni o‘quv jarayonidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishning eng samarali mexanizmi deb hisoblaydi.Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, baholashni avtomatlashtirish masalasi ko‘pincha "Learning Analytics" (ta’limiy tahlil) va "Big Data" texnologiyalari bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Masalan, D. Boud va N. Falchikov o‘zlarining baholash metodologiyasiga bag‘ishlangan ishlarida ta’kidlashicha, talabalarning o‘z-o‘zini baholash (self-assessment) qobiliyati ularning professional yetukligida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mualliflar an’anaviy baholash tizimlarining cheklanganligini tanqid qilib, e-portfolio orqali amalga oshiriladigan "formative assessment" (shakllantiruvchi baholash) modelini yuqori baholaydilar. Ushbu modelda avtomatlashtirilgan qayta aloqa (feedback) tizimlari talabaga o‘z xatolarini real vaqt rejimida ko‘rish va tuzatish imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, xalqaro miqyosda tan olingan "AAC&U" (Association of American Colleges and Universities) tomonidan ishlab chiqilgan "VALUE Rubrics" tizimi e-portfolio orqali talabaning kognitiv va amaliy ko‘nikmalarini ob’ektiv o‘lchashning standart mezonlarini taqdim etadi.Mahalliy va MDH davlatlari olimlarining tadqiqotlarida, xususan, ta’limni raqamlashtirish muammolarini o‘rgangan tadqiqotchilar ishlarida e-portfolio "kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning instrumentariysi" sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, avtomatlashtirilgan e-portfolio platformasini yaratishda "scaffolding" (pedagogik qo‘llab-quvvatlash) nazariyasiga tayanish zarur bo‘lib, bu jarayonda tizim talabaga o‘z yutuqlarini tizimlashtirishda algoritmlar orqali yo‘nalish beradi. Adabiyotlar tahlili jarayonida aniqlanishicha, refleksiyani avtomatlashtirishning pedagogik sharti — bu talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilish uchun interaktiv interfeysning mavjudligidir. Shu nuqtai nazardan, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi raqamli muhitda yangicha mazmun kasb etib, e-portfolio platformasi talabaning potentsial imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi "kognitiv ko‘prik" vazifasini o‘taydi.Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan barcha ilmiy manbalar e-portfolio platformasini yaratishda faqatgina texnik mukammallikka emas, balki uning ichki pedagogik mazmuniga — refleksiya va ob’ektiv baholashning uzviy birligiga e’tibor qaratish lozimligini uqtiradi. Adabiyotlar shuni tasdiqlaydiki, avtomatlashtirilgan tizimlar o‘qituvchining sub’ektiv qarashlaridan xoli bo‘lgan shaffof ta’lim muhitini yaratadi. Ushbu nazariy qarashlar bizning tadqiqotimiz uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi va platformaning algoritmlarini ishlab chiqishda xalqaro standartlarga tayanish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot mavzusiga doir adabiyotlar ko‘lami shuni ko‘rsatadiki, e-portfolio tizimi nafaqat ta’lim natijalarini qayd etadi, balki o‘quvchini doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi dinamik tizim hisoblanadi.

O‘quv jarayonida refleksiya va baholashni avtomatlashtirish uchun E-portfolio platformasini yaratish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnologiya zamonaviy raqamli didaktikaning eng samarali elementlaridan biri hisoblanadi. E-portfolio nafaqat talabalarning yutuqlarini jamlovchi raqamli arxiv, balki ularning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantiruvchi va o‘quv faoliyatini boshqarishni optimallashtiruvchi kompleks pedagogik tizimdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, baholash jarayonlarining avtomatlashtirilishi o‘qituvchining administrativ yuklamasini sezilarli darajada kamaytiradi va diqqatni ko‘proq talaba bilan individual mentorlik ishlari olib borishga qaratish imkonini beradi. Platformaning refleksiv modullari talabalarda o‘z-o‘zini tahlil qilish madaniyatini shakllantirib, ularni shunchaki axborot qabul

ISSN 3030-3907

qiluvchidan o‘z ta’limiy trayektoriyasini loyihalovchi faol sub’ektga aylantiradi.Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan, e-portfolio metodini qo‘llash baholashning ob’ektivligi va shaffofligini ta’minlashning fundamental yechimi bo‘lib xizmat qiladi. Avtomatlashtirilgan algoritmlar yordamida shakllantiriladigan kompetensiya xaritalari talabaga o‘z bilim va ko‘nikmalaridagi bo‘shliqlarni ko‘rish va ularni o‘z vaqtida bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, tizimning mehnat bozori bilan integratsiyalashuv potentsiali bitiruvchilarning ishga joylashish jarayonini osonlashtiradi, chunki ish beruvchilar uchun talabaning nafaqat diplomi, balki uning ko‘p yillik real faoliyatini aks ettiruvchi raqamli dalillar to‘plami taqdim etiladi. Xulosa qilib aytganda, E-portfolio platformasini ta’lim muassasalarida joriy etish — bu sifatli ta’limni ta’minlash, talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirish va raqamli iqtisodiyot talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning strategik yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Barrett, H. C. (2010). *Balancing the Two Faces of E-Portfolios.* British Journal of Educational Technology. (Elektron portfolioning pedagogik va texnik muvozanati haqida).
2. Zubizarreta, J. (2009). *The Learning Portfolio: Reflective Practice for Improving Student Learning.* Jossey-Bass. (Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash metodikasi bo‘yicha asosiy manba).
3. Boud, D., & Falchikov, N. (2007). *Rethinking Assessment in Higher Education: Learning for the Longer Term.* Routledge. (Oliy ta’limda baholashni qayta ko‘rib chiqish).
4. Cambridge, D. (2010). *E-Portfolios for Lifelong Learning and Assessment.* Jossey-Bass. (Uzluksiz ta’limda e-portfolio o‘rni).
5. Batson, T. (2015). *The ePortfolio as the New Paradigm for Academic Computing.* Campus Technology. (Akademik hisoblashda yangi paradigma).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2020-yil.
7. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers.* (O‘qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari bo‘yicha xalqaro standartlar).
8. Chen, H. L., & Light, T. P. (2010). *Electronic Portfolios and Student Success: Effectiveness, Efficiency, and Learning.* AAC&U publications. (E-portfolio va talabalar muvaffaqiyati tahlili).

ISSN 3030-3907

ПРЕОБРАЗОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ И МЕСТНЫХ ОТХОДОВ В ЖИДКОЕ УДОБРЕНИЕ ПОСРЕДСТВОМ АЗОТНО-КИСЛОТНОГО РАЗЛОЖЕНИЯ

Маматкулов Абдумалик Исроилович
PhD докторант, Андижон давлат техника институт, Республика Узбекистан
Дехканов Зулфикахар Киргизбаевич
Доктор техн. наук, профессор, Фаргонаский государственный технический университет, Республика Узбекистан
E-mail: zulfikaxar2404@gmail.com
Базаров Абдурасул Абдусаматович
Старший преподаватель, Фаргонаский государственный технический университет, Республика Узбекистан

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Qizilqumdan olingan fosforit chiqindilari va kungaboqar kulidan foydalangan holda nitrat kislotasi yordamida parchalanishidan foydalangan holda suyuq NPKCa o‘g‘itlarini ishlab chiqarish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Nitrat kislota konsentratsiyasining fosforit parchalanish tezligiga va 57,03% nitrat kislota o‘z ichiga olgan suyuq NPKCa o‘g‘itlarining kimyoviy tarkibiga ta'siri ham o‘rganilgan. Regeneratsiyalangan kislota reaktividan foydalangan holda samarali fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: fosforit chiqindilari, parchalanish tezligi, kungaboqar kul, nitrat kislota.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований по производству жидких NPKCa-удобрений с использованием фосфоритовых отходов из Центрального Кызылкума и золы подсолнечника, разлагаемых азотной кислотой. Также изучено влияние концентрации азотной кислоты на скорость разложения фосфорита и химический состав жидких NPKCa-удобрений, содержащих 57,03% азотной кислоты. Показана возможность производства эффективных фосфорных удобрений с использованием регенерированного кислотного реагента.

Ключевые слова: фосфоритовые отходы, скорость разложения, зола подсолнечника, азотная кислота.

Abstract: This article presents the results of research on the production of liquid NPKCa fertilizers using phosphorite waste from Central Kyzylkum and sunflower ash, which are decomposed by nitric acid. The effect of nitric acid concentration on the rate of phosphorite decomposition and the chemical composition of liquid NPKCa fertilizers containing 57.03% nitric acid was also studied. The feasibility

ISSN 3030-3907

of producing effective phosphorus fertilizers using a regenerated acid reagent is shown.

Keywords: phosphorite waste, decomposition rate, sunflower ash, nitric acid.

Введение.

Сегодня фосфатной рудой для фосфатных удобрений в Узбекистане являются центральные кызылкумские фосфориты. Средний образец фосфорита из месторождения Джерой-Сардара содержит (мас.%): 16,2 P_2O_5; 46,2 CaO; 17,7 CO_2; 0,6 MgO; 2,9 (Fe_2O_3 + Al_2O_3), 1,5 (K_2O + Na_2O); 2,65 SO_3; 1,94 F; 0,1 Cl; 7,8 нерастворимого остатка. Модуль кальция, т.е. соотношение CaO:P_2O_5, составляет 2,85. Такое сырье непригодно для переработки серной кислотой с целью получения высококонцентрированных фосфорных удобрений [1]. Для получения высококачественных удобрений требуется обогащение фосфатного сырья. В процессе обогащения в виде минерализованной массы остаются промышленные отходы. Их необходимо перерабатывать.

Известно, что фосфоритную муку традиционно применяют в качестве фосфорного удобрения [2].

Высокий кальциевый модуль вызывает большой перерасход серной кислоты. Высокое содержание карбонатов приводит к обильному пенообразованию в процессе кислотного разложения, а присутствие сверх допустимой нормы хлора (0,04%) резко ускоряет коррозию металлического оборудования. Это бедное сырьё необходимо обогащать. Прежде всего, нужно избавиться от излишнего количества карбонатов. Наиболее распространенный метод обогащения – это флотация [3].

Кислотная переработка фосфатного сырья представляет собой основной способ получения фосфорных удобрений. Наиболее широко в этих целях применяются серная и фосфорная кислоты. Так же применяется азотная кислота [4-6].

Среди потребителей минеральных удобрений наиболее востребованными являются комплексные удобрения, содержащие три основных питательных элемента – азот, фосфор и калий в необходимом соотношении при максимальном содержании суммы питательных элементов. Увеличение содержания питательных веществ и расширение требуемого ассортимента продукции NPK-удобрений возможно при использовании таких азотных добавок, как карбамид или нитрат аммония, что, в свою очередь, повышает агрохимическую ценность получаемых 5 удобрений, так как азот в таком случае представлен не только в аммонийной форме, но и в амидной или нитратной.

ISSN 3030-3907

Производство карбамид содержащих NPK-удобрений в настоящее время не получило широкого распространения из-за проблем со свойствами продукта (высокая гигроскопичность и слеживаемость, низкая прочность гранул), а также из за сложности ведения технологического процесса (залипание течек, насадок барабанного оборудования, сит грохотов, дробилок и т.п.). Технологии нитратсодержащих NPK-удобрений, напротив, пользуются значительно большей востребованностью производителей как в России, так и за рубежом, хотя и здесь возникают проблемы как с физико-механическими свойствами удобрений, так и с безопасностью производства. Таким образом, разработка и внедрение новых инновационных технологических решений для производства востребованных минеральных удобрений, обладающих определенными преимуществами относительно существующих на рынке, является актуальной задачей, решаемой в представленной работе [7-9].

Одним из недостатков при производстве нитроаммофоски из плава в башне приллирования является высокая вязкость NPK-плавов, при диспергации которых образуются крупные капли, что, в свою очередь, замедляет их затвердевание и требует значительного увеличения высоты башен. Исключить этот недостаток возможно путём охлаждения и кристаллизации плавов на поверхности твёрдой фазы, в качестве которой предложено использовать мелкие частицы ретура продукта или кристаллы ХК [10].

Объекты и методы исследования. При декарбонизации фосфатного сырья, наряду с карбонатами, хоть в меньшей степени, растворяется и фосфатный минерал с образованием водорастворимого монокальцийфосфата по реакции:

$$2Ca_5F(PO_4)_3 + 14HNO_3 \rightarrow 3Ca(H_2PO_4)_2 + 7Ca(NO_3)_2 + 2HF$$

Желательным является его перевести в твёрдую фазу, из которой получают концентрированные фосфорсодержащие удобрения. Для этого, прежде чем разделить кислую нитрокальцийфосфатную пульпу на жидкую и твердую фазы. Её подвергали нейтрализации калий карбоната до pH=3. В процессе аммонизации происходит взаимодействие между гидрофосфат-калия, нитратом калия с образованием жидкого азотно—фосфорно-калийно-кальциевого удобрения по реакции:

$$3Ca(H_2PO_4)_2+2Ca(NO_3)_2+4K_2CO_3+2H_2O\rightarrow Ca_5(PO_4)_3OH\downarrow+4KNO_3+3KH_2PO_4+K_2HPO_4+4CO_2\uparrow$$

ISSN 3030-3907

Образующийся гидрофосфат-калия выпадает в осадок, превращаясь в фосфорный концентрат, а в жидкой фазе образуются нитрат калия и фосфаты калия.

Продукты разложения азотной кислоты смешивали с рассчитанным количеством карбоната калия и азотсодержащего реагента при интенсивном перемешивании. Полученные влажные удобрения NPKCa получали в лабораторных условиях.

Результаты исследований по влиянию нормы азотной кислоты на степень извлечения CaO, P_2O_5, а также химический состав при разложении фосфоритов представлены в таблице 1.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ. Из таблиц видно, что изменение нормы применяемой азотной кислоты в 100% оказывает большое значение на степень извлечения фосфорного ангидрида.

Степень извлечения отдельных компонентов в фосфатном муке норма азотной кислоты для фосфорного ангидрида в 105% составляет 14,94%, с увеличением нормы азотной кислоты извлечения P_2O_5 снижается. А, в мытый и обожженным форме содержания фосфорного ангидрида изменяется в пределах 14,37 – 13,53%. С увеличением нормы кислоты выше 95% степень извлечения P_2O_5, CaO и других окислов снижается. Так, при норме 100-120% степень извлечения фосфорного ангидрида уменьшается, а окиси кальция увеличивается.

Таблица 1

Химический состав жидкой суспензии NPKCa и степень разложения фосфатного сырья, смеси промышленных и местных отходов

№	образец	HNO_3 гр 57.03 %	Норма HNO_3	Дис вода, мл	P_2O_5	CaO	Al_2O_3	Fe_2O_3	K_2O	N
ММ. Норма HNO_3 105-120%										
1	25	47.90	105%	25	4,57	13,42	0,053	0,057	1.28	6,53
2	25	50,62	110%	25	4,45	11,25	0,062	0,063	1.29	6,68
3	25	52,87	115%	25	4,28	10,32	0,088	0,078	1.31	6,81
4	25	55,30	120%	25	4,25	8,79	0,107	0,120	1.32	7,06
ММ+ЗП. Норма HNO_3 105-120%										

ISSN 3030-3907

1	25	51,70	105%	25	6,20	17,04	0,508	0,153	1.33	6,55
2	25	54,42	110%	25	6,11	15,75	0,615	0,186	1.45	6,79
3	25	56,65	115%	25	6,05	14,45	0,697	0,211	1.46	7,05
4	25	59,77	120%	25	6,00	11,88	0,871	0,264	1.48	7.52

Важно отметить, что содержание железа в азотно-кислотном растворе с повышением нормы кислоты от 105% до 120% увеличивается от 0,508 до 0,871%. Результаты опытов по влиянию нормы азотной кислоты на степень извлечения P_2O_5 и других компонентов показывают, что степень извлечения достигает максимального значения при концентрации в 110%. При увеличении её выше степень извлечения незначительно падает.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Таким образом, что для разложения фосфоритов рационального применение нормы азотной кислоты, которая способствует увеличению общей суммы питательного компонентов, повышение нормы кислоты приводит к снижению содержания P_2O_5 и разбавлению растворов. Экспериментально установлено, что для разложения фосфоритов оптимальной является азотная кислоты нормы 100%, а также показана возможность получения эффективных фосфорных удобрений в условиях восстановленного кислотного реагента.

Были получены удобрения NPKCa, содержащие 21,42% питательных веществ, с соотношением NPKCa. Растворимая и водорастворимая формы P_2O_5 и K_2O в полученных удобрениях NPKCa также составляли 98-99%.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Технология фосфорных и комплексных удобрений / Под ред. С.Д.Эвенчика и А.А. Бродского. - М.: Химия. - 1987. - 464с.
2. Ратобыльская Л.Д., Бойко Н.Н., Кожевников А.О. Обогащение фосфатных руд. М: Недра. – 1979. - 261 с.
3. Амирова А.М. Физико-химические исследования фосфоритов Центральных Кызылкумов и процессов их кислотной переработки // Узбекский химический журнал. - 1983. - № 1. - С. 18-26.
4. Позин М.Е. Технология минеральных удобрений / М.Е.Позин. –Л.: Химия, 1989. -352с.
5. Дехканов З.К., Намазов Ш.С., Султанов Б.Э., Закиров Б.С., Сейтназаров А.Р. Азотнокислотное обогащение фосфоритов Центральных Кызылкумов. // Химическая технология. Контроль и управление. 2011. № 4. С. 5-11. 12.

ISSN 3030-3907

6. Дехканов З.К., Ибрагимов Г.И., Намазов Ш.С., Садыков Б.Б., Реймов А.М., Сейтназаров А.Р. Химическое обогащение высококарбонатсодержащих фосфоритов Кызылкумского месторождения. // Горный Вестник Узбекистана. 2011. №2. С.121-124.
7. Портнова Н.Л., Кленицкий А.И., Кононов А.В. Реакции, протекающие при аммонизации экстракционной фосфорной кислоты // НИУИФ, М., 1979г, 9 стр. Деп. В ОНИИТЭХИМ, г.Черкассы, № 3275/79.
8. Кононов А.В., Трутнева Н.В., Ленева З.Л., Евдокимова Л.М. Количество и состав твердой фазы, образую щейся при аммонизации экстракционной фосфорной кислоты из рядовых руд бассейна Каратау в интервале изменения pH 1,3-2,5 // Химическая промышленность, 1983, № 7, С.417-419.
9. Каршиев Б.Н., Кахаров Э.М., Намазов Ш.С., Сейтназаров А.Р. Очистка экстракционной фосфорной кислоты, полученной из мытого обожженного фосфоконцентрата ацетоном. // Композиционные материаллы. Узбекский научно-технический и производственный журнал. – Ташкент, 2018 г. – № 2. – С. 116-118.
10. М.М.Винник, Л.Н.Ербанова, П.М.Зайцев. Методы анализа фосфатного сырья, фосфорных и комплексных удобрений, кормовых фосфатов // М., Химия, 1975. - 218 с.

ISSN 3030-3907

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING DIDAKTIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK STRATEGIYALARNING SAMARADORLIGI

Axmedova Laylo Baxtiyor qizi
“Profi University” xususiy oliy ta’lim muassasasi “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti (PhD)
ORCID: 0009-0000-1899-331X

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi innovatsion pedagogik strategiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning motivatsion-emotsional, faol, kognitiv va shaxsiy komponentlarining rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik usullar uyg‘unligiga asoslangan. Tadqiqot jarayonida eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirilib, boshlang‘ich va yakuniy diagnostika o‘tkazildi. Natijalar innovatsion pedagogik strategiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni eksperimental guruhda pedagogik ijodkorlik va didaktik kompetensiyalarning sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Statistik tahlil natijalari olingan farqlar tasodifiy emasligini tasdiqladi. Tadqiqot xulosalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida situatsion o‘qitish, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimli qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘qituvchilar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: didaktik kompetensiya, pedagogik strategiyalar, boshlang‘ich ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik ijodkorlik, innovatsion ta’lim, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье рассматривается эффективность педагогических стратегий в развитии дидактических компетенций будущих учителей начальных классов. Цель исследования заключается в выявлении влияния инновационных педагогических стратегий на развитие мотивационно-эмоционального, деятельностного, когнитивного и личностного компонентов профессиональной подготовки будущих учителей. Методология исследования основана на сочетании теоретического анализа, педагогического эксперимента и математико-статистической обработки данных. В ходе исследования были сформированы экспериментальная и контрольная группы, проведены входные и итоговые диагностические измерения. Полученные результаты свидетельствуют о значительном

ISSN 3030-3907

повышении уровней педагогического творчества и дидактических компетенций у студентов экспериментальной группы по сравнению с контрольной. Статистический анализ подтвердил достоверность выявленных различий. Результаты исследования показывают, что систематическое использование ситуационного обучения, проблемного обучения, проектной деятельности и информационно-коммуникационных технологий способствует повышению эффективности профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов. Материалы статьи могут быть использованы при совершенствовании содержания педагогического образования и организации учебного процесса в высших педагогических учебных заведениях.

Ключевые слова: дидактическая компетенция, педагогические стратегии, начальное образование, будущий учитель, педагогическое творчество, инновационное обучение, профессиональная подготовка.

Abstract. This article examines the effectiveness of pedagogical strategies in developing the didactic competencies of future primary school teachers. The main objective of the study is to determine the impact of innovative pedagogical strategies on the development of motivational-emotional, active, cognitive, and personal components of professional training. The research methodology is based on an integrated approach combining theoretical analysis, pedagogical experimentation, and statistical data processing. Experimental and control groups were formed, and pre-experimental and post-experimental measurements were conducted. The findings demonstrate that the implementation of innovative pedagogical strategies led to a significant improvement in pedagogical creativity and didactic competencies among students in the experimental group compared to the control group. Statistical analysis confirmed the reliability and significance of the observed differences. The results indicate that the systematic application of situational learning, problem-based learning, project-based activities, and information and communication technologies enhances the effectiveness of professional training for future primary school teachers. The outcomes of this study contribute to improving teacher education programs and enhancing the quality of pedagogical training.

Keywords: didactic competence, pedagogical strategies, primary education, future teacher, pedagogical creativity, innovative learning, professional training.

KIRISH

Har bir tarixiy davrda jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy omillar bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv sharoitida axborot erkinligining kengayishi, demokratik va insonparvar

ISSN 3030-3907

qadriyatlarning rivojlanishi, madaniyatlararo hamkorlikning kuchayishi ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda ta’lim nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Jamiyatning barqaror rivojlanishida boshlang‘ich ta’lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu bosqichda o‘quvchilarning asosiy didaktik, bilish va ijtimoiy kompetensiyalari shakllanadi. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlar natijasida hozirgi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari avvalgi davrlardagi tengdoshlaridan fikrlash uslubi, axborotni qabul qilish tezligi va o‘quv ehtiyojlari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat fan mazmunini yetkazuvchi, balki samarali pedagogik strategiyalar asosida ta’lim jarayonini loyihalovchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hollarda ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlar ustunlik qilmoqda, bu esa o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini to‘liq ta’minlay olmaydi. Ushbu holat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida didaktik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida pedagogik strategiyalarning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini rejalashtirish, o‘qitish usullarini tanlash, o‘quv faoliyatini tashkil etish va natijalarni baholashga doir didaktik malakalari kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning samaradorligini o‘rganish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatida samarali strategiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning samaradorligini ilmiy asoslash va tajriba-sinov orqali aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot savollari belgilandi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalar qanchalik samarali hisoblanadi; didaktik kompetensiyalarni shakllantirishda qaysi pedagogik strategiyalar eng yuqori natijadorlikka ega; pedagogik strategiyalarning o‘quv jarayoniga joriy etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifat ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

ISSN 3030-3907

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida didaktik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, ilmiy izlanishlar ijodkor va faol o‘qituvchilarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj bilan oliy pedagogik ta’limda saqlanib qolayotgan an’anaviy o‘qitish stereotiplari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan (Zivitere et al., 2015; Ibragimkyzy et al., 2016). Mazkur tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik strategiyalarning o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Ijodiy pedagogika doirasida olib borilgan tadqiqotlarda Selkrig va Keamy (2017) o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida o‘qituvchining ijodiy o‘rganishi konsepsiyasi yetarlicha e’tibordan chetda qolayotganini qayd etadilar. Mualliflarning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchilarning didaktik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogik strategiyalarni ijodiy va reflektiv o‘rganish bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Talabalar va bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy rivojlanishiga oid tadqiqotlar turli pedagogik modellar samaradorligini ko‘rsatadi. Jumladan, miya faoliyatiga asoslangan ta’lim jarayoniga tayanuvchi veb-modellar o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan (Prompan, 2007). Hamkorlikda o‘qitish va sinetika elementlariga asoslangan yondashuvlar ijodiy fikrlashni rivojlantirishda samarali pedagogik strategiya sifatida baholanadi (Chuathong, 2011). Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda “olti shlyapa” texnikasining didaktik ahamiyati Aulpaijidkul (2011) tadqiqotlarida asoslab berilgan. Aralash ta’lim modellarining bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil va reflektiv fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligi esa Kanchanachaya (2012) tomonidan yoritilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ijodkorlikning turli ko‘rinishlari ham keng tahlil qilingan. Texnik ijodkorlik kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi (Byvalkevych et al., 2020). Ijtimoiy ijodkorlik shaxsning muhit bilan samarali o‘zaro aloqasi natijasi sifatida izohlanadi (Mouchiroud & Lubart, 2002). Tadbirkorlik ijodkorligi esa innovatsion fikrlash va muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashuv bilan bog‘lanadi (Petrakis & Kafka, 2016). Ushbu tadqiqotlar pedagogik ijodkorlik va didaktik kompetensiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy va didaktik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari yoki boshqa ijodiy kasb vakillarining kasbiy rivojlanishiga qaratilgan (Abramo & Reynolds, 2015; Tu et


ISSN 3030-3907

al., 2018), shuningdek, asosan amaliy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan o‘qituvchilar tajribasini tahlil qilish bilan cheklanadi (Morais & Azevedo, 2011).

Ilmiy manbalarda ijodkorlik va didaktik kompetensiyalar muhit omillari ta’sirida shakllanishi qayd etiladi (De Bono, 1992; Sternberg, 2002). Biroq an’anaviy ta’lim yondashuvlari ijodiy salohiyatni to‘liq rivojlantirish imkonini bermaydi (Soh, 2018). Shu bois innovatsion pedagogik strategiyalar, yangi metodlar va didaktik vositalarni qo‘llash o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishi ta’kidlanadi (Ferrari et al., 2009). Innovatsion pedagogik texnologiyalarni maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli va izchil tarzda joriy etish ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi hamda kutilayotgan natijalarga erishishni ta’minlaydi (Dichkivska, 2015).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot jarayoni tizimli, izchil va bosqichma-bosqich metodologik yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqotda nazariy va amaliy izlanishlar uyg‘unligi ta’minlanib, pedagogik jarayonni kompleks tahlil qilishga imkon beruvchi metodlar majmuasidan foydalanildi.



1-rasm. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida didaktik kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 18–20 yoshdagi 1–2-bosqich talabalari tanlab olindi. Tadqiqot bazasi

ISSN 3030-3907

sifatida pedagogik ta’lim yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasasi belgilandi. Umumiy tanlanma tarkibidan statistik ishonchlilik talablariga muvofiq holda vakillik xususiyatiga ega bo‘lgan guruh shakllantirilib, eksperimental va nazorat guruhlari ajratildi. Bunday yondashuv pedagogik strategiyalar ta’sirini obyektiv baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi, tayyorlov bosqichida pedagogik strategiyalar va didaktik kompetensiyalar muammosiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi, tadqiqotning metodologik asoslari ishlab chiqildi, mezon va ko‘rsatkichlar belgilandi hamda diagnostik vositalar tanlandi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida qo‘llaniladigan fanlar mazmuni pedagogik strategiyalar asosida takomillashtirildi.

Ikkinchi, asosiy bosqichda pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ushbu bosqichda innovatsion pedagogik strategiyalar ta’lim jarayoniga joriy etilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning didaktik kompetensiyalaridagi o‘zgarishlar tizimli ravishda kuzatildi. Tajriba jarayonida o‘quv mashg‘ulotlari mazmuni muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat, o‘yin elementlari va axborot texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar orqali tashkil etildi. Dastlabki va yakuniy o‘lchov natijalari taqqoslab tahlil qilindi.

Uchinchi, yakuniy bosqichda olingan empirik ma’lumotlar qayta ishlanib, statistik tahlil asosida izohlandi hamda tadqiqot natijalari umumlashtirildi. Ushbu bosqichda pedagogik strategiyalarning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalariga ko‘rsatgan ta’siri baholandi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda nazariy metodlar sifatida tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, umumlashtirish va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik metodlar qatoriga so‘rovnoma, test, suhbat, pedagogik kuzatuv hamda diagnostik topshiriqlar kiritildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali ilgari surilgan farazning samaradorligi tekshirildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, tadqiqot xulosalarining ishonchliligi ta’minlandi.

1-Jadval.

Tadqiqot ishtirokchilarining demografik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Toifa	Soni	%	O‘rtacha qiymat	Min–Max
Jins					
	Qizlar	792	51,7	-	-
	O‘g‘il bolalar	739	48,3	-	-
Yosh					
	12 yosh	379	24,8	13,46 (1,10)	12–15

ISSN 3030-3907

	13 yosh	416	27,2	-	-
	14 yosh	381	25,0	-	-
	15 yosh	351	23,0	-	-
Sinf					
	7-sinf	820	53,4	-	-
	9-sinf	716	46,6	-	-

Jadvalda (1-jadval) tadqiqot ishtirokchilarining demografik ko‘rsatkichlari aks ettirilgan bo‘lib, tanlanmaning jins, yosh va sinf darajasi bo‘yicha muvozanatli taqsimlanganligini ko‘rsatadi. Ishtirokchilarning jinsiy tarkibi deyarli teng nisbatda shakllanganligi tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi. Yosh ko‘rsatkichlari 12–15 yosh oralig‘ida jamlangan bo‘lib, bu boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarning rivojlanish xususiyatlarini qamrab olish imkonini beradi. Sinf darajalari bo‘yicha taqsimot esa turli o‘quv bosqichlarida pedagogik strategiyalarning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish uchun zarur metodologik asos yaratadi.

Shu tariqa, tanlangan metodologik yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning samaradorligini har tomonlama o‘rganish imkonini berdi va tadqiqot maqsadiga erishishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini tavsiflovchi pedagogik ijodkorlik darajalari aniqlash maqsadida boshlang‘ich diagnostika o‘tkazildi. Ushbu bosqichda nazorat va eksperimental guruhlarda motivatsion-emotsional, faol, kognitiv va shaxsiy komponentlar bo‘yicha rivojlanish darajalari aniqlanib, ularning natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Boshlang‘ich o‘lchov natijalari shuni ko‘rsatdiki, motivatsion-emotsional komponent bo‘yicha talabalarning aksariyatida o‘rtacha daraja ustunlik qilgan. Eksperimental guruhda ushbu ko‘rsatkich 61,9 %ni, nazorat guruhida esa 53,1 %ni tashkil etdi. Past darajadagi talabalar ulushi eksperimental guruhda 53,3 %, nazorat guruhida esa 32,8 % atrofida qayd etildi. Yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar esa mos ravishda 12,8 % va 14,1 %ni tashkil etib, guruhlar o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmadi.

Faol komponent bo‘yicha ham dastlabki natijalar guruhlarning deyarli teng ekanligini ko‘rsatdi. O‘rtacha darajadagi talabalar ulushi eksperimental guruhda 53,9 %, nazorat guruhida 54,4 %ni tashkil etdi. Yuqori daraja eksperimental guruhda 17,5 %, nazorat guruhida 18,4 %, past daraja esa mos ravishda 28,6 % va 27,2 % darajada qayd etildi.

ISSN 3030-3907

Kognitiv komponent tahlili natijalariga koʻra, oʻrtacha daraja eksperimental guruhda 58,2 %, nazorat guruhida 59,7 %ni tashkil etgan. Yuqori daraja eksperimental guruhda 23,4 %, nazorat guruhida 21,2 %, past daraja esa mos ravishda 18,4 % va 19,1 % atrofida boʻlgan. Ushbu koʻrsatkichlar boʻyicha ham ikki guruh oʻrtasida sezilarli farq aniqlanmadi.

Shaxsiy komponent boʻyicha dastlabki diagnostika natijalari shuni koʻrsatdiki, oʻrtacha daraja eksperimental guruhda 60,4 %, nazorat guruhida 57,8 %ni tashkil etgan. Yuqori darajadagi talabalar ulushi eksperimental guruhda 24,8 %, nazorat guruhida 25,7 %, past daraja esa mos ravishda 14,8 % va 16,5 % darajasida aniqlangan. Umuman olganda, boshlangʻich oʻlchov natijalari eksperimental va nazorat guruhlarining pedagogik ijodkorlik darajalari boʻyicha deyarli bir xil ekanligini koʻrsatdi.


Keyingi bosqichda eksperimental guruhda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni amalga oshirildi. Ushbu jarayon qiymat-motivatsion, ijodiy-faol hamda refleksiv-baholash bosqichlarini qamrab oldi. Tajriba yakunida qayta diagnostika oʻtkazilib, olingan natijalar boshlangʻich koʻrsatkichlar bilan solishtirildi.

Yakuniy oʻlchov natijalari motivatsion-emotsional komponent boʻyicha eksperimental guruhda sezilarli ijobiy oʻzgarishlar yuz berganini koʻrsatdi. Past darajadagi talabalar ulushi 14,2 %ga kamaygan, yuqori darajadagi koʻrsatkichlar esa 20,3 %ga oshgan. Oʻrtacha darajadagi talabalar ulushi 16,1 %ga kamayib, yuqori darajaga oʻtish jarayoni kuzatilgan. Nazorat guruhida esa oʻzgarishlar nisbatan sust boʻlib, past daraja 2,7 %ga kamaygan, yuqori daraja 3 %ga oshgan, oʻrtacha darajadagi farq esa 0,3 %ni tashkil etgan.

Faol komponent boʻyicha eksperimental guruhda yuqori darajadagi talabalar soni 12,1 %ga oshgan, past daraja 10,3 %ga kamaygan. Nazorat guruhida esa yuqori daraja 6,2 %ga, oʻrtacha daraja 2,5 %ga oshgan boʻlsa-da, past daraja 3,7 %ga kamaygan va bu oʻzgarishlar sezilarli darajada emasligi aniqlandi.

Kognitiv komponent tahlili natijalariga koʻra, eksperimental guruhda yuqori daraja 5,2 %ga oshgan, past daraja 11,9 %ga kamaygan. Nazorat guruhida esa yuqori darajadagi koʻrsatkichlar 2,8 %ga oshgan, oʻrtacha daraja 0,8 %ga, past daraja esa 2 %ga kamaygan.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik ijodkorlik darajalari bo‘yicha dastlabki taqsimoti

Shaxsiy komponent bo‘yicha eksperimental guruhda yuqori daraja 13,6 %ga oshgan, past daraja 3,1 %ga, o‘rtacha daraja esa 10,5 %ga kamaygan. Nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2,5 %, 0,4 % va 2,1 %ni tashkil etgan.

Eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida χ^2 mezoni qo‘llanildi. Hisoblash natijasida empirik qiymat $\chi^2emp = 12,2$ ga teng bo‘lib, erkinlik darajasi 2 va ishonchlilik darajasi $p = 0,05$ uchun kritik qiymat $\chi^2krit = 5,991$ dan yuqori ekanligi aniqlandi. Natijada nol gipoteza rad etilib, alternativ gipoteza qabul qilindi, ya’ni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligi statistik jihatdan tasdiqlandi.

2-Jadval.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik ijodkorlik darajalari bo‘yicha taqsimoti

Mezon	Daraja	Nazorat guruhi, %	Eksperimental guruh, %
Motivatsion-emotsional	Yuqori	17,1	33,1
	O‘rtacha	52,8	45,8
	Past	30,1	21,1
Faol	Yuqori	24,6	29,6
	O‘rtacha	51,9	52,1
	Past	23,5	18,3
Kognitiv	Yuqori	24,0	28,6
	O‘rtacha	58,9	59,5

ISSN 3030-3907

	Past	17,1	11,9
Shaxsiy	Yuqori	28,2	38,4
	O‘rtacha	55,7	49,9
	Past	16,1	11,7

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning samaradorligini ilmiy asoslash va tajriba-sinov orqali aniqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar hamda empirik natijalar pedagogik strategiyalarni maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli ravishda qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Boshlang‘ich diagnostika natijalari eksperimental va nazorat guruhlarining pedagogik ijodkorlik darajalari bo‘yicha deyarli bir xil ekanligini aniqlab berdi. Bu holat tajriba-sinov ishlarini obyektiv olib borish uchun zarur metodologik sharoit mavjudligini tasdiqladi. Tajriba yakunida esa innovatsion pedagogik strategiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni eksperimental guruhda motivatsion-emotsional, faol, kognitiv va shaxsiy komponentlar bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelgani aniqlandi. Ayniqsa, yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarning oshishi va past darajadagi ko‘rsatkichlarning kamayishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalari rivojlanganidan dalolat beradi.

O‘tkazilgan statistik tahlil natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga joriy etilganda pedagogik strategiyalarning samaradorligi tasodifiy emasligini, balki ilmiy asoslangan va ishonchli ekanligini ko‘rsatdi. χ^2 mezoni asosida olingan natijalar nol gipotezaning rad etilishi va alternativ gipotezaning qabul qilinishiga olib keldi. Bu esa pedagogik strategiyalarni innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini statistik jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, situatsion o‘qitish, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, o‘yin texnologiyalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, pedagogik muammolarni samarali hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu strategiyalar o‘qituvchining ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va baholash bo‘yicha didaktik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Olingan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini

ISSN 3030-3907

tayyorlash jarayonida pedagogik strategiyalarni tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish; pedagogik fanlar mazmunini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish; ta’lim jarayonida ijodiy-faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish; pedagogik ta’limda reflektiv va baholovchi faoliyatni kuchaytirish; o‘qituvchilarni tayyorlashda didaktik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurs va modullarni joriy etish.

Shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlarda pedagogik strategiyalarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining amaliy faoliyatiga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish, shuningdek, raqamli ta’lim muhitida didaktik kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Arieti S. Creativity: The Magic Synthesis. New York, 1976, 410 p.
2. Csikszentmihalyi M. Society, Culture, and Person: A Systems View of Creativity. Cambridge, 1988, p. 325–339.
3. Sternberg R.J. Handbook of Creativity. Cambridge University Press, 2002, 512 p.
4. Ferrari A., Cachia R., Punie Y. Innovation and Creativity in Education and Training in the EU Member States. Luxembourg, 2009, 70 p.
5. De Bono E. Serious Creativity. London, 1992, 352 p.
6. Zivitere M., Riashchenko V., Markina I. Teacher Pedagogical Creativity and Innovative Teaching Practice // Procedia – Social and Behavioral Sciences, 2015, Vol. 214, p. 503–509.
7. Ibragimkyzy M., Akhmetova G., Bissenbayeva Z. Development of Creative Abilities of Future Teachers // International Journal of Environmental and Science Education, 2016, Vol. 11, No. 18, p. 9964–9976.
8. Selkrig M., Keamy R.K. Creative Pedagogy: A Case for Teachers’ Creative Learning Being at the Centre // Teaching Education, 2017, Vol. 28, No. 3, p. 317–332.
9. Mouchiroud C., Lubart T. Social Creativity: A Cross-sectional Study of 6- to 11-year-olds // International Journal of Behavioral Development, 2002, Vol. 26, No. 4, p. 343–354.
10. Petrakis P.E., Kafka K.I. Entrepreneurial Creativity and Growth // Journal of Entrepreneurship and Innovation, 2016, Vol. 17, No. 2, p. 101–121.
11. Soh K. Fostering Student Creativity through Teacher Behaviors // Thinking Skills and Creativity, 2018, Vol. 27, p. 80–90.
12. Morais M.F., Azevedo I. What Is a Creative Teacher and What Is a Creative Pupil // Procedia – Social and Behavioral Sciences, 2011, Vol. 12, p. 330–339.

ISSN 3030-3907

13. Abramo J., Reynolds A. Creativity in Music Teacher Education // Journal of Music Teacher Education, 2015, Vol. 25, No. 1, p. 23–35.
14. Tu J., Liu L., Wu K. Design Thinking in Teacher Education // Educational Research Review, 2018, Vol. 24, p. 90–103.
15. Dichkivska I.M. Innovative Pedagogical Technologies. Kyiv, 2015, 320 p.
16. Shevchuk S.S. Innovative Teaching Technologies in Higher Education. Kyiv, 2009, 256 p.
17. Williams F.E. Creativity Assessment Package. Buffalo, 1980, 215 p.
18. Mednick S.A. The Associative Basis of the Creative Process // Psychological Review, 1962, Vol. 69, No. 3, p. 220–232.
19. Kashapov M.M. Psychology of Creative Thinking. Moscow, 2006, 384 p.
20. Badmaeva N.Ts. Motivation of Educational Activity. Moscow, 2004, 246 p.

ISSN 3030-3907

COMPREHENSIVE OPTIMIZATION OF STRUCTURAL AND TECHNOLOGICAL FACTORS FOR REDUCING CUTTING TOOL WEAR BASED ON EXPERIMENTAL STUDIES AND MATHEMATICAL MODELING

Ataullayev Azizjon
Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan
Oripov Dostonjon
Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan
Orziqulova Umida
Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan
E-mail: orrudos@mail.ru

Abstract. This paper presents a comprehensive approach aimed at reducing cutting tool wear in metal machining processes. The study considers both structural factors (tool material and coating) and technological parameters (cutting speed, feed rate, and depth of cut) in an integrated manner. Experimental investigations were conducted based on the theory of designed experiments, and the obtained data were used to develop a mathematical model describing cutting tool wear. Based on this model, a conceptual approach to optimizing cutting process parameters according to the criterion of minimizing tool wear was proposed. The obtained results can be applied for the scientific analysis of cutting processes and for the selection of optimal technological regimes under industrial conditions.

Keywords: cutting tool wear; machining process; experiment; mathematical model; optimization.

Аннотация. В данной статье представлен комплексный подход, направленный на снижение износа режущего инструмента в процессах механической обработки металлов. В исследовании в интегрированном виде рассматриваются как структурные факторы (материал и покрытие инструмента), так и технологические параметры (скорость резания, подача и глубина резания). Экспериментальные исследования были проведены на основе теории планирования эксперимента, а полученные данные использованы для построения математической модели, описывающей износ режущего инструмента. На основе разработанной модели предложен концептуальный подход к оптимизации параметров процесса резания по критерию минимизации износа инструмента. Полученные результаты могут быть использованы для научного анализа процессов резания и выбора оптимальных технологических режимов в производственных условиях.

Ключевые слова: износ режущего инструмента; процесс резания; эксперимент; математическая модель; оптимизация.

ISSN 3030-3907

Annotatsiya. Mazkur maqolada metallarga mexanik ishlov berish jarayonlarida kesuvchi asbob yeyilishini kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv taqdim etiladi. Tadqiqotda strukturaviy omillar (asbob materiali va qoplamasi) hamda texnologik parametrlar (kesish tezligi, uzatma va kesish chuqurligi) integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqildi. Eksperimental tadqiqotlar rejalashtirilgan eksperiment nazariyasi asosida olib borildi va olingan ma’lumotlar kesuvchi asbob yeyilishini tavsiflovchi matematik modelni ishlab chiqishda qo‘llanildi. Ushbu model asosida kesish jarayoni parametrlarini asbob yeyilishini minimallashtirish mezoni bo‘yicha optimallashtirishga konseptual yondashuv taklif etildi. Olingan natijalar kesish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ishlab chiqarish sharoitlarida optimal texnologik rejimlarni tanlashda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kesuvchi asbob yeyilishi; kesish jarayoni; eksperiment; matematik model; optimallashtirish.

INTRODUCTION

In mechanical engineering, cutting tool wear during metal machining processes has a direct impact on production efficiency. As tool wear increases, cutting forces rise, the quality of the machined surface deteriorates, and the need for frequent tool replacement emerges. Therefore, reducing cutting tool wear is a scientifically and practically significant challenge. Modern studies emphasize the large number of factors influencing cutting tool wear. However, effective results can be achieved not by considering these factors separately, but by optimizing structural and technological parameters in an integrated manner. This paper is based on such an approach.[1]

MATERIALS AND METHODS

The following objects were selected for the study:

- the turning machining process;
- cemented carbide cutting tools (uncoated and coated);
- workpieces made of structural steel.

Experimental Design

The experimental study was organized based on the theory of designed experiments. In order to identify the factors having the greatest influence on cutting tool wear and to evaluate their interactions, the following parameters were selected as the main variable factors:[2]

cutting speed (V), which determines the level of heat generation and thermal loading in the cutting zone;

feed rate (S), which affects the mechanical load acting on the cutting tool and the cutting forces;

ISSN 3030-3907

depth of cut (t), which is a factor determining the stability of the cutting process and the strength of the tool edge;

tool coating, selected as a structural factor, and its influence on friction conditions and the wear resistance of the cutting tool was evaluated.

These factors were adopted as the main technological and structural parameters characterizing cutting tool wear in the machining process and were used as the basis for mathematical modeling and optimization of the experimental results in subsequent stages.[3]

RESULTS

Processing of Experimental Data

where:

- **V —** cutting speed;
- **S —** feed rate;
- **t —** depth of cut.

The model coefficients were determined using statistical methods, and their reliability was evaluated by means of analysis of variance (ANOVA). The experimental data obtained were processed using mathematical and statistical methods. In order to describe cutting tool wear, a second-order regression model was developed based on the experimental data. This model enables a comprehensive evaluation of the influence of the main technological factors of the cutting process—namely cutting speed, feed rate, and depth of cut—on tool wear.

To characterize cutting tool wear, a second-order multivariate regression model was adopted based on the experimental results. The model can be expressed in the following general form:[4]

$$VB = b_0 + b_1V + b_2S + b_3t + b_{12}VS + b_{13}Vt + b_{23}St + b_{11}V^2 + b_{22}S^2 + b_{33}t^2 \quad (2)$$

where:

VB — flank wear of the cutting tool;

V — cutting speed;

S — feed rate;

t — depth of cut;

b_0 — intercept term;

b_1, b_2, b_3 — linear effect coefficients

b_{12}, b_{13}, b_{23} — interaction coefficients representing the combined effects of the factors;

b_{11}, b_{22}, b_{33} — coefficients of the quadratic terms.

This regression model describes the nonlinear nature of cutting tool wear by taking into account the main technological factors of the cutting process and their interactions. The inclusion of quadratic and interaction terms in the model enables

ISSN 3030-3907

a mathematical representation of the complex physical and mechanical phenomena occurring during the cutting process. The model coefficients were determined based on experimental results, and their significance was evaluated using statistical criteria. The developed model serves as a basis for optimizing cutting process parameters and for addressing the problem of reducing cutting tool wear in subsequent stages. Using the regression model, the relationships among the main technological factors of the cutting process were identified, and their effects on cutting tool wear were analyzed based on the model structure. [1,5]The selection of a second-order model made it possible to account for the nonlinear behavior of the cutting process as well as the interactions among technological parameters. The variation of tool wear with respect to cutting time is shown in Figure 1.




Figure 1. Dependence of cutting tool flank wear (VB) on the volume of material removed at different cutting speeds

This figure illustrates the variation of cutting tool flank wear (VB) with respect to the volume of material removed. The initial, steady-state, and accelerated wear stages are clearly observed. This behavior makes it possible to evaluate tool life and the effective operating period of the cutting tool during the machining process.

Influence of the Structural Factor

Within the scope of the experimental study, the influence of cutting tool coating on the wear process was analyzed separately as a structural factor. Coated and uncoated cutting tools were compared under identical technological conditions, which made it possible to evaluate the role of the coating in the cutting process.

The analysis showed that the tool coating, selected as a structural factor, has a significant effect on cutting tool wear in combination with technological

ISSN 3030-3907

parameters. In the presence of a coating, a more stable cutting process was observed, and the wear intensity was manifested in interaction with the technological factors. This approach demonstrates the necessity of analyzing structural and technological factors in a comprehensive manner and provides a scientific basis for optimizing cutting tool wear reduction. Figure 2 schematically illustrates the main types of cutting tool wear, including flank wear and crater wear, along with their characteristic geometric parameters.




Figure 2. Influence of feed rate on cutting tool wear

This figure schematically illustrates the main types of cutting tool wear, including flank wear and crater wear, along with their characteristic geometric parameters. The diagram highlights the formation of wear on the rake face and flank surface of the cutting tool, providing a basis for understanding the wear mechanisms.

DISCUSSION

Based on the obtained results, it was found that reducing cutting tool wear cannot be achieved solely by decreasing the cutting speed. Cutting speed, feed rate, and depth of cut are interrelated, and an optimal combination of these parameters exists.[5]

Using the developed mathematical model, the optimal values of these parameters can be determined. This makes it possible to minimize tool wear while maintaining production efficiency. The application of coated cutting tools as a

ISSN 3030-3907

structural factor further enhances the effectiveness of the optimization process. The problem of reducing cutting tool wear in the machining process was considered as an optimization problem. The main objective of this problem is to select the structural and technological parameters of the cutting process in such a way that cutting tool wear is minimized while maintaining the stability of the technological process.

The objective function of the optimization problem is expressed as follows:

$$VB \rightarrow \min$$

Here, **VB** represents the flank wear of the cutting tool and was adopted as the primary criterion for evaluating the efficiency of the cutting process.

During the optimization process, the following constraints were taken into account:

technological stability, meaning that vibrations, unstable cutting, and damage to the tool edge must be avoided during the cutting process;

surface quality of the machined workpiece, requiring compliance with the specified surface roughness and geometric accuracy requirements;

machine tool and technological system limitations, meaning that the values of cutting speed, feed rate, and depth of cut must not exceed the power and structural constraints of the available machine tool.

Based on the mathematical model developed within these constraints, the optimal technological parameters of the cutting process were determined. This approach makes it possible to reduce cutting tool wear while maintaining production efficiency and provides a scientific basis for the comprehensive optimization of structural and technological factors.

CONCLUSION

Based on the conducted research, the following conclusions were drawn:

1. It was established that reducing cutting tool wear requires a comprehensive consideration of structural and technological factors in their interrelation.
2. An approach based on designed experiments and mathematical modeling provides an effective means for solving optimization problems related to the cutting process.
3. The use of coated cutting tools and the optimal selection of cutting regimes significantly increase tool life.

The results of this study are recommended for the scientific optimization of machining processes in mechanical engineering and for improving production efficiency.

The scientific novelty of this work lies in the comprehensive analysis of structural and technological factors affecting cutting tool wear during the cutting

ISSN 3030-3907

process, based on experimental investigations and mathematical modeling. Based on the results of the designed experiments, a mathematical model describing cutting tool wear was developed, and a conceptual approach to optimizing cutting process parameters was proposed. The proposed approach makes it possible to effectively reduce cutting tool wear while maintaining the stability of the technological process.

REFERENCES

1. O.Kh. Ataullaev, A.O. Ataullaev, B.T. Bisenova, Seybold Report Journal (TSRJ) 17(12), 451-461 (2022)
2. R.O. Muminov, G.E. Rayhanova, D.A. Kuziev, Experimental research and analysis of a quarry drilling rig/ Ugol' 5, 32-36 (2021).
3. D.A. Kuziev, V.V. Zotov, E.S. Sazankovaa, R.O. Muminov, Eurasian Mining 37(1), 76-80 (2022).
4. A.A. Irgashev, F.A. Ergashev, *Screw conveyor with anti-friction polymer coating for cotton transportation,* Annual International Scientific Conference on Agricultural Engineering and Green Infrastructure Solutions (AEGIS-2021) 20-21 May, Tashkent, Uzbekistan (2021)
5. Pervachev S.V., Chilikin V. M. Digital systems of radio automatic equipment. M.: Publishing house of MEI, 1999, 46 p.

ISSN 3030-3907

KRAINA (KARNIKA) JONSIZ ASALARILAR BIOMASSASIDAN XITIN OLISH

Namozov Orif Mardanovich
Toshkent Davlat Texnika Universiteti,
Ergasheva Xurshidaxon Nurmuxammat qizi
Namangan Impuls tibbiyot insituti,
E-mail: xurshidaergasheva2904@gmailcom
Mirzakarimov Boburmirzo Nurmuxammat o‘g‘li
Namangan Impuls tibbiyot insituti
Tel: +99897 800 80 93
Namangan, O‘zbekiston

Abstract. This study investigates a laboratory method for extracting chitin from the biomass of dead Kraina (Carnica) honeybees. Since insect chitin does not contain a mineral fraction and the cuticle contains up to 50% pure chitin, the use of this raw material leads to cost reduction through simplification of the technological process. In this regard, chitin was obtained based on a four-stage technological scheme for the complex processing of insect biomass. The process included washing, drying, demineralization, and deproteinization of the raw material.

Keywords: chitin, honeybee biomass, Kraina honeybee, demineralization, deproteinization.

Аннотация. В данной работе изучен лабораторный метод получения хитина из биомассы мёртвых пчёл породы Крайна (Карника). Учитывая отсутствие минеральной фракции в хитине насекомых и содержание до 50% чистого хитина в кутикуле, использование данного сырья позволяет снизить стоимость процесса за счёт упрощения технологической схемы. В связи с этим получение хитина осуществляли на основе четырёх стадийной технологической схемы комплексной переработки биомассы насекомых. Процесс включал стадии промывания, сушки, деминерализации и депротеинизации сырья.

Ключевые слова: хитин, биомасса пчёл, пчёлы породы Крайна, деминерализация, депротеинизация.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda jonsiz Kraina (Karnika) zotiga mansub asalarilar biomassasidan xitin olishning laboratoriya usuli o‘rganildi. Hasharotlar xitinida mineral fraksiya bo‘lmagani va kutikulada toza xitinning miqdori 50% bo‘lgani, bunday xomashyoning qo‘llanilishi texnologik jarayonni soddalashtirish hisobida arzonlashtirishga olib keladi. Shu munosabat bilan hasharotlarni kompleks qayta ishlash 4 bosqichli texnologik sxema asosida olindi. Jarayon xomashyoni yuvish, quritish, demineralizatsiya va deproteinizatsiya bosqichlarini o‘z ichiga oldi.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: xitin, asalarilar biomassasi, Kraina asalari, demineralizatsiya, deproteinizatsiya.

KIRISH

Xitin va xitozan biopolimerlari bundan ikki ming yil ilgari olimlarning e’tiborini o‘ziga jalb eta boshladi. Xitin ilk bor 1811- yilda H.Brakkonot va A.Odiyer tomonidan kashf qilingan [1].

Xitin tabiiy polisaxarid bo‘lib, asosan hasharotlar tashqi skeletida uchraydi. Hozirgi kunda muhim tibbiy ahamatga ega bo‘lgan xitozan xitin moddasining deatsetillash mahsuloti hisoblanadi va undan ko‘plab foydali xossalari sabab tibbiyotda, qishloq xo‘jaligida va boshqa sanoat sohalarning deyarli barcha tarmoqlarida turli maqsadlarda foydalaniladi. Xitozan birinchi bo‘lib Yaponiyada metallarni bog‘lash xossasi tufayli ishlatilgan, bugungi kunda bu polimer jarrohlik choklari va antibiotiklardan tortib, to oziq-ovqat mahsulotalari, parhez qo‘shimchalari va kosmetikagacha uchraydi [2-5]. Ushbu ishda Kraina zotiga mansub jonsiz asalarilar biomassasidan xitin olish jarayoni tadqiq qilindi.Xitozan asosida olingan bioqo‘shimchalar teri,tirnoq va sochlarni yaxshilashi sabab parhezshunoslikda va kosmetkada;Xitin va xitozan organizm ishdan chiqishini yengishiga yordam beradigan ,foydali ichak bakteriyasi,bifidobakteryaning ko‘payishiga yordam berish xususiyati tufayli farmotsevtikada turli dori vositalari ishlab chiqarishida [6-8].Karnika asalari zoti –Apis mellifera carnica.Ushbu zotning tana rangi kumushsimon kulrang.Asalarining ishchisini xartumi uzunligi 6.4-6.8 mm,asalari onasi 205mg og‘irlikda bo‘lib,kuniga 1400-2000 donagacha tuxum qo‘yadi.Mutaxassislar bu zot asalarilari o‘zida Karpat va Kavkaz zotlarining ijobiy xususiyatlarini namoyon etadi.Qishga chidamliligi O‘rta rus asalarisidan keyin turadi.Tinchliksevar,erta bahordan boshlab yaxshi rivojlanadi,kam ko‘ch ajratadi,ko‘ch ajratish jarayonidan tez chiqadi va shiraga boy o‘simliklarni tezroq topadi.Dastlab asalni urug‘li romlarga v keyin bo‘lmadagi romli uyalarga joylaydi.Karnika asalarilari ozuqani kam iste’mol qiladi.Bu zotli asalarilar asal yig‘ish bo‘yicha ancha uddaburon,bir shirali o‘simlikdan boshqasiga juda tez o‘tadilar[9]

MATERIALLAR VA USULLAR

Xomashyo tayyorlash: Tadqiqot uchun jonsiz Kraina asalarilaridan xomashyo sifatida 20 g miqdorda yig‘ib olindi. Namuna distillangan suv bilan ko‘p marotaba yuvildi va salqin joyda 14 kun davonida xona haroratida saqlandi, quritildi.

Quritish jarayonida imkon qadar namuna turli qoldiqlari va ortiqcha jinslardan tozalab turildi. Quritish jarayonida namunaning massasi 10 g ga kamaydi.

ISSN 3030-3907



1



2

1-2-Rasmlar: Kraina (Karnika) asalarini quritish jarayoni (1) va filtlangan namuna (2)

Maydalash: Quritilgan biomassa mexanik usulda chinni havonchada maydalanib, kukunsimon holga keltirildi.

Demineralizatsiya: Maydalangan namuna xlorid kislotaning 3% li 100 ml eritmasida 30 daqiqa davomida saqlab turildi. Jarayondan so‘ng namuna filtrlab olinib, 5-7 marotaba distillangan suv bilan yuvildi.

Deproteinizatsiya: Demineralizatsiyadan o‘tkazilgan namuna natriy gidroksidning 5% li 100 ml eritmasida 1 soat davomida saqlab turildi. Keyin namuna distillangan suv bilan yuvildi va filtrlandi. Yuvish jarayoni filtrat suvning pH qiymati 7 ga teng bo‘lguncha davom ettirildi.

XITINNING KIMYOVIY TUZILISHI VA XOSSALARI

Xitin — **β-(1→4)-bog‘lar bilan bog‘langan N-atsetil-D-glyukozamin** qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulyar polisaxariddir. Kimyoviy formulasi:

$$(C_8H_{13}O_5N)_n$$

Xitinning asosiy xossalari:

- suvda va ko‘pchilik organik erituvchilarda erimaydi;
- yuqori mexanik mustahkamlikka ega;
- biologik mos va biodegradatsiyalanadi;
- toksik emas;
- kimyoviy modifikatsiyaga yaroqli.

Xitin ishqoriy deatsetillash orqali **xitozan**ga aylantirilishi mumkin, bu esa uning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

ASALARI BIOMASSASINING TARKIBI

Jonsiz asalarilar biomassasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- xitin (asosiy tarkibiy skelet);

ISSN 3030-3907

- oqsillar;
- lipidlar (mum qoldiqlari);
- mineral moddalar (Ca, Mg, P tuzlari);
- pigmentlar (melanin).

Xitin asosan asalarining tashqi skeleti — **ekzoskelet** tarkibida joylashgan bo‘lib, boshqa komponentlardan ajratib olinadi.

KRAINA (KARNIKA) ASALARILARIDAN XITIN OLISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xitin olish jarayoni ko‘p bosqichli bo‘lib, biomassani ketma-ket kimyoviy va fizik ishlov berish orqali amalga oshiriladi.

1. Biomassani tayyorlash

- jonsiz asalarilar quritiladi;
- mexanik maydalanadi;
- begona aralashmalardan tozalanadi.

2. Deproteinizatsiya (oqsillarni ajratish)

Bu bosqichda biomassaga **ishqoriy eritma (NaOH)** bilan ishlov beriladi.

Nazariy mohiyat:

- NaOH oqsillarni gidrolizlaydi;
- xitin tuzilmasi nisbatan barqaror bo‘lib, saqlanib qoladi.

3. Demineralizatsiya (mineral moddalardan tozalash)

Biomassa **kislota (odatda HCl)** bilan ishlanadi.

Nazariy mohiyat:

- $CaCO_3$ va boshqa mineral tuzlar eriydi;
- xitin tozalanadi.

4. Oqartirish (pigmentlarni yo‘qotish)

Pigmentlar va rang beruvchi moddalarni yo‘qotish uchun:

- vodorod peroksid (H_2O_2)

yoki

- organik erituvchilar qo‘llaniladi.

5. Yuvish va quritish

- neytral pH gacha yuviladi;
- quritish orqali sof xitin olinadi.

ASALARI XITINING AFZALLIKLARI

Kraina asalarilaridan olingan xitinning afzalliklari:

- ekologik toza xomashyo;
- qisqichbaqasimonlarga allergiyasi bo‘lganlar uchun muqobil manba;
- past mineral tarkib (demineralizatsiya oson);
- mayda tolali tuzilma;

ISSN 3030-3907

- farmatsevtika va tibbiyot uchun qulay.

XITIN VA XITOZANNING QO‘LLANILISH SOHALARI

Xitin va uning hosilasi xitozan quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi:

- tibbiyotda (yaralarni davolash, bioimplantlar);
- farmatsevtikada (dori tashuvchilar);
- qishloq xo‘jaligida (o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi);
- oziq-ovqat sanoatida (konservant);
- ekologiyada (og‘ir metall ionlarini yutish);
- biotexnologiyada.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dastlabki yuvish va quritish jarayonida namunaning sezilarli massa kamayishi kuzatildi, bu biomassa tarkibidagi suv va eruvchan aralashmalarning yo‘qotilishi bilan izohlanadi. Demineralizatsiya bosqichida mineral komponentlar, deproteinizatsiya jarayonida esa oqsillar samarali ajratib olindi. Neytral pH ga erishilishi ishqor qoldiqlarining to‘liq chiqarilganini ko‘rsatdi. Natijada nisbatan toza xitin olindi.

XULOSA

Tadqiqotning muhim ilmiy jihati shundaki, jonsiz asalarilar biomassasini qayta ishlash orqali biologik chiqindilarni yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish imkoniyati asoslab berildi. Bu esa resurslarni tejash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish konsepsiyasiga to‘liq mos keladi. Shuningdek, mazkur ish mahalliy xomashyo manbalaridan foydalanish orqali import o‘rnini bosuvchi biopolimerlar ishlab chiqarish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.Kraina (Karnika) zotiga mansub o‘lik asalarilar biomassasidan xitin olish laboratoriya sharoitida muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Taklif etilgan usul oddiy, takrorlanuvchan va samarali bo‘lib, hasharotlar biomassasidan xitin olishda muqobil texnologiya sifatida qo‘llanishi mumkin.Bu natijalar xitin polimerining ahamiyatini qanchalik yuksak ekanligini ilmiy va amaliy tarzda ko‘rsatib turibdi.Undan olinadigan xitozanni esa qo‘llab ko‘rilmagan soha bo‘lmasa kerak.

ADABIYOTLAR

1. Kurbonova Feruza Nurulloyevna, Abdullayeva Nazokat Buxoro davlat tibbiyot instituti Biokimyo kafedrasi. “Amaliy va tibbiyot fanlari” ilmiy jurnali. ISSN: 2181-346 11. 2024 yil

2. Милушева Р.Ю., Рашидова С.Ш. // Хитин, хитозан. Bombyx mori и наносистемы на их основе. Ташкент: ФАН, 2016.

3. G.A.Ikhtiyarova, F.N.Kurbanova // Obtaining an ecologically pure biopolymer carboxymethyl chitosan from apis mellifera. 10 nov, 2021.P.1531-1536.

ISSN 3030-3907

4. Ихтиярова Г.А., Маматова Ш.Б., Курбанова Ф.Н. // Получение и характеризация хитина и хитозана из подмора пчелы Apis mellifera. Журнал Универсум. 2018.
5. Abdullahi A, Amini-Nik S, Jeschke M. Animal models in burn research. Cellular and Molecular Life Sciences. 2014. 71(17) 3241-3255. DOI: 10.1007/s00018-014-1612-5.
6. Andrews CJ, Kempf M, Kimble R, et al. Development of a consistent and reproducible porcine scald burn model. PLoS One. 2016.11(9):e0162888. DOI: 10.1371/journal.pone.0162888
7. Курбанова Ф.Н., Ихтиярова Г.А., Джумаева М.К. Способ получения и физико-химические свойства карбоксиметил эфиров хитозана из подмора пчел. Universum: технические науки. 3(96) март. М. 2022. Часть 5. С.18-23.
8. Dahiya P. Burns as a model of SIRS. Frontiers in Bioscience. 2009.14.4962-4967. DOI: 10.2741/3580
9. Po‘latov Sarvar Mustafoyevich,Qo‘chqaarov Abdukarim Nuriddinovich,Aminova Shoira Furqat qizi,Haydarov Maqsud Abdulvohidovich,To‘raqulova Shaxnoza Sarvar qizi.Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali.Scienes Journal Impact Factor ISSN2181-1784 june 2022

ISSN 3030-3907

N,N′ GEKSAMETILEN BIS-[(PARA - AMINOATSETAAMID) MOCHEVINA] SINTEZI VA UNING TAHLILI

A.G. Mahsumov
Toshkent komyo texnologiya instituti, Toshkent, O‘zbekiston
G.M.Absalyamova
Toshkent komyo texnologiya instituti, Toshkent, O‘zbekiston
M.I.Juraeva
Toshkent komyo texnologiya instituti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: absalyamovagulnoza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot geksametilen diizotsianat asosida yangi aromatik bis-mochevina hosilasini sintez qilish va uning tuzilishini kompleks spektral usullar yordamida tasdiqlashga bag‘ishlangan. Sintez aromatik aminning geksametilen diizotsianat bilan nukleofil qo‘shilish reaksiyasi orqali dimetilformamid muhitida, trietilamin ishtirokida olib borildi. Reaksiya yumshoq sharoitlarda yuqori selektivlik bilan kechib, maqsadli bis-mochevina birikmasi olindi. Olingan birikmaning tozaligi yupqa qatlamli xromatografiya yordamida baholanib, benzol–etil asetat erituvchilar sistemasida Rf = 0.73 qiymati aniqlandi. Olingan natijalar geksametilen diizotsianat asosidagi aromatik bis-mochevina birikmalarini maqsadli sintez qilish mumkinligini ko‘rsatib, ularning kelgusida supramolekulyar tizimlar va funksional materiallar sohasida qo‘llanishi uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: geksametilen diizotsianat; aromatik bis-mochevina; nukleofil qo‘shilish; spektral tahlil; vodorod bog‘lari

Аннотация. Данное исследование посвящено синтезу нового ароматического производного бис-мочевины на основе гексаметилендиизоцианата и подтверждению его структуры комплексными спектральными методами. Синтез проводили реакцией нуклеофильного присоединения ароматического амина с гексаметилендиизоцианатом в среде диметилформамида в присутствии триэтиламина. Реакция протекала с высокой селективностью в мягких условиях, и было получено целевое соединение бис-мочевина. Чистоту полученного соединения оценивали с помощью тонкослойной хроматографии и определяли значение Rf = 0.73 в системе растворителей бензол-этилацетат. Полученные результаты показывают возможность целенаправленного синтеза ароматических бис-мочевиновых соединений на основе гексаметилендиизоцианата и создают научную основу для их дальнейшего применения в области супрамолекулярных систем и функциональных материалов.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: гексаметилен диизоцианат; ароматическая бис-мочевина; нуклеофильное присоединение; спектральный анализ; водородные связи

Abstract. This study is devoted to the synthesis of a new aromatic bis-urea derivative based on hexamethylene diisocyanate and the confirmation of its structure using complex spectral methods. The synthesis was carried out by the nucleophilic addition reaction of aromatic amine with hexamethylene diisocyanate in a dimethylformamide medium in the presence of triethylamine. The reaction proceeded with high selectivity under mild conditions, and the target bis-urea compound was obtained. The purity of the obtained compound was assessed using thin-layer chromatography, and the value of Rf = 0.73 was determined in the benzene-ethyl acetate solvent system. The obtained results show the possibility of targeted synthesis of aromatic bis-urea compounds based on hexamethylene diisocyanate, which creates a scientific basis for their further use in the field of supramolecular systems and functional materials.

Keywords: hexamethylene diisocyanate; aromatic bis-urea; nucleophilic addition; spectral analysis; hydrogen bonds

KIRISH.

Diizotsianatlar zamonaviy organik va polimer kimyosida eng muhim bifunksional reagentlardan biri hisoblanadi. Ularning izotsianat guruhi (–N=C=O) yuqori elektrofil xususiyatga ega bo‘lib, birlamchi va ikkilamchi aminlar bilan tez va selektiv reaksiyaga kirishib, mochevina (urea) bog‘larini hosil qiladi. Ushbu xususiyat diizotsianatlarni mochevina, bis-mochevina, poli(mochevina) va poliuretan kabi funksional birikmalarni sintez qilishda keng qo‘llash imkonini beradi. Aromatik diizotsianatlar yuqori reaktivlikka ega bo‘lishiga qaramay, ranglanish, fotodegradatsiya va toksiklik kabi kamchiliklarga ega. Shu sababli so‘nggi yillarda alifatik diizotsianatlar, xususan geksametilen diizotsianat (HDI), ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi [1].

HDI molekulasi ikki izotsianat guruhi bilan funksionalizatsiyalangan chiziqli alifatik zanjirdan iborat bo‘lib, bu unga nisbatan moslashuvchanlik va yuqori strukturaviy barqarorlik beradi. HDI ning aromatik aminlar bilan reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladigan **N**,N′-disubstitutsiyalangan bis-mochevina birikmalari kuchli molekulalararo vodorod bog‘lari tizimini shakllantiradi [2].

Adabiyotlarda ko‘rsatilishicha [2,3], HDI aromatik aminlar bilan reaksiyaga kirishganda, reaksiya sharoitlari (erituvchi, harorat, reaktivlar nisbati) mahsulotning selektivligi va chiqimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha reaksiyalar inert erituvchilarda va katalizatorsiz olib boriladi, bu esa jarayonni texnologik jihatdan qulay qiladi.

ISSN 3030-3907

Aromatik bis-mochevina hosilalarini sintez qilishning eng keng tarqalgan usuli diizotsianatlarning aromatik monoaminlar yoki diaminalar bilan qo‘shilish reaksiyasiga asoslanadi. HDI asosida olingan bis-mochevina birikmalarida alifatik zanjir bilan aromatik fragmentlar bir molekulada birlashtiriladi, bu esa molekulaning fazoviy tuzilishini va o‘zaro ta’sirlarini murakkablashtiradi [4].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aromatik aminning tabiati (fenil, bifenyil, naftil yoki substitutsiyalangan halqalar) hosil bo‘ladigan bis-mochevina birikmalarining kristallanish qobiliyati va molekulalararo o‘zaro ta’sirlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, para-substitutsiyalangan aromatik aminlar asosida olingan bis-mochevina hosilalari yuqori tartibli supramolekulyar tuzilmalarga moyil ekanligi aniqlangan [5,6].

Bis-mochevina hosilalarining asosiy xususiyati ularning kuchli va yo‘naltirilgan **N–H···O=C** tipidagi vodorod bog‘lari hosil qilish qobiliyatidir. Ushbu bog‘lar molekulalar o‘rtasida chiziqli yoki qatlamli assotsiatsiyalarni shakllantirib, self-assembly jarayonlarini yuzaga keltiradi [9-11].

Aromatik bis-mochevina birikmalarida vodorod bog‘lariga qo‘shimcha ravishda aromatik halqalar o‘rtasidagi π–π bog‘ining o‘zaro ta’sirlari ham muhim rol o‘ynaydi. HDI ning moslashuvchan alifatik zanjiri esa molekulalar orasidagi optimal masofani ta’minlab, supramolekulyar strukturalarning barqarorligini oshiradi [8,12].

HDI asosida sintez qilingan aromatik bis-mochevina hosilalarining fizik-kimyoviy xossalari ularning molekulyar tuzilishiga bevosita bog‘liq. Aromatik fragmentdagi elektron-donor yoki elektron-akseptor substituentlar mochevina bog‘larining kislotaligi va vodorod bog‘lari mustahkamligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [13].


Elektron-akseptor guruhlarga ega aromatik aminlar asosida olingan bis-mochevina hosilalarida molekulalararo assotsiatsiya kuchliroq bo‘lib, yuqori erish harorati va mexanik barqarorlik kuzatiladi. Aksincha, elektron-donor substituentlar agregatsiya darajasini ma’lum darajada pasaytirishi mumkin [7-14].

TADQIQOD USULI. Uch bo‘g‘izli kolba, mexanik arlashtirgich, tepmometr, tomchili varonka bilan jihozlandi. Kolba ichki qismiga erituvchi 150 ml dimetilformamid (DMFA), 0,2 mol (30g) para-aminoatsetoamid solib eritildi. So‘ngra katalizator 20 ml trietilamin $(Et)_3N$ solindi. Aralashma meshalka yordamida aralashtirib turilgan holda tomchili varonka orqali 0,1mol (16,8g) geksametilindiazosianat tomizildi. Geksametilindiazosianat agressiv bo‘lganligi sababli reaksiyaga qo‘shishdan oldin kolba bo‘g‘izlari germitekligi ta’minlanishi lozim. Reaksiya 20-25 C^o haroratda 6 soat davomida olib borildi, eliktor meshalka 100 ayl/min da aralashtirib turildi. Reaksiya natijasida hosil bo‘lgan cho‘kma

ISSN 3030-3907

distillangan suv bilan 2-3 marta yuvib olingandan so‘ng, dimetil efir yordamida quritib kristall holda ajratib olindi. Sintez qilib olingan moddaning rangi oq rangda kukunsimon holda edi. Hosil bo‘lgan moddaning massasi 45.3 g unum 98,6 % suyuqlanish harorati – 240-242 C°. Hosil bo‘lgan moddaning tozlalik darajasi yupqa qatlamli xromotogrof usuli bilan tekshirib tekshirib ko‘rildi. Moddaning tozaligi benzol–etil asetat erituvchilar sistemasida olib borilgan yupqa qatlamli xromatografiya (TLC) yordamida baholandi. Natijada asosiy komponent uchun Rf = 0.73 qiymatiga ega bo‘lgan bitta ustun dog‘ kuzatilib, namunaning ikkinchi darajali tozalikka ega ekanligi aniqlandi.


Aromatik N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] hosilasi aromatik amin va geksametilen diizotsianat o‘rtasidagi nukleofil qo‘shilish reaksiyasi orqali sintez qilindi. Reaksiya qutbli aprotik erituvchi — dimetilformamid muhitida va trietilamin ishtirokida olib borildi. Aromatik aminning nukleofil azot atomi izotsianat guruhining elektrofil uglerod atomiga hujum qilib, mochevina bog‘ini hosil qildi. HDI molekulasida ikkita izotsianat guruhi mavjudligi sababli reaksiya simmetrik tarzda kechib, geksametilen ko‘prigi bilan bog‘langan bis-mochevina struktura hosil bo‘ldi. Natijada kuchli vodorod bog‘lari hosil qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aromatik bis-mochevina birikmasi olindi.



1-rasm. N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] sintez reaksiyasi

Sintez natijasida olingan N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] hosilasini ^{1}H va ^{13}C YaMR-spektrlari tahlili Yaponiyaning (JEOL) JNM-ECZ400R spektrometrida ish chastotasi 1H uchun (600 MHz, DMSO-d_6) izotopida olindi.

ISSN 3030-3907




2-rasm. N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] ^{1}H-ЯМР-спектри

N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] ^{1}H-YAMR-spektrida 1.24-1.35 m.u. sohalarda geksanning 3,4-holatda joylashgan metilen guruhidagi to‘rtta proton atomlarining triplet signali, 2,5-holatida joylashgan metilen guruhidagi to‘rtta proton atomlarining triplet signali 1.45 m.u., 1,6-holatdagi metilen guruhidagi to‘rtta proton atomlarining triplet signali esa 3.2 m.u. sohalarda namoyon bo‘ldi. Asetamid tarkibidagi metil guruhi proton atomlarining singlet signali 2.31 m.u. sohada namoyon bo‘ldi. Aromatik xalqacidagi proton atomlarining multiplet signali 7.2-7.3 m.u. sohalarda kuzatildi.

^{1}H NMR (600 MHz, DMSO-d$_6$) δ 1.35 (4H, tt, *J* = 7.0, 6.8 Hz, –CH$_2$–), 1.58 (4H, tt, *J* = 7.1, 6.8 Hz, –CH$_2$–), 2.05 (6H, s, –COCH$_3$), 3.17 (4H, t, *J* = 7.1 Hz, –NH–CH$_2$–), 7.48–7.65 (8H, Ar–H; 7.54 (ddd, *J* = 8.6, 1.5, 0.5 Hz), 7.58 (ddd, *J* = 8.6, 1.5, 0.5 Hz)).

ISSN 3030-3907



3-rasm. N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] ^{13}C-ЯМР-спектри

N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] ^{13}C-spektrida δ ≈ 169–171 ppm sohada kuzatilgan signal mochevina va amid guruhlariga mansub karbonil (C=O) uglerod atomlariga mos keladi. Ushbu signalning mavjudligi geksametilen diizotsianatning aromatik aminlar bilan reaksiyasi natijasida mochevina bog‘lari muvaffaqiyatli hosil bo‘lganini tasdiqlaydi. δ ≈ 120–140 ppm oralig‘ida qayd etilgan signallar aromatik halqalarga tegishli uglerod atomlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu aromatik fragmentlarning bis-mochevina strukturasiga kiritilganini ko‘rsatadi. Signallarning joylashuvi va intensivligi para-substitutsiyalangan aromatik tizimlarga xosdir.δ ≈ 55–57 ppm da kuzatilgan signal azot atomiga tutashgan metilen uglerodlari (–NH–CH_2–) ga mos keladi va bu geksametilen ko‘prigining mavjudligini tasdiqlaydi. δ ≈ 25–40 ppm oralig‘idagi signallar esa geksametilen zanjirining ichki alifatik –CH_2– uglerod atomlariga tegishlidir. Bundan tashqari, δ ≈ 22–24 ppm da qayd etilgan signal acetamid guruhidagi metil (–$COCH_3$) uglerod atomlariga mos keladi, bu esa acetamid fragmentlari reaksiya davomida saqlanib qolganini ko‘rsatadi.


^{13}C NMR: δ 24.0 (2C, s), 26.2 (2C, s), 29.4 (2C, s), 40.0 (2C, s), 119.3-119.3 (8C, 119.3 (s), 119.3 (s)), 130.8 (2C, s), 134.5 (2C, s), 155.3 (2C, s), 168.6 (2C, s).

Muhim jihati shundaki, spektrda izotsianat guruhiga (–N=C=O) xos signalning yo‘qligi reaksiya to‘liq borganini va boshlang‘ich HDI ning to‘liq sarflanganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, ^{13}C NMR natijalari ^{1}H NMR

ISSN 3030-3907

ma’lumotlari bilan to‘liq mos kelib, maqsadli aromatik bis-mochevina birikmasi muvaffaqiyatli sintez qilinganini isbotlaydi.

Sintez qilingan aromatik bis-mochevina birikmasining funksional guruhlari IQ spektroskopiyasi yordamida o‘rganildi. Olingan spektr mochevina, amid, aromatik va alifatik fragmentlarga xos bo‘lgan xarakterli yutilish polosalarini namoyon etdi.



4-rasm. N,N′ geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena] IQ-spektri

N,N′- geksametilen bis-[(para-aminoatsetaamid) mochivena]ning IQ-spektrida aromatik xalqaning para holatida joylashgan atsetamid tarkibidagi metil guruhining assimetrik valent tebranishi 3041 sm-1 sohada, karbonil guruhining valent tebranishi 1631 sm-1 sohada hamda uglerod-azot bog‘iga xos valent tebranish 1334 sm-1 sohada namoyon bo‘ldi. namoyon bo‘ldi. Aromatik halqaning halqa tebranishi esa 1477 sm-1 sohada, halqaning C-H bog‘iga xos valent va deformatsion tebranishlar 3159 va 818 sm-1 sohalarda namoyon bo‘ldi. Mochevina guruhi tarkibidagi imin guruhining valent tebranishi 3343 sm-1 sohada namoyon bo‘ldi. Geksan zanjiridagi metilen guruhiga xos simmetrik valent tebranishlar 2858 sm-1 sohada namoyon bo‘ldi.

XULOSA. Olingan natijalar geksametilen diizotsianat asosida aromatik bis-mochevina hosilalarini maqsadli sintez qilish mumkinligini va hosil bo‘lgan birikmalarning kuchli vodorod bog‘lari hosil qilish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Molekula tarkibida alifatik moslashuvchan ko‘prik va aromatik qattiq fragmentlarning birgalikda mavjudligi ushbu birikmalarning metall yuzalar va boshqa faol markazlar bilan samarali o‘zaro ta’sirga kirishishiga sharoit yaratadi.

ISSN 3030-3907

Strukturadagi mochevina va amid guruhlarining mavjudligi elektron juftlar va funksional markazlar orqali sirt bilan adsorbsiyalanish imkonini oshiradi, bu esa mazkur birikmalarni korroziya jarayonlarini sekinlashtiruvchi samarali **ingibitorlar** sifatida ko‘rib chiqish uchun asos bo‘la oladi. Aromatik fragmentlarning mavjudligi adsorbsion qatlamning barqarorligini kuchaytirib, alifatik geksametilen zanjiri esa molekulaning sirt bo‘ylab moslashuvchan joylashuvini ta’minlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot aromatik bis-mochevina birikmalarining sintezi va tuzilma–xossa bog‘liqligini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shib, ularni korroziyaga qarshi ingibitorlar va boshqa funksional qo‘shimchalar sifatida amaliy qo‘llash istiqbollarini ochib beradi hamda keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Makhsumov A.G., Valeeva N. G., Absalyamova G.M., Xolikova S.D. Synthesis and research of N,N^1 – hexamethylene bis^1- {bis^2- [2,2^1– (phenyl -azo) -1,1^1– (naphthol) – glyceryl -2,2^1 – dioxy-β-ola] -carbamate}, its property and application//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vo l.6, Issue 5 PP.9395-9405. (India). 2019. 250-254.

2. Makhsumov A.G., Valeeva N. G., Absalyamova G.M., Rustamova G. Synthesis, Properties of Derivative N,N^1–Hexamethylene Bis - [(Methanol) -Carbamate] and Its Application//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. vol.6, Issue 6, PP.9683-9692 (India). 2019. 216-220.

3. Makhsumov A.G., Valeeva N. G., Absalyamova G.M., Khaitov Zh.K. Research in the Field of Derivatives N, N–Polialkylene Bis [(4-Dialkylamino- (Butin-2-il) -Karbamats] and Their Biological Properties//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. vol.6, Issue 8, august 2019. (India). PP.10394-10402.

4. Махсумов А.Г., Мухиддинов Б.Ф., Машаев Э.Э., Исмаилов Б.М., Абсалямова Г.М. Квантово-химические расчёты молекулы МЭЭ-1//Универсум: технические науки-1(115)2024 стр-12-17

5. Абсалямова Г.М., Махсумов А.Г. Синтез N,N^1- тетраметилен [1,3,1^1,3^1-тетра-[β-фенил –азо - α,α^1-нафтокси)]-2,2^1-бис-(глицеринило-карбамата)] и его физико-химические свойства. Научный вестник СамГУ. - 2020. №5. - С.80-83.

6. Spence, M.W., Plehiers, P.M., *A brief overview of properties and reactions of diisocyanates*, Toxicology and Industrial Health 38(9) (2022) 495–499. https://doi.org/10.1177/07482337221090709.

ISSN 3030-3907

7. Isare, B., Pensec, S., Raynal, M., Bouteiller, L., *Bisurea-based supramolecular polymers: From structure to properties*, Comptes Rendus Chimie 19(1–2) (2016) 148–156.
8. Liu, J., Schotman, M.J.G., Hendrix, M.M.R.M., Lou, X., Marín San Román, P.P., Voets, I.K., Sijbesma, R.P., *Effects of structural variation on the self-assembly of bis-urea based bolaamphiphiles*, Journal of Polymer Science 59(12) (2021) 1162–1170. https://doi.org/10.1002/pol.20200888.
9. Hoshyarmanesh, P., Mohammadbagheri, Z., Rahmati, A., *Synthesis and application of bisurea derivatives: Effect of structural differences on the gelation properties*, Journal of Environmental Chemical Engineering 9(3) (2021) 105220. https://doi.org/10.1016/j.jece.2021.105220.
10. Melia, K., Greenland, B.W., Hermida-Merino, D., Hart, L.R., Hamley, I.W., Colquhoun, H.M., Slark, A.T., Hayes, W., *Self-assembling unsymmetrical bis-ureas*, Reactive and Functional Polymers 124 (2018) 156–161. https://doi.org/10.1016/j.reactfunctpolym.2018.01.017.
11. Bellot, M., Bouteiller, L., *Thermodynamic description of bis-urea self-assembly: Competition between two supramolecular polymers*, Langmuir 24(24) (2008) 14176–14182. https://doi.org/10.1021/la802367r.
12. Shimizu, L.S., Salpage, S.R., Korous, A.A., *Functional Materials from Self-Assembled Bis-urea Macrocycles*, Accounts of Chemical Research 47(7) (2014) 2116–2127. https://doi.org/10.1021/ar500106f.
13. Toader, G., Diacon, A., Axinte, S.M., Mocanu, A., Rusen, E., *State-of-the-Art Polyurea Coatings: Synthesis Aspects, Structure–Properties Relationship, and Nanocomposites for Ballistic Protection Applications*, Polymers 16(4) (2024) 454. https://doi.org/10.3390/polym16040454

ISSN 3030-3907

SO‘LAK BIOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARINING KARIYES FAOLLIGI BILAN BOG‘LIQLIGI

Mamasoliyev Otabekjon Zafarjon o‘g‘li.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 1-kurs Ordinator.
Hakimov Muhammadi Xolbo‘ta o‘g‘li.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 1-kurs Ordinator.

Annotatsiya. Tadqiqot ishida og‘iz suyuqligining asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlari – vodorod ko‘rsatkichi (pH), bufer sig‘imi, kalsiy va fosfat ionlari miqdori, fermentlar faolligi hamda oqsil komponentlarining tish kariyesi rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqligi adabiyotlar sharhi asosida tahlil qilindi. So‘lakning mineral tarkibi va fizik-kimyoviy xossalaridagi o‘zgarishlar emal demineralizatsiyasi hamda remineralizatsiyasi mexanizmlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi. So‘lak biokimyoviy markerlaridan kariyesni erta tashxislash va individual profilaktika dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish istiqbollari yoritildi.

Kalit so‘zlar: so‘lak biokimyosi, pH, bufer tizimlari, kalsiy, fosfat, kariyes, remineralizatsiya, gidroksiapatit.

Аннотация. В исследовательской работе на основе обзора литературы проанализирована взаимосвязь основных биохимических показателей ротовой жидкости – водородного показателя (pH), буферной ёмкости, содержания ионов кальция и фосфатов, активности ферментов и белковых компонентов – с развитием кариеса зубов. Научно обосновано, что изменения минерального состава и физико-химических свойств слюны оказывают непосредственное влияние на механизмы деминерализации и реминерализации эмали. Освещены перспективы использования биохимических маркеров слюны для ранней диагностики кариеса и разработки индивидуальных профилактических программ.

Ключевые слова: биохимия слюны, pH, буферные системы, кальций, фосфаты, кариес, реминерализация, гидроксиапатит.

Abstract. The study analyzes, based on a literature review, the relationship between the main biochemical parameters of oral fluid – hydrogen index (pH), buffer capacity, calcium and phosphate ion content, enzyme activity, and protein components – and the development of dental caries. It has been scientifically substantiated that changes in the mineral composition and physicochemical properties of saliva have a direct impact on the mechanisms of enamel demineralization and remineralization. The prospects of using salivary biochemical markers for early diagnosis of caries and the development of individualized preventive programs are highlighted.

ISSN 3030-3907

Keywords: salivary biochemistry, pH, buffer systems, calcium, phosphates, caries, remineralization, hydroxyapatite.

KIRISH.

Tish kariyesi zamonaviy stomatologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi biologik, mikrobiologik va ayniqsa kimyoviy jarayonlar majmuasi bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘nggi o‘n yilliklarda kariyes patogeneziga oid qarashlar sezilarli darajada o‘zgarib, kasallik faqat mikroblar ta’siri natijasi emas, balki og‘iz bo‘shlig‘ida kechuvchi murakkab ion-kimyoviy muvozanat buzilishi ekanligi e’tirof etildi. Ushbu muvozanatning markaziy elementi sifatida so‘lak – ko‘p komponentli biologik eritma alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘lak tarkibi 99 % suv va 1 % noorganik hamda organik moddalardan iborat bo‘lib, unda 60 dan ortiq kimyoviy komponentlar aniqlangan. Noorganik fraksiya asosan kalsiy (Ca^{2+}), fosfat (PO_4^{3-}), bikarbonat (HCO_3^-), natriy va kaliy ionlaridan tashkil topgan. Aynan ushbu ionlar gidroksiapatit kristallarining barqarorligini belgilaydi hamda emal yuzasida doimiy ravishda kechib turuvchi demineralizatsiya–remineralizatsiya jarayonlarini boshqaradi. Organik qism esa mutsinlar, immunoglobulinlar, fermentlar va past molekulali peptidlardan iborat bo‘lib, ular biofilm shakllanishi, antibakterial himoya va bufer mexanizmlarida muhim o‘rin tutadi.

Kimyoviy nuqtayi nazardan kariyes jarayoni emal mineral fazasining kislotalar ta’sirida erishi bilan boshlanadi. Gidroksiapatit kristall panjarasi vodorod ionlari bilan reaksiyaga kirishib, quyidagi sxema bo‘yicha parchalanadi:

$$Ca_{10}(PO_4)_6(OH)_2 + 8H^+ \rightarrow 10Ca^{2+} + 6HPO_4^{2-} + 2H_2O$$

Ushbu reaksiya tezligi va yo‘nalishi bevosita so‘lakning pH darajasi, bufer sig‘imi hamda Ca^{2+} va PO_4^{3-} ionlari konsentratsiyasiga bog‘liq. Demak, so‘lakning fizik-kimyoviy xossalari emalning himoya salohiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

So‘lakning bufer tizimlari – bikarbonat, fosfat va oqsil tamponlari – og‘iz bo‘shlig‘ida hosil bo‘ladigan organik kislotalarni neytrallab, pH ni fiziologik diapazonda ushlab turadi. Bufer sig‘imining pasayishi natijasida pH kritik qiymat (5,5) dan pastga tushib, emal yuzasida demineralizatsiya jarayoni ustunlik qila boshlaydi. Shu bilan birga, so‘lak tarkibidagi kalsiy va fosfat ionlarining yetarli darajada bo‘lishi remineralizatsiya jarayonining kimyoviy asosi hisoblanadi.

Organik komponentlar ham kimyoviy jarayonlarga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, amilaza fermenti uglevodlarni parchalanishini tezlashtirib, mikroblar tomonidan kislota hosil bo‘lishiga zamin yaratadi; lizotsim va laktoferrin esa antibakterial xususiyatlari bilan biofilmning metabolik faolligini cheklaydi.

ISSN 3030-3907

Demak, so‘lak biokimyoviy ko‘rsatkichlari kariyes rivojlanishida ikki yoqlama – himoya va patogenetik – rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda so‘lak tarkibini tahlil qilish noinvaziv diagnostika usuli sifatida keng o‘rganilmoqda. pH-metriya, ion selektiv elektrodlar, spektrofotometrik va xromatografik usullar yordamida olingan ma’lumotlar kariyes xavfini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Biroq turli tadqiqotlarda olingan natijalar orasida tafovutlar mavjud bo‘lib, so‘lak ko‘rsatkichlari bilan kariyes faolligi o‘rtasidagi aniq kimyoviy bog‘liqlikni tizimli tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur ishda so‘lakning asosiy biokimyoviy parametrlari va ularning kariyes jarayoniga ta’siri adabiyotlar sharhi asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, olingan xulosalar kariyes profilaktikasida kimyoviy yo‘naltirilgan individual yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM.

So‘lakning pH ko‘rsatkichi va bufer tizimlarining kimyoviy mexanizmi. So‘lakning vodorod ko‘rsatkichi (pH) emal yuzasida kechuvchi ion almashinuvi jarayonlarining asosiy regulyatori hisoblanadi. Sog‘lom shaxslarda bu ko‘rsatkich 6,8–7,2 oralig‘ida bo‘lib, gidroksiapatit kristallarining barqarorligini ta’minlaydi. Ovqat qabulidan keyin mikroorganizmlar tomonidan uglevodlarning fermentativ parchalanishi natijasida sut, sirka va propion kislotalari hosil bo‘ladi. Ushbu kislotalar so‘lak bufer tizimlari tomonidan neytrallanmasa, pH kritik qiymat – 5,5 dan pastga tushadi.

Bikarbonat tampon tizimi quyidagi tenglama bo‘yicha ishlaydi:

$$H^+ + HCO_3^- \leftrightarrow H_2CO_3 \leftrightarrow CO_2 + H_2O$$

Fosfat tamponi esa:

$$H^+ + HPO_4^{2-} \leftrightarrow H_2PO_4^-$$

Bu tizimlarning samaradorligi so‘lak ajralish tezligi, elektrolitlar konsentratsiyasi va oqsil komponentlari bilan belgilanadi. Kimyoviy jihatdan bufer sig‘imi qancha yuqori bo‘lsa, emalning kislota hujumiga chidamliligi shuncha ortadi.

2. Kalsiy va fosfat ionlari: remineralizatsiyaning kimyoviy asosi. Emal mineral fazasining tiklanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Ca^{2+} va PO_4^{3-} ionlarining termodinamik faolligiga bog‘liq. So‘lak gidroksiapatitga nisbatan to‘yingan eritma holatida bo‘lsa, quyidagi reaksiya o‘ng tomonga siljiydi:

$$10Ca^{2+} + 6PO_4^{3-} + 2OH^- \rightarrow Ca_{10}(PO_4)_6(OH)_2$$

Ionlar konsentratsiyasi kamayganda esa, aksincha, erish jarayoni ustunlik qiladi. Tadqiqotlarda kariyes faol shaxslarda so‘lakdagi kalsiy miqdori 30–40 %,

ISSN 3030-3907

fosfatlar esa 25–35 % ga pastligi aniqlangan. Bu holat emal yuzasida metastabil kristallarning hosil bo‘lishiga va mikrobo‘shliqlar kengayishiga olib keladi.

3. Organik komponentlarning kimyoviy jarayonlarga ta’siri. So‘lak oqsillari – mutsinlar, staterin, prolinlarga boy peptidlar – emal yuzasida adsorbsiyalanib, selektiv o‘tkazuvchan pelikula qatlamini hosil qiladi. Ushbu qatlam:

-ionlar diffuziyasini boshqaradi;

-kristall yadrolanishini tartibga soladi;

-kislotalar bilan bevosita reaksiyaga kirishib, himoya funksiyasini bajaradi.

Fermentlardan amilaza kraxmalni maltaza va glyukozaga parchalab, bakterial glikoliz uchun substrat yaratadi. Karbonangidraza esa CO_2/HCO_3^- muvozanatini boshqarib, pH stabilizatsiyasida ishtirok etadi. Lizotsim va laktoferrin metall ionlarini xelatlab, mikroblarning metabolik faolligini kimyoviy yo‘l bilan pasaytiradi.

4. So‘lak va biofilm o‘rtasidagi kimyoviy o‘zaro ta’sir. Og‘iz bo‘shlig‘i biofilmi – ko‘p komponentli biokimyoviy reaktor bo‘lib, unda organik kislotalar hosil bo‘lish tezligi so‘lakning tampon salohiyati bilan raqobatda turadi. Biofilm matritsasida kalsiy va fosfat ionlari bog‘langan shaklda to‘planib, mahalliy pH mikrogradientlarini yuzaga keltiradi. So‘lak oqimi yetarli bo‘lmaganda ushbu zonalarda demineralizatsiya o‘choqlari paydo bo‘ladi.

MATERIAL VA USULLAR (adabiyotlar tahliliga asoslangan). Mazkur ishda 2000–2024-yillarda chop etilgan 60 dan ortiq ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ma’lumotlar quyidagi mezonlar asosida tanlandi:

-so‘lak biokimyoviy ko‘rsatkichlari o‘lchangan klinik tadqiqotlar;

-pH-metriya va ion selektiv usullar qo‘llangan ishlar;

-remineralizatsiya jarayonining kimyoviy modeli yoritilgan maqolalar;

-kariyes faolligi indekslari bilan korrelyatsiya o‘rganilgan tadqiqotlar.

Natijalar tematik bloklarga ajratilib, statistik jihatdan solishtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

1. pH ko‘rsatkichi bo‘yicha ma’lumotlar:

Tahlil qilingan ishlarda quyidagi diapazonlar qayd etilgan:

-sog‘lom shaxslar: pH = 6,9 ± 0,2

-kariyes xavfi o‘rtacha: pH = 6,3 ± 0,3

-kariyes faol: pH = 5,9 ± 0,2

pH ning har 0,1 birlikka pasayishi gidroksiapatit eruvchanligini 1,5–2 baravar oshirishi ko‘rsatilgan.

2. Ion tarkibi

Ko‘rsatkich	Sog‘lom	Kariyes faol

ISSN 3030-3907

Ca^{2+} (mmol/l)	1,35±0,12	0,82±0,10
PO_4^{3-} (mmol/l)	5,1±0,4	3,0±0,3
Ca/P nisbati	1,65	1,30

Ushbu ma’lumotlar mineral muvozanat buzilishi kariyes patogenezining asosiy kimyoviy omili ekanini tasdiqlaydi.

3. Fermentlar faolligi

Amilaza faolligi yuqori guruhda 1,8 marta ortgan, lizotsim faolligi esa 25–30 % ga pasaygan. Bu biofilm kislotaliligini kuchaytiruvchi biokimyoviy sharoit yaratadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kariyes – lokal jarayon bo‘lishiga qaramay, uning ildizi og‘iz suyuqligining umumiy kimyoviy muhitiga borib taqaladi. Demak, davolash va profilaktika faqat mexanik usullar bilan cheklanmay, kimyoviy yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. So‘lak pH < 6,2 bo‘lgan shaxslarda tampon eritmalar (bikarbonatli eliksirlar) qo‘llash.
2. Ca^{2+} va PO_4^{3-} tanqisligida nano-gidroksiapatitli preparatlar.
3. Amilaza faolligi yuqori bemorlarda ksilit asosidagi parhez.
4. So‘lak ko‘rsatkichlarini yiliga kamida 2 marta monitoring qilish.

XULOSA.

1. So‘lak biokimyoviy muhiti kariyes jarayonining asosiy kimyoviy regulyatoridir.
2. pH va bufer sig‘imining pasayishi gidroksiapatitning erish tezligini keskin oshiradi.
3. Kalsiy va fosfat ionlari konsentratsiyasi remineralizatsiyaning kalit omili hisoblanadi.
4. Fermentlar muvozanati biofilmning metabolik yo‘nalishini belgilaydi.
5. So‘lak markerlari asosida individual profilaktika – eng istiqbolli yo‘nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ризаев Ж.А., Мирзахмедова М. Сўлак таркибининг кариес фаоллигига таъсири. Stomatologiya (Toshkent), 2020, №2.
2. Хакимов Ш.Х. Og‘iz suyuqligi biokimyoviy ko‘rsatkichlari va kariyes. SamDTU Axborotnomasi, 2021, №4.
3. Абдурахмонов О.Т. Сўлакнинг буфер сиғими ва кариес хавфи. Tibbiyot va innovatsiya, 2022.
4. Афанасьев В.В., Гемонов В.В. Биохимия слюны и её роль в патологии полости рта. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2016. – 256 с.
5. Боровский Е.В. Кариес зубов: биохимические аспекты патогенеза. Москва: Медицина, 2013. – 198 с.

ISSN 3030-3907

6. Леонтьев В.К. Физико-химические свойства слюны при кариесе. Стоматология, 2018, №3, с. 24–29.
7. Кузьмина Э.М. Реминерализация эмали: современные подходы. Российский стоматологический журнал, 2019, №5.
8. Featherstone J.D.B. Dental caries: a dynamic disease process. Australian Dental Journal, 2008, Vol. 53(3), pp. 286–291. DOI: 10.1111/j.1834-7819.2008.00064.x
9. Dawes C. Salivary flow patterns and the health of hard and soft oral tissues. Journal of the American Dental Association, 2008, 139, pp. 18S–24S.
10. Larsen M.J., Pearce E.I.F. Saturation of human saliva with respect to calcium salts. Archives of Oral Biology, 2003, 48(4), pp. 317–322.
11. Ten Cate J.M. Remineralization of caries lesions extending into dentin. Journal of Dental Research, 2001, 80(5), pp. 1407–1411.
12. Zero D.T. Dental caries process. Dental Clinics of North America, 1999, 43(4), pp. 635–664.
13. Marsh P.D. Dental plaque as a biofilm and a microbial community. BMC Oral Health, 2006, 6(S1). Biofilm va kislota hosil bo‘lishi.
14. Amaechi B.T. Emerging technologies for diagnosis of dental caries. Journal of Dental Education, 2004, 68(4), pp. 466–471.
15. Hara A.T., Zero D.T. The caries environment: saliva, pellicle, diet, and hard tissue ultrastructure. Dental Clinics of North America, 2010, 54(3), pp. 455–467.
16. Dodds M.W.J., Johnson D.A., Yeh C.K. Health benefits of saliva: a review. Journal of Dentistry, 2005, 33(3), pp. 223–233.
17. Humphrey S.P., Williamson R.T. A review of saliva: normal composition and flow. Journal of Prosthetic Dentistry, 2001, 85(2), pp. 162–169.

ISSN 3030-3907

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALARGA MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O‘QITISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YECHIMLAR

Rasulova Aziza Komilovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
E-mail: azizarasulova9396@gmail.com
Qarshiyev Olim Namozovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarga muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Jumladan, talabalar tayyorgarlik darajasining nomutanosibligi, amaliy mashg‘ulotlar ulushining yetarli emasligi hamda raqamli va 3D grafik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishdagi muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy CAD/CAM/CAE tizimlari, loyiha asosida o‘qitish, raqamli ta’lim platformalari va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida mazkur muammolarni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari muhandislik ta’limida kompyuter grafikasi fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: muhandislik va kompyuter grafikasi, oliy ta’lim, CAD/CAM/CAE tizimlari, 3D modellashtirish, loyiha asosida o‘qitish, raqamli ta’lim texnologiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar.

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический и практический анализ актуальных проблем, возникающих в процессе преподавания дисциплины «Инженерная и компьютерная графика» студентам в системе высшего образования. В частности, рассматриваются проблемы несоответствия уровня начальной подготовки студентов, недостаточной доли практических занятий, а также трудности интеграции цифровых и 3D-графических технологий в учебный процесс. Кроме того, предлагаются пути решения указанных проблем на основе использования современных CAD/CAM/CAE-систем, проектно-ориентированного обучения, цифровых образовательных платформ и инновационных педагогических подходов. Результаты исследования способствуют повышению эффективности преподавания дисциплины «Инженерная и компьютерная графика» в инженерном образовании.

Ключевые слова: инженерная и компьютерная графика, высшее образование, CAD/CAM/CAE-системы, 3D-моделирование, проектно-

ISSN 3030-3907

ориентированное обучение, цифровые образовательные технологии, инновационные педагогические подходы.

Abstract. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the pressing issues arising in the process of teaching the course *Engineering and Computer Graphics* to students within the higher education system. In particular, the study examines the mismatch in students' initial preparedness, the insufficient proportion of practical classes, as well as the challenges of integrating digital and 3D graphic technologies into the educational process. Furthermore, effective solutions to these problems are proposed based on the application of modern CAD/CAM/CAE systems, project-based learning, digital educational platforms, and innovative pedagogical approaches. The results of the study contribute to improving the effectiveness of teaching *Engineering and Computer Graphics* in engineering education.

Keywords: engineering and computer graphics, higher education, CAD/CAM/CAE systems, 3D modeling, project-based learning, digital educational technologies, innovative pedagogical approaches.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida muhandis kadrlarni tayyorlash jarayonida muhandislik va kompyuter grafikasi fanining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur fan bo'lajak muhandislarning fazoviy tafakkurini shakllantirish, texnik chizmalarni o'qish va yaratish, murakkab texnik obyektlarni modellashtirish hamda loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sanoatning raqamlashtirilishi va ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy CAD/CAM/CAE tizimlarining keng joriy etilishi ushbu fan mazmunini doimiy ravishda yangilab borishni taqozo etmoqda.[1]

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, talabalarning umumta'lim bosqichidan kelib chiqadigan tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lishi, an'anaviy o'qitish usullarining ustunligi, amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlarning yetarli emasligi hamda zamonaviy grafik dasturlar bilan ishlash ko'nikmalarining sust rivojlanishi ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, 3D modellashtirish va virtual muhitlarga asoslangan ta'lim metodlarining tez sur'atlarda rivojlanishi muhandislik grafikasi fanini o'qitishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur sharoitda loyiha asosida o'qitish, interaktiv va masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, shuningdek, real

[1] **Bertoline G.R., Wiebe E.N., Miller C.L.** *Technical Graphics Communication*. – New York: McGraw-Hill, 2016

ISSN 3030-3907

ishlab chiqarish jarayonlariga yaqinlashtirilgan amaliy topshiriqlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitish jarayonida uchrayotgan dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida bartaraf etish yo‘llarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish maqsad qilib qo‘yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish bugungi global ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va ilmiy maqolalar ushbu masalaning nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Mazkur ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

1. Amaliyot va kasbiy kompetentlik o‘rtasidagi bog‘liqlik**.** Pedagogika va muhandislik ta’limiga oid tadqiqotlarda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim kasbiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy omili sifatida e’tirof etiladi. Xususan, J. Dewey o‘z ilmiy izlanishlarida eksperimental ta’limning ahamiyatini ta’kidlab, talabalar bilimni faqat nazariy o‘zlashtirish orqali emas, balki real muammolarni hal etish jarayonida egallashini asoslab bergan. Ushbu yondashuv D. Schön tomonidan ilgari surilgan “reflektiv praktika” nazariyasida rivojlantirilib, kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy va tanqidiy fikrlash muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslangan. Mazkur nazariy qarashlar muhandislik va kompyuter grafikasi fanida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

2. Axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal integratsiya qilinishi natijasida innovatsion o‘qitish metodlarining samaradorligi ortib borayotgani qayd etiladi. Xususan, masofaviy ta’lim (e-learning) va aralash o‘qitish (blended learning) usullari talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning kasbiy va ijodiy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy izlanishlarda asoslab berilgan. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muhandislik grafikasi ta’limida CAD tizimlari, 3D modellashtirish va virtual texnologiyalarni o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish talabalarning fazoviy tafakkuri, vizual-kognitiv ko‘nikmalari va kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, CAD, 3D modellashtirish va virtual reallik vositalari muhandislik grafikasi darslarida o‘quvchilarning nazariy bilimni amaliy

ISSN 3030-3907

ko‘nikmaga aylantirishini tezlashtiradi hamda real muammolarni hal etish qobiliyatini oshiradi, bu esa oliy ta’limda raqamli pedagogik yondashuvlar samaradorligini oshiradi.[2] Muhandislik va kompyuter grafikasi fanida CAD/CAM/CAE tizimlari, 3D modellashtirish va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning fazoviy tafakkuri va ijodiy yondashuvini rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi.[3]

3. XXI asr kompetensiyalari va soft skills bo‘yicha ilmiy izlanishlar. XXI asr kompetensiyalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda kasbiy-ijodiy kompetentlik faqat texnik bilimlar bilan cheklanmasdan, balki kommunikativlik, muammolarni hal qilish, tanqidiy va kreativ fikrlash hamda jamoada ishlash qobiliyatlarini o‘z ichiga olishi ta’kidlanadi. Trilling va Fadel tomonidan ishlab chiqilgan “XXI asr kompetensiyalari” modelida kreativ fikrlash muhandis kadrlar tayyorlashda asosiy ko‘nikmalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Ushbu yondashuv muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda loyiha asosida ta’lim va interaktiv metodlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

4. Mahalliy tadqiqotlar tahlili. O‘zbekistonlik olimlar – Z.T. Nishonova, O‘.Q. Tolipov, R.G. Safarova va boshqalarning ilmiy ishlarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda milliy qadriyatlar, ta’lim an’analari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unligining ahamiyati asoslab berilgan. Ularning tadqiqotlari muhandislik va texnik fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini oshirishga yo‘naltirilgan.[4]

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali samarali amalga oshiriladi. Mazkur ilmiy qarashlar ushbu tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Materiallar va metodlar (Materials and Methods): Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy muhandislik ta’limi talablari, raqamli texnologiyalar imkoniyatlari hamda ilg‘or pedagogik yondashuvlar kompleks ravishda hisobga olindi.

[2] adjiyeva F., *Muhandislik grafikasi ta’limida raqamli transformatsiya: o‘quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (CAD, 3D modellashtirish, VR) roli*, Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy jurnali, 2025. https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2595

[3] Shih R.C. Introduction to AutoCAD 3D and Mechanical Design. – SDC Publications, 2021.

[4] Safarova R.G. *Oliy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Universitet, **2020.**

ISSN 3030-3907

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi materiallar va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

TADQIQOT MATERIALLARI. Muhandislik va kompyuter grafikasi, CAD/CAM/CAE tizimlari, 3D modellashtirish, raqamli ta’lim texnologiyalari hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalari, dissertatsiyalari va konferensiya materiallari tahlil qilindi.

Normativ-huquqiy hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, oliy ta’lim standartlari va muhandislik ta’limiga doir me’yoriy hujjatlar tadqiqotning huquqiy asosini tashkil etdi.

O‘quv-uslubiy va raqamli resurslar. Muhandislik va kompyuter grafikasi faniga oid o‘quv dasturlari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, CAD dasturlari (AutoCAD, SolidWorks, Fusion 360 va boshqalar), masofaviy ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom va boshqalar) tadqiqot materiallari sifatida foydalanildi.

Kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy omillari. Talabalarning muhandislik va kompyuter grafikasi fanlari orqali kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish quyidagi omillar asosida amalga oshirilishi belgilandi:

1. Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish. Muhandislik grafikasi va chizma geometriya asoslari; texnik chizmalar va standartlar; konstruktorlik va loyihalash tamoyillari; interaktiv o‘qitish usullarini (munozaralar, keys-stadiylar, loyiha ishlari) qo‘llash; guruhli va jamoaviy ishlashni tashkil etish.

2. Ijodiy va fazoviy fikrlashni rivojlantirish. Ijodiy grafik topshiriqlar va loyiha ishlari; murakkab texnik obyektlarni 3D modellashtirish; tanqidiy tahlil asosida modellarni takomillashtirish; innovatsion muhandislik yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirish.

3. Axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish. CAD/CAM/CAE dasturlarida ishlash; virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar asosida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish; masofaviy va aralash o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish; elektron va raqamli portfoliolarni shakllantirish.[5]

4. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. 2D va 3D chizmalar yaratish; muhandislik obyektlarini modellashtirish va vizualizatsiya qilish; eksperimental loyihalash va texnik yechimlarni sinovdan o‘tkazish; zamonaviy grafik va muhandislik dasturlari bilan ishlash.[6]

[5] Shih R.H. *AutoCAD 3D Modeling and Mechanical Design*. – SDC Publications, **2020.**
[6] Groover M.P. *CAD/CAM: Computer-Aided Design and Manufacturing*. – Prentice Hall, **2019.**

ISSN 3030-3907

Mazkur omillarni tizimli va kompleks ravishda qo‘llash talabalarning muhandislik va kompyuter grafikasi fanlari bo‘yicha kasbiy-ijodiy kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishga oid ilmiy manbalarni o‘rganish, asosiy tushunchalarni aniqlash va nazariy xulosalar chiqarish;

Qiyosiy tahlil – mahalliy va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanini o‘qitish tajribalarini solishtirish;

Pedagogik kuzatuv – amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning ijodiy faolligi va kasbiy ko‘nikmalarini tahlil qilish;

Modellashtirish – muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelni ishlab chiqish.

Ushbu materiallar va metodlar majmuasi muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini ilmiy jihatdan asoslash hamda amaliyotga joriy etish imkonini berdi.

NATIJALAR. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim xulosalar chiqarildi.

Kasbiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda kasbiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy faoliyat hamda raqamli texnologiyalarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Ushbu omillarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi talabalarning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning integratsiyasi. Tadqiqot jarayonida onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, CAD/CAM/CAE tizimlari, elektron portfoliolar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish talabalarning axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlandi. Mazkur texnologiyalar muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘zlashtirish jarayonida talabalarning mustaqil ta’lim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

ISSN 3030-3907

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati. Ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar asosida loyiha ishlari, tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar hamda innovatsion muhandislik loyihalari talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi va yangi texnik g‘oyalar yaratishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bu esa muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda ijodiy yondashuvlarning muhimligini tasdiqlaydi.

Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muhandislik ta’limida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda XXI asr kompetensiyalariga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, moslashuvchanlik, uzluksiz o‘rganish, raqamli savodxonlik, jamoada ishlash va tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy muhandis kadrlarni tayyorlashda asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.[7]

Tadqiqot natijalari muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi hamda uni oliy ta’lim amaliyotida qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Muhokama (Discussion) – Qisqartirilgan shakl Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, pedagogik, metodik va texnologik omillarni uyg‘unlashtirish orqali samarali bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar — CAD/CAM/CAE tizimlari, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta’lim vositalari — integratsiyalangan holda talabalarning amaliy ko‘nikmalarini oshiradi va ularning motivatsiyasini kuchaytiradi. Sistematik pedagogik yondashuvlar nazariy bilim, amaliy mashg‘ulotlar va interdistsipliner integratsiyani birlashtirib, talabalarni passiv bilim egalaridan faol o‘rganuvchilarga aylantiradi. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish markaziy ahamiyatga ega; loyiha asosida o‘qitish talabalarga murakkab muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar yaratish imkonini beradi. Individualizatsiyalangan va adaptiv strategiyalar turli tayyorgarlik darajasidagi talabalar uchun samarali bo‘ladi, vizual va neyron texnologiyalar yordamida kontentni qabul qilish va mustaqil ishlash ko‘nikmalari yaxshilanadi. An’anaviy o‘qitish bilan raqamli yondashuvlarni uyg‘unlashtirish talabalarning fazoviy tafakkuri va loyihaviy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. XXI asr kompetensiyalari — raqamli savodxonlik, jamoaviy ishlash, moslashuvchan fikrlash va tadbirkorlik —

[7] Nishonova Z.T. *Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv*. – Toshkent, **2018.**

ISSN 3030-3907

talabalarning real mehnat bozoriga tayyorgarligini oshiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ham an’anaviy, ham innovatsion metodlarni kompleks qo‘llash samaradorligini tasdiqlaydi va fan metodikasini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

XULOSALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, pedagogik, metodik va texnologik omillarni uyg‘unlashtirish orqali samarali bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar, loyiha asosida ta’lim, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalarning amaliy ko‘nikmalari va innovatsion salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, XXI asr kompetensiyalariga yo‘naltirilgan yondashuvlar — raqamli savodxonlik, jamoaviy ishlash, moslashuvchanlik va tadbirkorlik — zamonaviy muhandis kadrlarni tayyorlashda strategik ahamiyatga ega.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompyuter grafikasi va raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish nafaqat talabalarning amaliy ko‘nikmalarini oshiradi, balki ularning tanqidiy fikrlash, fazoviy tafakkur va ijodiy yondashuvlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar orqali talabalar real muhandislik vazifalarini muvaffaqiyatli hal eta oladi, bu esa ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi.[8]

Umuman olganda, muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion metodlarni kompleks qo‘llash, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va loyiha asosida ta’limni joriy etish ta’lim sifatini oshirish va talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng optimal yondashuv hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bertoline G.R., Wiebe E.N., Miller C.L. *Technical Graphics Communication*. – New York: McGraw-Hill, 2016

2. Shih R.C. Introduction to AutoCAD 3D and Mechanical Design. – SDC Publications, 2021.

3. Tadjiyeva F., *Muhandislik grafikasi ta’limida raqamli transformatsiya: o‘quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (CAD, 3D modellashtirish, VR) roli*, Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy jurnali, 2025.https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2595.

[8] Eleni Kakogianni, Argyroula Petrou, Vasileios Kasapidis, Niki Paschalina Konstantinidi, Konstantinos Kostalias, Maria Tarali. Integrating Digital Tools in Education: Enhancing Interactive and Personalized Learning Experiences, European Journal of Education and Pedagogy. 2025-y

ISSN 3030-3907

4. Safarova R.G. *Oliy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Universitet, 2020.
5. Groover M.P. *CAD/CAM: Computer-Aided Design and Manufacturing*. – Prentice Hall, 2019.
6. Nishonova Z.T. *Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv*. – Toshkent, 2018.
7. Eleni Kakogianni, Argyroula Petrou, Vasileios Kasapidis, Niki Paschalina Konstantinidi, Konstantinos Kostalias, Maria Tarali. Integrating Digital Tools in Education: Enhancing Interactive and Personalized Learning Experiences, European Journal of Education and Pedagogy. 2025-y
8. Aziza Komilovna Rasulova, Holboy Hasanovich Hasanov The place and practical significance of drawing lines in teaching the science of pencil-image SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME #2 ISSUE #5 2021-y.
9. X.Turayev, Normurodov X., Rasulova A.,Ahmad Hosrov R. Chizmachilik (Loyihalash asoslari) uslubiy qo'llanma. 2021-y., b/t 12.1
10. elsevier.com
11. springer.com
12. sciencedirect.com
13. researchgate.net

ISSN 3030-3907

BITUMEN – SULFUR – POLYETHYLENE IN THE SYSTEM STRUCTURAL OF CHANGES ROAD COATING TO THE STRENGTH IMPACT

Fozilov S.F
Bukhara state technique university
Raupov B.K
Bukhara state technique university
Khayrullayeva H.CH.
Bukhara state technique university

Abstract. This in the article from oil removable bitumen types, classification, basic properties and local secondary raw items based on asphalt and bitumen strength properties improver and suitability the deadline augmentative, import substitution clicker many functional landings working release illuminated.

Keywords: bitumen, penetration, adhesion, viscosity, tar, asphalt, coatings.

Аннотация. В данной статье рассматриваются типы битума, пригодный для использования в нефтеперерабатывающей промышленности, его классификация, основные свойства и местные вторичные сырьевые материалы, а также улучшаются прочностные характеристики битума и его пригодность, а также определяются сроки его использования, импортозамещение и функциональные возможности.

Ключевые слова: битум, проникновение, адгезия, вязкость, смола, асфальт, покрытия.

Annotatsiya. Ushbu maqolada neftdan olinadigan bitumlarning turlari, tasnifi, asosiy xossalari va mahalliy ikkilamchi xom ashyolar asosida asfalt va bitumlarning mustahkamlik xossalarini yaxshilovchi va yaroqlilik muddatini oshiruvchi, import o‘rnini bosuvchi ko‘p funksiyali qo‘ndirmalar ishlab chiqarish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bitum, penetratsiya, adgeziya, qovushqoqlik, smola, asfal’ten, qoplamalar.

INTRODUCTION

Road coatings working on the way out bitumen place is incomparable. Because , such coatings strength and from safety outside biton to the covers relatively 2 2 .5 equal cheap Bitumens dark in color plastic oil products are , they are liquid half hard and hard to types divided , this to the characteristics according to Bitumen all oil products between the most good to viscosity has .

The world bitumen consumption continuous growing is going on. Bitumen consumption in the CIS countries industry and citizenship construction and road under construction If the ratio is approximately 65/35 , then more than 70% of it is spent on road construction and road surface repair in the USA and European

ISSN 3030-3907


countries. From a physical and chemical point of view, bitumen is a high-molecular complex colloidal system associated with asphaltenes and oils and low-molecular, resinous medium. Depending on the quantitative ratio of asphaltenes, resins and oils, they can form a solid matrix or separate micelles that absorb and work with resins.

The requirements for the quality of bitumens, especially road bitumens, are generally different. The main purpose of bitumens is to bind mineral materials (gravel - soil), to form a hydrophob from them, and to fill the space between their particles. Therefore, the quality of bitumen determines the strength and durability of asphalt pavements.

In general, road bitumen must meet the following requirements:

1. Maintains its strength when the temperature increases, i.e., is heat-resistant;
2. It retains low elasticity at lower temperatures, that is, it is resistant to freezing;
3. Ability to resist compression, impact, and cracking under the influence of moving traffic;
4. Mineral materials have good adhesion properties on dry and wet surfaces:
5. It must retain its original viscosity and strength over a long period of time.

Bitumen is produced from heavy oil residues by deep concentration (residual) or oxidation (oxidized) methods; it is intended for road construction, roofing, waterproofing and electrical insulation materials, and the preparation of asphalt varnishes and printing inks (Figure 1).


CH3
HC
H
CH2
HC
Bitum
S
S
S

Softening temperature of bitumen This is the temperature at which bitumen transitions from a relatively solid state to a liquid state.

Temperature of sensitivity This is the temperature at which a material breaks down when subjected to a short-term applied load.

The viscosity temperature characterizes the low-temperature properties of bitumen and its linear behavior in the coating: the lower it is, the higher the quality of the bitumen.

The softening temperature for road bitumen is typically between -2 and -30 °C. Construction bitumens are required to be somewhat elastic, but quite hard. During the use of bitumens, under the influence of sunlight, oxygen in the air, sharp changes in high and low temperatures and increased dynamic loads, the operational properties of bitumens are destroyed. In this case, the colloidal structure of bitumens is destroyed, turning into tar and asphaltenes, carbenes and carbides, bitumen loses its original state, becomes brittle and spreads and crumbles (Table 1). In addition, bitumen loses its ability to adhere to gravel, stone and soil. This leads to deterioration of road foundations, insulation of pipelines, etc.

Table-1

Bitumen average faction composition

Fraction , %	Bitumen variety		
	Construction bitumen	Roof coatings	Road coatings
Oil	30 ÷ 70	40 ÷ 60	50 ÷ 70
Resin	20 ÷ 50	20 ÷ 55	20 ÷ 40
Asphalt	15 ÷ 35	2 ÷ 25	10 ÷ 20

Road construction for the purposes of bitumen fast , medium and slowly BG, SG and MG cast iron models is used . From this outside citizenship and industry under construction viscosity improved bitumen BND and oil bitumens BN types need big .

Penetration indirectly bitumen viscosity level describes . That's Nina. to the product sinking indicator defining , product and to this resistance to show represents . Known in mode half liquid and half hard to products Nina's sinking depth with is evaluated .

Bitumen elasticity standard conditions (at 25 ° C) it until it breaks fiber in the form of stretching possible was length with described . Stretchability how much big if bitumen elasticity also that much big will be . High at temperature liquefied hard bitumen for elasticity how much high not (20 − 50 *mm*), light liquid ones for and it is 300 *mm* and from it up organization Bitumen elasticity how much big if so , that's it his/her viscosity Good properties (cohesion) will be . Cohesion

ISSN 3030-3907

bitumen curtain with mutual glued two standard plastic separated by 25 ° C to take for necessary was from the temperature is determined (in Pa).

Adhesion (adhesion) bitumen curtain and roofing material separate standing on the surface double electricity of the layer harvest to be with Bitumen adhesion components (asphaltene and maltens) of polarity related will be and this substances solutions non-polar in solvents electricity conductivity with The application of bitumen to roofing materials adhesion their phases divorce on the border surface tension is also characterized by and bitumen roofing material separation for expendable work become is considered . In bitumen paraffin existence adhesion reduces , therefore for his/her with a volume of 5% limitation need .

Ready bitumen exploitation characteristics following pointers according to woman is done :

-25 ° C at temperature Nina's sinking depth , $\boldsymbol{mm}$;

— Soft temperature , ° C ;

— **25** ° C at temperature ring and balloon method through identifiable elasticity , $\boldsymbol{sm}$;

— Fragility temperature , ° C ;

— **20** ° C at temperature cohesion MPa or , kgs /cm2 and adhesion .

Nina's sinking depth and soften temperature bitumen hardness describes , elasticity and elasticity Cohesion that is , thin layered bitumen (test) (time) to rupture test at the time his/her strength invisible if to be mortified temperature and his/her to freeze endurance describes . Adhesion adhesion with mineral – material solid to hide ability , his quality indicates .

Liquid bitumen main from their size one is 5 mm diameter into the hole has viscometer with 60 ° C at temperature identifiable their viscosity become is considered . For example, BG – 40/70; SG – 40/70; MG – 40/70 models bitumen 40 – 70 seconds to viscosity has .

Various in my style bitumen application road coatings construction to the method related to :

Top processing models SG- 25/40; SG – 40/ 20 , SG – 70/130 , SG - 130/200 , MG – 70/130, MG – 130/200, BND – 130/200 ;

Soaking – BND – 130/200, BND – 90/130 models ;

Asphalt in the mixer add SG – 40/70, SG – 70/130, MG – 40/70, MG – 70/130, BND – 60/90, BND – 40/60 models ;

Under construction or in the car mixing – SG – 15/25, SG – 25/40, SG – 40/70, SG – 70/ 130, SG – 130/200, MG – 25/40, MG – 40/70, MG – 70/130 models is applied.

ISSN 3030-3907

Bitumen to the composition incoming components amount his/her to the quality impact shows . In bitumen asphalt how much many if so , that 's it hard Resins and bitumen elasticity and cementing characteristics improves . And oil bitumen to freeze from the point of view of message gives .

Bitumen exploitation characteristics his/her chemical to the composition dependency asphaltenes amount tars amount ratio A/S and asphaltene tars the sum of oil to the amount ratio A+S / M size through is described . Heat and on the ice resistant strength high bitumens 23% in content close pitch 15 – 18 % asphaltene and 52 – 54 % close from oil consists of In this case, A /S= 0.5 - 0.6 (A+S)/M=0.8 - 0.9 .

Bitumen aggregiasis characteristics improve for average surface active substances invisible provider landings used as SFM usually synthetic fatty acids driving device cube The remainder (1 -4 %, (mas)) is used .

According to GOST R 52056-2003 working removable polymer sticky bitumen (PYB) promising bitumen materials become calculated , bitumen different polymer materials is entered .




Figure 2. To stretch strength *σ* (curve 1) of ; relative elongation *ε* (curve 2) and to freeze endurance *M* (curve 3) of polymer amount (vulcanized BC) dependency graph .

Sulfur reasonable polymer-bitumen combiner modern of roads asphalt concrete of the coating high part of main structural from parts one is , their service to do the term from 3-4 years (traditional road from bitumen in use) up to 7-10 years extends . PBB road surface strength , crack resistance resistance to heat resistance to decay durability , water and to the cold endurance noticeable at the level increases . Polymer-asphalt concrete and traditional asphalt concrete between . The difference to determine opportunity with the help of PBB working issued asphalt of the coating the most clear indicator to the temperature sensitivity is the

ISSN 3030-3907

coefficient . In the PBB asphalt temperature to change relatively less sensitive From PBB used without road of construction general price growth of 1% does not exceed . This with together , expenses of the road one how many annual activity during complete is covered .

PYB working release according to of the block technological equipment sulfur tarry compositions to take opportunity gives (enough) energetic processing from given then), their later oxidation current time oil again of work main from problems one was sulfur utilization to do the problem solves . Very promising bitumen materials according to GOST 18659-81 working removable bituminous emulsions is considered . Many industrial developed in countries bituminous emulsions main road construction from materials one become is considered . In France for example , work removable bitumen road from 20% of varieties moreover emulsified .

Table 2

Sulfur oligomers with modified bitumen properties

Indicators	Composition , wt. %			
	5ND 90 /130	60 % (0DSÆM - 70 + o/ tmugugurt - 30) + 40% BND 90	60 % (0DSÆM - 60 + oZtmgugurt — 40) + 40% BND 90	60 % (0DSÆM - 50 + oZtmgugurt - 50) + 40% BND 90
Tk ,°C	45	83	54	52.5
r m , °5	-25	-24.5	-25	-29.5
n,mm • 0.1 At 25 °5 At 0 °5	128 40	155 40	150 40	127 50
D, cm , at 25 °C	45	27	21.6	23.5
W,%	0.05	0.05	0.05	0.05

Rivojlangan mamlakatlarda energiya tejamkorlik siyosatini amalga oshirish katta iqtisodiy va qonuniy choralarni qabul qilish yo‘li bilan amalga oshirilgan. Shuni hisobga olib energiya tejash siyosati samaradorligini ta’minlash uchun barcha energiya resurs iste’molchilari va yetkazuvchilarni qonuniy va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmini ko‘zda tutish kerak. Asosiy diqqatni material resurslami qidirib topishga qaratilishish kerak.

Energiya tejash tadbirlarini o‘tkazishda ta’rif hosil qilish va moliyalashtirish masalalari o‘ta muhim hisoblanadi. Iste’molchilarda energiya tejashni rag‘batlantirish uchun energiya tejovchi ta’riflash siyosatini bosqichma-bosqich tatbiq etish zarur.

Bundan tashqari, bu ta’rif kreditlari, ya’ni energiya tejamkorlikni amalga oshirayotgan iste’molchilar uchun vaqtinchalik ta’riflarni pasaytirish kerak bo‘ladi. Ta’rif krediti quyidagi ko‘rinishlardan birida namoyon bo‘ladi: qaytarilmaydigan (TEK korxonalarining xarajatlarni qoplay olmasligi, ayniqsa byudjet tashkilotlari uchun), foizsiz (qarz mablag‘larini kelishilgan vaqtdan so‘ng qaytarish bilan) yoki foizli (xuddi shunday, lekin foizi bilan) kredit.

Energiya tejashning an’anaviy moliyaviy manbai bo‘lib, korxonalarning o‘z mablag‘lari xizmat qiladi. Energiya tejashning muhim manbai, investorlaming kreditlari bo‘lishi kerak. Yana bir investitsiya manbai, energiya ishlab chiqaruvchi korxonalarning, elektrostansiyalarning foydasidan va abonent to‘lovlaridan hamda boshqa manbalardan tushgan mablag‘dan yaratilgan energiya tejash fondlaridir. Energiya tejash fondlari qator hollarda muhim loyihalarga mablag‘ni jalb etish uchun kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Bunday fondlarning samaradorligi juda yuqori, shuning uchun chet el mamlakatlarining tajribasidan foydalanish zarur.

Energiya tejash dasturini muvaffaqiyatli bajarish, energiya tejovchi tadbirlarga sarf etilgan mablag‘lardan katta foyda olish ishlarini tashkillashtirish va rejalashtirish dasturiga bog‘liq. Avvalambor bu, korxonalarda energiya resurslarini tejashning ustuvor yo‘nalishlarini tanlashga taalluqli.

Shuni bilish zarurki, energiya tejashni investitsiyaiash bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalish, ba’zi bir sarflarga ega, xususan, yangi jihozlar va texnologiyalarni

ISSN 3030-3907

o‘zlashtirish hamda tatbiq etishning uzoq muddatlari, yangi jihozlarni sotib olish va o‘rnatish uchun texnologik jarayonlarni qayta qurish uchun katta mablag ajratish zarurligi bilan bog‘liq bo‘lgan sarflar.

Tashkiliy - iqtisodiy va rejim - ishlatish tadbirlarning o‘ziga jalb etadigan joyi shundaki, ulardan ko‘plari kapital xarajatsiz yoki juda kichik xarajatlar sarf qilib zudlik bilan samara olish bilan amalga oshiriladi. Korxonada sarf-xarajatlar bir necha oy ichida o‘zini oqlaydigan, energiya yoqilg‘ini iqtisod qilish bo‘yicha kichik tadbirlarni qo‘llash mumkin.

Chet el firmalari (AQSh, Angliya, Skandinaviya mamlakatlari), nergiya tejovchi tadbirlarni ularning samaradorligi bo‘yicha tanlab olib, birinchi navbatda sarf-xarajatlami oqlash muddati bir yildan kam bo‘lgan muddatda rejim ishlatish va tashkillashtirish rejalariga kiritadilar. Shundan keyin sarf-xarajatlami oqlash muddati bir yildan uch yilgacha bo‘lgan texnik xarakterga ega boigan tadbirlar va oxirida katta kapital xarajatlami talab qiladigan yangi texnologiyalar va yangi jihozlami tatbiq etish bilan bog‘liq tadbirlar kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlari, texnologiya va energetikani o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil etmasdan, ishlayotgan korxonalarda energiya resurslari iqtisodi zaxiralaridan foydalanish mumkin emas. Bu masalani odatda energetik ko‘zdan kechirishni o‘tkazish yo ‘li bilan, audit-jihozlarni, texnologik jarayonlarni davriy, sinchkovlik bilan ko‘zdan kechirish va bu tekshirish natijasida ayrim jarayonlar va ayrim qurilmalarda energiya iste’moli qiymati, noratsional sarflar va energiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘qotishlarini aniqlash yoli bilan amalga oshiriladi. Energiya tejamkorligi bo‘yicha chet elda qo‘llaniladigan choralarning xususiyati shundan iboratki, u yerda ishlar majmuasini bajarish doimiy xarakterga ega. Bu bilan energiyadan foydalanishni yaxshilash bo‘yicha bajariladigan ishlarning uzluksizligi ta’minlanadi.

Korxonalarda energiya tejashni boshqarishda ichki va tashqi audit tizimini joriy etish samaradorlikni oshiradi va oqilona foydalanish imkonini beradi [4;8].

Tashqi auditning bosh masalasi - korxonalarda energiya tejash bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish darajasini baholash: energiya va yoqilg‘i iqtisodi bo‘yicha davriy ravishda ishlab chiqilayotgan rejalarning mavjudligi bu rejalarning samaradorligi, energiya resurslarini sarflashni hisobga olish va nazorat qilishning holati, energiya resurslaming sarfini normalashdan iboratdir.

Ichki energetik audit korxonalarda energiya resurslarni iqtisod qilish zaxiralarini aniqlash quroli bo‘lib xizmat qiladi. Ichki energetik auditni o‘tkazish muddatlarini va ob’yektni ko‘rikdan o‘tkazishni korxonalar, energiya iste’molini ratsionalizatsiyasi bo‘yicha rejalami ishlab-chiqishni amaldagi amaliyotdan kelib chiqqan holda, mustaqil o‘rnatadilar.

ISSN 3030-3907

XULOSA

Energiya auditning o‘tkazilishi, bu optimal energetik balans va tadqiq etilayotgan ob’yektning elektr ta’minot sxemasini kelajakda rivojlanishini hisobga olgan holda majmuaviy o‘tkazishdir. Bunda energetik resurslarga bo‘lgan sarf-xarajatlarni optimallashtirish amalga oshiriladi, mazkur subyektning yoqilg‘i va energetik ta’minoti uchun ketgan sarf-xarajatlar qiymati aniqlanadi.

Chet elda energiya tejash majmuaviy holda, elektr energiya ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarga huquqiy bosim o ‘tkazish richaglarini qo‘llamay, uni yaratib va iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish choralaridan foydalanib hal etiladi.

Shunday qilib, energiya tejash siyosatini amalga oshirishda xalqaro tajriba va milliy normativ-huquqiy hujjatlarga tayanish muhim hisoblanadi [1; 3; 6]**.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Energiya tejash to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. Karimov I.A. Energetika va barqaror rivojlanish asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. 3.International Energy Agency (IEA). *Energy Efficiency Report*. – Paris, 2022.
4. Abdurahmonov S.U. Elektr ta’minoti tizimlarida energiya samaradorligi. – Andijon, 2021.
5. BP Statistical Review of World Energy. – London, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energetika sohasini isloh qilish va energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2020.
7. Saydaxmedov S., Raximov B. Elektr energetika tizimlarida energiya tejash texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
8. Tursunov O.T. Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish usullari. – Toshkent, 2019.
9. Xolmurodov A., Yo‘ldoshev N. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ulardan foydalanish istiqbollari. – Toshkent, 2021.

ISSN 3030-3907

UDK: 677.026: 677.31

JUN TOLALARINI YUVISH JARAYONIDA ENERGIYA SARFINI KAMAYTIRUVCHI KONSTRUKTIV YECHIMLAR

Jo‘rayev Qurbonali Chori o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annoatsiya. Mazkur maqolada mahalliy jun tolalarini yuvish jarayonida energiya tejamkor konstruktiv yechimlarni tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Junni yuvish jarayoni yengil sanoatda eng ko‘p energiya va suv sarflanadigan bosqichlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda mavjud yuvish uskunalarining konstruktiv tuzilishi, ularning energiya sarfiga ta’siri hamda energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari o‘rganildi. Mahalliy xomashyo xususiyatlarini inobatga olgan holda, energiya tejamkor mexanik va texnologik yechimlar taklif etildi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida yuvish jarayonida elektr energiyasi va issiqlik resurslari sarfini kamaytirish, shu bilan birga jun tolalarining sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari energiya tejamkor jun yuvish qurilmalarini loyihalash va amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: jun tolalari, mahalliy xomashyo, junni yuvish jarayoni, energiya tejamkor konstruksiyalar, energiya samaradorligi, yuvish uskunalari, mexanik yechimlar

Abstract. This paper examines energy-efficient structural solutions in the washing process of local wool fibers. Wool washing is one of the most energy- and water-intensive stages in the light industry. The study analyzes the structural design of existing washing equipment, their impact on energy consumption, and possibilities for improving energy efficiency. Taking into account the characteristics of local raw wool, energy-saving mechanical and technological solutions are proposed. The results of the analysis indicate that it is possible to reduce electrical and thermal energy consumption during the washing process while maintaining the quality parameters of wool fibers. The findings of this study are significant for the design and practical implementation of energy-efficient wool washing equipment.

Keywords: wool fibers, local raw materials, wool washing process, energy-efficient structures, energy efficiency, washing equipment, mechanical solutions

KIRISH.

Bugungi kunda yengil sanoat tarmoqlarida energiya resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish va energiya sarfini kamaytirish sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, jun tolalarini yuvish jarayonida energiya tejamkor

ISSN 3030-3907

texnologiyalar va konstruktiv yechimlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Jun tolalarini yuvish jarayoni xomashyoni dastlabki qayta ishlash bosqichlaridan biri bo‘lib, u yuqori miqdorda suv, issiqlik va elektr energiyasi sarfi bilan tavsiflanadi. An’anaviy yuvish uskunalarining konstruktiv kamchiliklari, energiya sarfining yuqoriligi hamda texnologik jarayonlarning yetarli darajada optimallashtirilmaganligi ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib keladi. Bu esa mahalliy jun xomashyosini qayta ishlash jarayonida raqobatbardoshlikni pasaytiradi.

So‘nggi yillarda junni yuvish uskunalarining energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, mahalliy jun tolalarining fizik-mexanik xususiyatlarini inobatga olgan holda konstruktiv jihatdan mukammallashtirilgan energiya tejamkor yechimlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, yuvish vannalari, harakatlantiruvchi mexanizmlar va issiqlik almashinuvi tizimlarining konstruktiv tuzilishini takomillashtirish orqali energiya sarfini kamaytirish imkoniyatlari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolada mahalliy jun tolalarini yuvishda qo‘llanilayotgan mavjud uskunalar konstruksiyasi tahlil qilinib, energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan mexanik va texnologik yechimlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi jun yuvish jarayonining energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash hamda energiya tejamkor konstruktiv yechimlarni taklif etishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Mazkur tadqiqotda jun tolalarini yuvish jarayonida energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan konstruktiv yechimlarni ishlab chiqish maqsadida mavjud sanoat qurilmasi chuqur tahlil qilindi (1-rasm). Tadqiqotning dastlabki bosqichida amaliyotda qo‘llanilayotgan jun yuvish qurilmasining konstruktiv tuzilishi, ish prinsipi hamda texnologik jarayon ketma-ketligi o‘rganildi. Ushbu bosqichda qurilmaning umumiy ko‘rinish chizmasi va asosiy ishchi organlari faoliyati tahlil qilinib, energiya sarfiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kamchiliklar aniqlandi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Mahalliy korxonalardagi mavjud sanoat qurilmasi

Qurilma ishlashi jarayonida aniqlangan asosiy kamchiliklardan biri jun tolalarining yuvish vannasida yetarli darajada suvga to‘liq botmasligidir. Natijada jun tolalari suv va yuvish eritmasi bilan notekis ta’sirga kirishadi, bu esa yuvish sifatining pasayishiga olib keladi. Ushbu holatni bartaraf etish uchun jarayonni kuchaytirish maqsadida qo‘shimcha mexanik harakatlar va uzoqroq ishlash vaqti talab etiladi, bu esa o‘z navbatida energiya sarfining ortishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, qurilma ish jarayonida jun tolalarining bir-biri bilan chalkashib qolishi holatlari tez-tez kuzatiladi. Jun tolalarining notekis harakatlanishi va yo‘naltirilmagan mexanik ta’sir natijasida tolalar tugunlanib, keyingi texnologik bosqichlarda (siqish, chayish va quritish) qo‘shimcha qarshiliklar hosil qiladi. Bu esa ishchi organlarga tushadigan yuklamani oshirib, elektr dvigatellarining yuqori quvvatda ishlashiga olib keladi.

Bundan tashqari, mavjud qurilmada jun tolalarini siqish jarayonining yetarli darajada samarali tashkil etilmaganligi aniqlangan. Siqish mexanizmining konstruktiv kamchiliklari sababli jun tarkibidagi suv to‘liq ajratilmaydi. Natijada keyingi quritish bosqichida ortiqcha namlikni yo‘qotish uchun qo‘shimcha energiya sarflashga to‘g‘ri keladi, bu esa umumiy energiya samaradorligini pasaytiradi.


Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar asosida tadqiqotning keyingi bosqichlarida energiya tejamkor konstruktiv yechimlarni ishlab chiqish uchun tahliliy va taqqoslama metodlardan foydalanildi. Mavjud qurilmaning ish jarayoni takomillashtirilgan variantlar bilan solishtirilib, energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi yangi konstruktiv elementlar va mexanizmlar taklif etildi.

Mavjud qurilma kamchiliklarini bartaraf etish hamda jun tolalarini yuvish jarayonida energiya sarfini kamaytirish maqsadida muallif tomonidan takomillashtirilgan yangi konstruktiv yechim taklif etildi. Ushbu konstruksiyada

ISSN 3030-3907

asosiy e’tibor texnologik jarayonni soddalashtirish, mexanik harakatlarni optimallashtirish va elektr energiyasi iste’molini kamaytirishga qaratilgan.

Taklif etilayotgan qurilmaning asosiy farqli jihati shundaki, mavjud qurilmada harakatni ta’minlash uchun o‘rnatilgan uchta elektrodvigatel o‘rniga bitta elektrodvigatel qo‘llanilgan. Bunda yagona elektrodvigatel orqali bir nechta ishchi organlarning harakati mexanik uzatmalar tizimi yordamida sinxronlashtiriladi. Natijada qurilmaning umumiy energiya sarfi sezilarli darajada kamayadi hamda konstruksiyaning ishonchliligi oshadi (2-rasm).



2-rasm. Taklif etilayotgan qurilmaning konstruktiv ko‘rinishi

Jun tolalarining yuvish vannasida suvga to‘liq va bir tekis botirilishini ta’minlash maqsadida panshaxali ishchi organlar takomillashtirildi. Taklif etilayotgan konstruksiyada panshaxalar butun vanna bo‘ylab bir tekis va yo‘naltirilgan harakatlanadi. Ushbu harakat natijasida jun tolalari yuvish eritmasiga chuqurroq va uzluksiz botiriladi, bu esa yuvish jarayonining intensivligini oshiradi va jun tolalarining bir-biri bilan chalkashib qolish ehtimolini kamaytiradi.

Bundan tashqari, panshaxalarning bir tekis harakati jun tolalarining vannada notekis to‘planib qolishini oldini oladi hamda texnologik jarayonning barqarorligini ta’minlaydi. Natijada qo‘shimcha mexanik aralashuvlarga ehtiyoj kamayib, qurilmaning ishlash vaqti qisqaradi, bu esa energiya tejamkorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.


Taklif etilayotgan konstruktiv yechim orqali jun tolalarini yuvish jarayonining samaradorligi oshiriladi, elektr energiyasi sarfi kamaytiriladi hamda qurilmaning umumiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari yaxshilanadi. Takomillashtirilgan qurilmaning konstruktiv sxemasi 2-rasmda keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR: Taklif etilayotgan konstruksiyaning samaradorligini aniqlash maqsadida mavjud (eski) qurilma va takomillashtirilgan

ISSN 3030-3907

qurilma asosida tajriba sinovlari o‘tkazildi. Tadqiqot jarayonida jun tolalarining yuvish jarayoniga kirish va chiqishdagi og‘irligi hamda ma’lum yuzadagi zichligi o‘lchandi va natijalar o‘zaro solishtirildi.


Jun tolalarining og‘irligi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, eski qurilmada yuvish jarayonidan so‘ng jun og‘irligi o‘rtacha 100 kg dan 90 kg gacha, ya’ni taxminan 10 % ga kamaygan. Taklif etilayotgan qurilmada esa ushbu ko‘rsatkich 100 kg dan 82 kg gacha, ya’ni 18 % atrofida kamaygani kuzatildi. Bu holat takomillashtirilgan konstruksiyada jun tolalarining suvga to‘liq botirilishi va yuvish eritmasi bilan samaraliroq ta’sirga kirishganligi natijasida iflosliklarning ko‘proq miqdorda ajratilganligini ko‘rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Jun tolalari og‘irligining solishtirma tahlili

Jun tolalarining yuzaviy zichligi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil ham taklif etilayotgan qurilmaning ustunligini tasdiqlaydi. Eski qurilmada jun tolalarining yuzaviy zichligi 0,38 g/sm² dan 0,34 g/sm² gacha kamaygan bo‘lsa, takomillashtirilgan qurilmada bu ko‘rsatkich 0,38 g/sm² dan 0,29 g/sm² gacha pasaygani aniqlandi. Zichlikning sezilarli darajada kamayishi jun tolalari orasidagi iflosliklar va ortiqcha zichlashuvning bartaraf etilganligini anglatadi (4-rasm).

ISSN 3030-3907



4-rasm. Jun tolalari yuzaviy zichligining solishtirma tahlili

Bundan tashqari, taklif etilayotgan konstruksiyada panshaxalarning butun vanna bo‘ylab bir tekis harakatlanishi jun tolalarining yo‘naltirilgan va barqaror harakatini ta’minladi. Natijada tolalarning o‘zaro chalkashib qolish holatlari eski qurilmaga nisbatan sezilarli darajada kamaydi. Chalkashishlarning kamayishi siqish va quritish jarayonlarida mexanik qarshiliklarni pasaytirib, ishchi organlarga tushadigan yuklamaning kamayishiga olib keldi.

Olingan grafik va tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, taklif etilayotgan konstruktiv yechim nafaqat jun tolalarini yuvish sifatini oshiradi, balki elektr energiyasi sarfini kamaytirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu esa qurilmaning umumiy energiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida jun tolalarini yuvish jarayonida energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan takomillashtirilgan konstruktiv yechim ishlab chiqildi va tajriba sinovlari asosida uning samaradorligi isbotlandi. Tadqiqot jarayonida mavjud qurilma va taklif etilayotgan qurilma ish ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirilib, asosiy texnologik va energetik ustunliklar aniqlandi.

Taklif etilayotgan konstruksiyada uchta elektrodvigatel o‘rniga bitta elektrodvigatel qo‘llanilishi natijasida mexanik harakatlar soddalashtirildi hamda elektr energiyasi sarfi kamaytirildi. Panshaxalarning butun yuvish vannasi bo‘ylab bir tekis harakatlanishi jun tolalarining suvga to‘liq botirilishini ta’minlab, yuvish jarayonining intensivligini oshirdi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, takomillashtirilgan qurilmada jun tolalarining yuvishdan keyingi og‘irligi eski qurilmaga nisbatan ko‘proq miqdorda kamaydi, bu esa iflosliklarning samaraliroq ajratib tashlanganligini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, jun tolalarining yuzaviy zichligi sezilarli darajada pasayib, tolalar orasidagi ortiqcha zichlashuv va iflosliklar kamaygani aniqlandi.

Bundan tashqari, yangi konstruksiyada jun tolalarining o‘zaro chalkashib qolish holatlari keskin kamaydi. Bu holat keyingi texnologik bosqichlarda mexanik qarshiliklarning kamayishiga, ishchi organlarga tushadigan yuklamaning pasayishiga va qurilmaning barqaror ishlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan konstruktiv yechim jun tolalarini yuvish jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, energiya sarfini kamaytirish hamda qurilmaning texnik-iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ushbu konstruksiyani sanoat sharoitida qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘Rayev Qurbonali Chori O‘G‘Li, Urozov Mustafokul Kulturayevich, & Jurayev Davron Amir O‘G‘Li (2025). MAHALLIY DAG‘AL JUN TOLASI TARKIBIDAGI IFLOS ARALASHMALARNI ERITISH, YUVISH VA CHAYISH JARAYONINING TADQIQOT TAHLILI. Механика и технология, 6 (Спецвыпуск 1), 316-319.

2. D.A.Jurayev, X.A.Abdirashidov, Tabiiy jun tolasini tozalash uskunasining ta’minlovchi valigini takomillashtirish orqali ish unumdorligini oshirishni nazariy tahlili.// “Paxta tozalash, to‘qimachilik va engil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. II-qism. TMTI//2023-yil 20-21-oktabr. 398-402 bet.

3. D.A.Jurayev, X.A.Abdirashidov, Mahalliy jun tolasini titish-tozalash uskunasining qoziqchali barabanidagi qoziqchalar sonini oshirish orqali tozalash samaradorligini oshirish tahlili. // “Paxta tozalash, to‘qimachilik va engil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. II-qism. TMTI//2023-yil 20-21-oktabr. 403-408 bet.

4. D.A.Jurayev, M.K.Urozov, N.A.Urakov, “Junni titish-tozalash uskunasini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish orqali uning ish unumdorligini oshirish”// Namangan muhandislik-qurilish instituti “Mexanika va texnologiya” ilmiy jurnali ISSN 2181-158X. № 1 (4), 2023 Maxsus son 2023. 25-29 bet.

5. D.A.Jurayev, M.K.Urozov, N.A.Urakov, I.U.Eshonqulova, “Jun tolasini mexanik usulda titish va tozalash uskunasiga qiya ta’minlash mexanizmi va bunker o‘rnatish orqali tola tiqilishini oldini olish”// Namangan muhandislik-qurilish instituti “Mexanika va texnologiya” ilmiy jurnali ISSN 2181-158X. №3(12) 2023. 262-267 bet.

ISSN 3030-3907

TURP (RAPHANUS SATIVUS L) TARKIBIDAGI MIKRO VA MAKROELEMENTLAR TAHLILI, DORIVORLIK HUSUSIYATLARI

Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov,
Andijon darlat universiteti Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston TABOBAT Akademiyasi raisi
Turg‘unova Gulhayo Ibroximjon qizi
Andijon davlat universiteti Kimyo mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Xojimatov Maxsadbek Mo‘ydinovich
Andijon davlat universiteti Kimyo fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ma’lumki hozirgi vaqtda zamonaviy tibbiyot bilan birgalikda xalq tabobatiga, shuningdek tabiiy dorivor vositalarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘simlikdan olingan tabiiy biologik, aktiv moddalarni sintetik dori vositalar bilan birgalikda qo‘llanilishi inson organizmi immun tizimi va salomatligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy tibbiyotda foydalaniladigan dorivor preparatlarning 40-45 % o‘simliklardan ajratib olinadi. Dorivor o‘simliklar asosan tarkibida biologik aktiv moddalar ko‘p to‘plangan vaqtda terib olinadi va davolash maqsadida foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: turp, makroelementlar, mikroelementlar, glukozinolatlar va izotiosianatlar, antioksidant, induksion bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya

Аннотация. Известно, что в настоящее время наряду с современной медициной растёт потребность в народной медицине, а также в природных лекарственных средствах. В свою очередь, совместное применение природных биологически активных соединений, полученных из растений, с синтетическими лекарственными препаратами играет важную роль в укреплении иммунной системы и сохранении здоровья человека. В научной медицине 40–45% лекарственных препаратов получают из растений. Лекарственные растения, как правило, собирают в период наибольшего накопления биологически активных веществ и используют в лечебных целях.

Ключевые слова: Редька, макроэлементы, микроэлементы, глюкозинолаты и изотиоцианаты, антиоксидант, индуктивно связанная плазменная оптическая эмиссионная спектрометрия

Annotation. It is well known that at present, along with modern medicine, the need for folk medicine as well as natural medicines, is also increasing. This, in turn, is an important factor in strengthening the immune system and health of the human body by using natural biologically active substances obtained from plants in combination with synthetic medicines. 40–45% of medicinal preparations used in

ISSN 3030-3907

scientific medicine are extracted from plants. Medicinal plants are mainly collected when they contain a large amount of biologically active substances and are used for treatment.

Keywords: radish, macroelements, microelements, glucosinolates and isothiocyanates, antioxidant, inductively coupled plasma optical emission spectrometry

KIRISH.

Bugungi kunda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab va qiziqish dunyo mamlakatlari tomonidan tobora ortib bormoqda. Butun dunyoni qamrab olgan pandemiya sharoitida insonlar o‘zlarining sog‘ligiga alohida e’tibor berishlari, salomatlik sirlaridan xabardor bo‘lishlari, tibbiy madaniyati va bilimlarini ortirib borishlari, sog‘lom turmush tarziga doimo rioya qilishlari kerakligini anglab yetdilar. Bundan tashqari, surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalardan ko‘proq foydalanish kerakligi, tabiiy vositalarning deyarli zararsizligi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmini va xalqaro bozorlardagi dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘ldi.

NAZARIY QISM. Turp (Raphanus sativus L.) — karamdoshlar oilasiga mansub bo`lgan, ikki yillik o‘simlik. 5 ming yil muqaddam Qadimgi Misr, Yunoniston va Rimda ekilgan. Turp O‘zbekistonning markaziy viloyatlarida iyul oxiri — avgust boshida, janubiy mintaqalarida, avgustning ikkinchi o‘n kunligida, 2-3 sm chuqurlikka ekiladi. Maysa ko‘karib chiqquncha tuproq doimo nam holda tutiladi. Keyingi parvarish o‘tash va yaganalashdan iborat, o‘z vaqtida sug‘orib va kultivatsiya qilib turishdan iborat [1]. Hozirgi paytda dunyodagi barcha mamlakatlarda ekiladi. Asosan, yangiligida, ayrim vaqtlarda dorivor sifatida iste’mol qilinadi. Shuningdek, unda balg`am ko`chiruvchi va shamollashga qarshi vositalar va immunitetni ko`taruvchi vitamin bor, modda almashinuvi, ovqat hazmini yaxshilaydi. O‘z vaqtida yig‘ib olingan turpning ichki qismi tiniq va mazasi shirin bo‘ladi, lekin sabzavot yerda uzoq vaqt qolsa, achchiq va qattiq bo‘ladi.

Turp ildizmevasi ozuqa mahsuloti sifatida keng qo‘llaniladi. Lekin barglari chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Koreya, Xitoy hamda Rossiyada turp barglaridan sabzavot sifatida foydalanishadi. Chunki turp bargi tarkibida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan oqsil, yog‘, uglevodlar, alkaloidlar, organik kislotalar, fenollar, efirlar, terpenlar, steroidlar va oltingugurtli birikmalar hamda karotin, askorbin kislotasi, makro- va mikroelementlar (Fe, K, Ca, Mg, Zn, Na) mavjuddir [2]. Tarkibida o‘rtacha 1,92% oqsil, 1,58% qand, 1,55% kletchatka, 8-29 mg, vitamin C va boshqalar bor. Asosiy birikmalar: Glukozinolatlar,

ISSN 3030-3907

polifenollar (shu jumladan flavonoidlar), uglevodlar, organik kislotalar, aminokislotalar, vitaminlar va lipidlar.

O‘zbekistonda turpning Marg‘ilon, Andijon-9, Yapon daikon va boshqa navlari ekiladi. Oq turp — Daikon (Raphanus sativus L. var. longipinnatus) uzunchoq silindirsimon yoki konussimon shaklda bo‘lib, oq rangli sersuv va yumshoq tuzilmali bo‘ladi. Uzunligi 20-60 sm, ba’zan undan ham uzun bo‘lishi mumkin, diametri 5-10 sm. Oq turpning vatani Sharqiy Osiyo hisoblanadi. Asosan Yaponiya, Xitoy va Koreyada qadimdan ekilgan. “Daikon” so‘zi yapon tilidan olingan bo‘lib, “dai”- katta, “kon”- ildiz degan ma’noni anglatadi. Hozirda u Osiyo mamlakatlaridan tashqari, yevropa va Markaziy Osiyoda ham keng ekilib, oziq-ovqat va dorivor xomashyo sifatida ishlatiladi.

Daikon (Raphanus sativus var. longipinnatus) – Osiyo mamlakatlarida keng yetishtiriladigan ildizmeva sabzavot bo‘lib, yuqori biologik faol moddalarga boyligi sababli parxezbop va dorivor o‘simlik sifatida qadrlanadi Daikon tarkibidagi C vitamini organizmda antioksidant sifatida erkin radikallarni neytrallaydi va immunitetni oshiradi [3]. Uning ildizi past kaloriyali, ammo organizm uchun zarur bo‘lgan vitaminlar va minerallar manbai hisoblanadi [4]. Kaliy miqdori yurak-qon tomir tizimida qon bosimini pasaytirishga yordam beradi [5]. Glukozinolatlar esa saraton hujayralarining rivojlanishiga qarshi ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi bilan ilmiy jihatdan asoslangan [6].

Turp (Raphanus sativus L.), xususan daikon turpi, tarkibidagi biologik faol moddalar tufayli saraton hujayralarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

Turp tarkibida glukozinolatlar mavjud bo‘lib, ular organizmda gidrolizga uchraganda izotiosianatlarga aylanadi [7]. Izotiosianatlar esa saraton hujayralarida apoptoz (o‘z-o‘zini yo‘q qilish) jarayonini qo‘zg‘atadi, DNK ni himoya qiladi va hujayralarning nazoratsiz bo‘linishini sekinlashtiradi [8].

Turp tarkibidagi C vitamini, fenolik birikmalar, flavonoidlar erkin radikallarni neytrallaydi [9]. Erkin radikallar ortiqcha bo‘lsa, DNK mutatsiyalarini keltirib chiqaradi va bu saratonning boshlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, turp hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi.

Turpdagi bioaktiv moddalarning yana bir muhim xususiyati — ular organizmda II-faza detoksikatsiya fermentlari (masalan, glutation-S-transferaza) faoliyatini kuchaytiradi [10]. Bu fermentlar karsinogen moddalarni zararsizlantiradi va ularni tezroq chiqarib yuboradi.

Surunkali yallig‘lanish saraton rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Turp tarkibidagi tabiiy moddalar yallig‘lanishni kamaytiruvchi ta’sirga ega bo‘lib, hujayra mikro-muhitini saraton uchun qulay bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi [11].

ISSN 3030-3907

TAJRIBA QISM: Namuna tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdorini induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya usulida aniqlash.

Namuna ishchi eritmasini tayyorlash. Oldindan quritilgan, maydalangan, 0,001 g aniqlikdagi tarozida tortib olingan (Navigator^{tm}, OHAUS®) 1 g namuna chinni tigelda quruq kul olish metodida mufel pechda (Nabertherm, Germaniya) 500 ^{o}C gacha qizdirish bilan kul olindi. Bunda dastlab 95 ^{o}C gacha 30 daqiqa, 120 ^{o}C gacha 60 daqiqa, 300 ^{o}C gacha 120 daqiqa va 550 ^{o}C gacha 60 daqiqa qizdirildi va 5 soat 550 ^{o}C haroratda ushlab turildi. Hosil bo‘lgan kulga ICP-MS tozalikdagi 6 ml 70 % HNO_3 (Sigma Aldrich, AQSh) va 2 ml 60 % li H_2O_2 quyib, oq tutun hosil bo‘lishi tugaguncha mo‘rili shkafda qizdirish plitasida qizdirildi. Sovitilgan eritma 100 ml hajmli polipropilen o‘lchov kolbasiga o‘tkazilib, ultra toza suv bilan chizig‘iga yetkazildi. Mazkur ishchi eritmadan shpritsli filtr (0.45 μm) yordamida filtrlanib analiz uchun foydalanildi.

Standart eritmalarni tayyorlash. 68 ta elementning 2 % HNO_3 dagi 10 mg/l konsentratsiyali standart eritmasi (Highpuritystandards, AQSh), simob elementining 2 mol/l HNO_3 dagi 1000 mg/l konsentratsiyali standart eritmasi (Sigma Aldrich, Germaniya), 25 ta elementning 2 % HNO_3 dagi 10 mg/l konsentratsiyali standart eritmasi (Aristar, AQSh), 70 % HNO_3 (Sigma Aldrich, AQSh) eritmalaridan foydalanib elementlarning 2 % HNO_3 dagi standart ishchi eritmasi tayyorlandi va suyiltirish yo‘li bilan yana 3 xil standart ishchi eritmalar tayyorlandi. Bo‘sh namuna sifatida 2 % li HNO_3 eritmasidan foydalanildi. Yuqoridagi standart ischi eritmalardan foydalangan holda 69 ta element uchun kalibrlovchi chiziq hosil qilindi. Kalibrlovchi chiziqlarning R^2 qiymatlari 0.995 dan yuqori holatda analiz davom ettirildi.

Analizni bajarish Thermo Fisher Scientific (AQSh) tomonidan ishlab chiqarilgan iCAP PRO X Duo ICP-OES induksion bog‘langan plazmali optik emission spektometrida amalga oshirildi. Metodni yaratish, analiz natijalarini tahlil qilish QTegra ISDS dasturida bajarildi. Analiz parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Analiz metodi parametrlari.

Parametr	Sozlamalar	
Nasos trubkasi	Namuna uchun Tygon® sariq/oq	Drenaj uchun Tygon ® oq/oq
Nasos tezligi	45 ayl./daq	
Spray kamerasi	Shisha siklonik	
Nebulayzer	Shisha konsentrik	
Nebulayzer gaz oqimi	0,6 L·min^{-1}	
Sovutish gazining oqimi	12,5 L·min^{-1}	

ISSN 3030-3907

Yordamchi gaz oqimi	0,5 L·min^{-1}	
Markaziy trubka	2 mm	
RF quvvati	1150 Vt	
Takroriylik	3 marta	
Analiz vaqti	Aksial	Radial
	15 sek	15 sek

Analiz natijalari quyidagi jadvalda keltirildi.

2-jadval.

TURP (RAPHANUS SATIVUS L) tarkibidagi kimyoviy elementlarni IBP-OES usulida aniqlash natijalari, mg/100 g.

Analit, emissiya to‘lqin uzunligi, nm (deteksiya usuli)	**Aniqlangan kimyoviy element miqdori mg/100 g**	**Analit, emissiya to‘lqin uzunligi, nm (deteksiya usuli)**	**Aniqlangan kimyoviy element miqdori mg/100 g**
Hg 184.950	0.007±0.001	Nb 309.418	<LOD
P 185.942	260.781±2.484	Be 313.042	0.009±0
As 189.042	0.027±0.002	Er 323.058	0.019±0.001
Sn 189.989	1.687±0.056	Cu 324.754	0.759±0.008
Tl 190.856	<LOD	In 325.609	0.066±0.009
Se 196.090	0.006±0.033	Yb 328.937	<LOD
Mo 202.030	0.422±0.001	La 333.749	0.008±0.001
Pt 203.646	0.023±0.005	Ti 334.941	0.136±0.006
Sb 206.833	0.094±0.081	Gd 335.047	<LOD
Zn 213.856	4.894±0.034	Ag 338.289	<LOD
Rb 214.383	0.707±0.513	Hf 339.980	0.032±0.001
Pb 220.353	0.012±0.008	Pd 340.458	<LOD
Ni 221.647	<LOD	Tm 342.508	<LOD
Bi 223.061	<LOD	Rh 343.489	<LOD
Ir 224.268	0±0.005	Zr 343.823	0.063±0.003
Os 225.585	<LOD	Ho 345.600	<LOD
Re 227.525	<LOD	Tb 350.917	0.011±0.001
Cd 228.802	0.019±0.001	Sc 361.384	0.021±0
Te 238.578	<LOD	Sm 363.429	0.254±0.015
Co 238.892	<LOD	U 367.007	0.094±0.04
W 239.709	<LOD	Y 371.030	<LOD
Ru 240.272	<LOD	Nd 378.425	0.092±0.016
Au 242.795	<LOD	Eu 381.967	<LOD

ISSN 3030-3907

B 249.773	1.448±0.007	Pr 390.844	<LOD
Si 251.611	5.693±0.071	Ca 393.366	669.782±6.91
Mn 257.610	3.129±0.022	Al 396.152	5.859±0.015
Fe 259.940	6.045±0.068	Dy 400.045	<LOD
Lu 261.542	0.006±0	Sr 407.771	3.789±0.114
Ge 265.118	<LOD	Ce 413.765	<LOD
Pt 265.945	0.003±0.019	Ba 455.403	0.808±0.014
Ta 268.517	0.001±0.039	Na 589.592	2587.582±21.066
Mg 279.553	323.891±5.934	Li 670.776	2.893±0.039
Th 283.231	<LOD	K 766.490	2263.279±14.54
Cr 283.563	0.579±0.004	Cs 852.113	3.25±0.021
Ga 294.364	0.011±0.004	V 309.311	0.086±0.009

* Izoh: <LOD – natija deteksiya minimumidan kichik

XULOSA. TURP (RAPHANUS SATIVUS L) tarkibidagi kimyoviy elementlarni IBP-OES usulida analiz qilinganda 100 g namuna tarkibida Fe-6.045±0.068 mg, K-2263.279±14.54 mg, Ca-669.782±6.91 mg, Mg-323.891±5.934 mg, Zn-4.894±0.034 mg, Na-2587.582±21.066 mg, P-260.781±2.484 mg mavjud ekanligi aniqlandi. Bu natijalar Daikon turpi kimyoviy tarkibi jihatidan inson organizmi uchun foydali elementlarga boy sabzavot ekanligini ko‘rsatadi. Uni muntazam iste’mol qilish sog‘liqni mustahkamlash, metabolik jarayonlarni yaxshilash va ayrim kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.E.Mahmudova “Turpning sirli va mo‘jizaviy hususiyatlari” Jild: 04, Nashr: 11 | Nov - 2024 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz.
2. I.R.Asqarov. Tabobat qomusi. Mumtoz so‘z. Toshkent – 2019. –1590 b.
3. Yamane T., Nakatani N. Nutritional and functional properties of daikon (Raphanus sativus var. longipinnatus). Journal of Food Science, 2019.
4. FAO/WHO Food composition database. 2020.
5. USDA FoodData Central. Daikon, raw. 2022.
6. Zhang Y., Talalay P. Anticarcinogenic activities of daikon-derived isothiocyanates. Nutrition and Cancer, 2018.
7. Fahey, J.W., Zalcmann, A.T., & Talalay, P. (2001). The chemical diversity and distribution of glucosinolates and isothiocyanates among plants. Phytochemistry, 56(1), 5-51.
8. Zhang, Y. (2010). Cancer-preventive isothiocyanates: measurement of human exposure and mechanism of action. Mutation Research, 555(1–2), 173–190.

ISSN 3030-3907

9. Kim, S.J., Ishii, G. (2007). Effect of heat treatment on radical-scavenging activity of Daikon (Raphanus sativus L.) sprouts. Food Chemistry, 102(1), 220–226.
10. Clarke, J.D., Dashwood, R.H., Ho, E. (2008). Multi-targeted prevention of cancer by sulforaphane. Cancer Letters, 269(2), 291–304.
11. Lee, J.H., et al. (2016). Anti-inflammatory and anticancer effects of radish (Raphanus sativus L.) leaves. Food Science and Biotechnology, 25(2), 547–553.

ISSN 3030-3907

ИЗУЧЕНИЕ СТРУКТУРНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ И СОРБЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ КРАНТАУСКОГО БЕНТОНИТА

Шарипова А.И.
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха
Абдикамалова А.Б.
Институт общей и неорганической химии Академии наук Республики Узбекистана Каракалпакский государственный университет имени Бердаха
Каримбаева И.Е.
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха
E-mail: irodakarimbayeva9@gmail.com

Аннотация. В статье представлены результаты исследования бентонитовых глин месторождения Крантау и изучения их сорбционная активность по отношению к газовой среде. Адсорбенты имеют большое практическое значение при очистке воды. Бентонитовые сорбенты для очистки сточных вод от загрязняющих веществ различной природы представляют собой сорбены с микро- и мезопористой структурой. Изучение минералогического состава бентонита проводилось методами рентгенографического и термогравиметрического анализа. В связи с этим в работе представлены результаты изучения состава Крантауского бентонита и сорбционная активность Крантауского бентонита по отношению к газовой среде адсорбатов. Известно, что монтмориллонитовые глины за счет структуры строения обладают высокими значениями гидрофильности. Поэтому монтмориллонит обладает высоким сродством по отношению к парам воды даже при низких значениях относительного давления (P/P_s=0,2). Анализ формы изотерм позволил выявить различия в механизмах сорбции воды, обусловленные гидрофильностью и природой органической добавки. установлено, что природный образец КБ характеризуется большим содержанием микро-, мезопор и незначительным содержанием макропор диаметром частиц более 50 нм. Данная величина соответствует среднему расстоянию между соседними слоями.

Ключевые слова: Адсорбент, бентонит, сточные воды, микро- и мезопоры, адсорбция, адсорбаты, пары воды.

Annotatsiya. Maqolada Krantau koni bentonit gillarini o‘rganish va ularning gaz muhitiga nisbatan sorbsion faolligini o‘rganish natijalari keltirilgan. Adsorbentlar suvni tozalashda katta amaliy ahamiyatga ega. Oqova suvlarni turli tabiatli ifloslantiruvchi moddalardan tozalash uchun bentonitli sorbentlar mikro va mezog‘ovakli tuzilishga ega bo‘lgan sorbentlardir. Bentonitning mineralogik

ISSN 3030-3907

tarkibini o‘rganish rentgenografik va termogravimetrik tahlil usullari yordamida amalga oshirildi. Shu munosabat bilan, ishda Krantau bentonitining tarkibi va Krantau bentonitining adsorbatlarning gaz muhitiga nisbatan sorbsion faolligini o‘rganish natijalari keltirilgan. Ma’lumki, montmorillonitli gillar struktura tuzilishi hisobiga yuqori gidrofillik ko‘rsatkichlariga ega. Shuning uchun montmorillonit nisbiy bosimning past qiymatlarida ham suv bug‘lariga nisbatan yuqori moyillikka ega. (P/Ps=0,2). Izotermalar shaklining tahlili organik qo‘shimchaning gidrofilligi va tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan suvni sorbsiyalash mexanizmlaridagi farqlarni aniqlash imkonini berdi. KB tabiiy namunasi mikro-, mezog‘ovaklarning katta miqdori va zarrachalar diametri 50 nm dan ortiq bo‘lgan makrog‘ovaklarning kichik miqdori bilan tavsiflanishi aniqlandi. Ushbu kattalik qo‘shni qatlamlar orasidagi o‘rtacha masofaga mos keladi.

Kalit so‘zlar: Adsorbent, bentonit, oqova suvlar, mikro va mezog‘ovaklar, adsorbsiya, adsorbatlar, suv bug‘lari.

Annotation: The article presents the results of research on bentonite clays of the Krantau deposit and their sorption activity towards the gas environment. Adsorbents have great practical importance in water purification. Bentonite sorbents for purifying wastewater from pollutants of various nature are sorbents with a micro- and mesoporous structure. The study of the mineralogical composition of bentonite was carried out by methods of radiographic and thermogravimetric analysis. In this regard, the work presents the results of studying the composition of Krantau bentonite and the sorption activity of Krantau bentonite against the adsorbate gas environment. It is known that montmorillonite clays, due to their structural composition, have high hydrophilicity values. Therefore, montmorillonite has a high affinity for water vapor even at low relative pressure values.(P/Ps=0,2). Analysis of the isotherm shape revealed differences in water sorption mechanisms due to hydrophilicity and the nature of the organic additive. It was determined that the natural KB sample is characterized by a high content of micro-, mesopores, and a low content of macropores with particle diameters greater than 50 nm. This value corresponds to the average distance between adjacent layers.

Keywords: Adsorbent, bentonite, wastewater, micro- and mesopores, adsorption, adsorbents, water vapor.

ВВЕДЕНИЕ

Проблема глубокой очистки производственных сточных вод от растворенных в них веществ, является одной из наиболее важных с точки зрения охраны окружающей среды. Адсорбция считается более универсальным методом очистки, допускающим полное практическое

ISSN 3030-3907

извлечение примесей из жидкой фазы. Адсорбционная очистка отличается эффективностью во всех диапазонах концентраций растворенных поллютантов, особенно при низких концентрациях загрязнений. Известно, что для удаления из сточной воды загрязнителей различной природы, адсорбенты на основе бентонитов должны обладать развитой удельной поверхностью с преобладанием микро и мезопор. Научные основы подбора сырьевых ресурсов для создания оргонофильных бентонитов и их использования в качестве для адсорбционной очистки. Однозначно, разработка новых адсорбентов возможно только подробного изучения составов и свойств исходных материалов [1-3].

ОБЪЕКТЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ. Объектами исследования служили образцы бентонитовые глины Крантауского месторождения, отличающиеся высоким содержанием минералов группы смектита (монтмориллонита) [4-6]. В качестве контрольного образца были взяты бентонитовые глины Навбахорского месторождения.

Исследование минералогического состава бентонита осуществлялось методом рентгенографического анализа. Съемка рентгенограмм проводилась с помощью рентгеновского порошкового дифрактометра XRD – 6100 (Shimadzu, Japan). Применялось CuK_{α} – излучение (β-фильтр, Ni, 1,54178 режим тока и напряжение трубки 30 mA, kV) и постоянная скорость вращения детектора 4 град/мин с шагом 0,02 град, а угол сканирования изменялся от 4 до 80º.

Подготовка проб для рентгенофазового анализа проводилась в соответствии с методическими указаниями [7]. Исследуемые объекты предварительно высушивались до постоянной массы, затем производилось измельчение в агатовой ступке до полного прохождения через сито 006. Сравнением рентгеновских дифрактограмм образцов с дифракционными максимумами, характерных для определенной структуры идентифицированы фазовые составы и определены параметры элементарной ячейки образцов глин (рис.1) [8-9].

Сорбционные измерения паров выбранных образцов проводились с применением высоковакуумной установки Мак-Бена с ртутными затворами и кварцевыми весами при остаточном давлении $1.33 \cdot 10^{-3}$ Па и температуре 298 К. Удлинение пружин установки контролировалось с помощью катетометра КМ-8.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ. Результаты проведенных исследований установил состав бентонита месторождения Крантау, согласно с которыми данный бентонит характеризуется щелочным

ISSN 3030-3907

монтмориллонитом в составе и данный минерал вероятно всего является основным минералом, т.к. характерные для данного минерала линия (1,5450; 1,2923; 0,4484; 0,2592; 0,2489; 0,1767; 1,502 нм) отличаются от других интенсивностью. Вместе с тем рентгенограмма характеризуется линиями, характерных для каолинита и гидрослюды. Имеется незначительное количество иллита (10,091; 4,45; 3,795; 3,236; 2,971; 1,639; 1,502 Å) и полевого шпата (3,236; 2,330; 1,731 Å). Величина d_{001} эффекта для данного минерала характеризуется значениями 12,36 Å, что также свидетельствует о щелочной форме монтмориллонита.




Рис.1. Дифрактограмма образца КБ.

Для изучения сорбционная активность Крантауского бентонита по отношению к газовой среде адсорбатов были выбраны пары воды, бензола и пиридина, которые различаются по степени полярности молекулы и по её размерам.

На рис. 1 приведены диаграммы иллюстрирующие изменения значений адсорбции паров воды, бензола и пиридина на природном образце КБ. Известно, что монтмориллонитовые глины за счет структуры строения обладают высокими значениями гидрофильности. Поэтому монтмориллонит обладает высоким сродством по отношению к парам воды даже при низких значениях относительного давления (P/P_s=0,2).

ISSN 3030-3907




Рис. 1. Изотермы адсорбции паров различных адсорбтибов на образце КБ: 1) бензол; 2) вода; 3) пиридин.

Значения адсорбции паров бензола на образце КБ значительно меньше, чем количество адсорбции пиридина, что связано с полярностью молекул последнего, за счет чего обладает более высоким сродством по отношению к поверхности сорбента. На основе изотерм адсорбции были рассчитаны значения текстурных показателей исследуемого образца с использованием соответствующих уравнений (табл. 1).

Таблица 1.

Текстурные свойства образца КБ, рассчитанные по изотермам адсорбции паров воды*, бензола и пиридина**

Адсорбат	A_0, ммоль/г	$S_{уд}$, $м^2/г$	ΣV_a, $см^3/г$	ΣV_b, $см^3/г$	ΣV_o, $см^3/г$	R, нм
H_2O	1,879	122,19	0,0693	0,0033	0,072	1,13
C_6H_6	0,212	51,03	0,0440	0,0200	0,064	2,37
C_5H_5N	0,354	82,37	0,0600	0,0200	0,080	1,91

**-рассчитанные по линейной форме уравнения Ленгмюра;*

***- рассчитанные по линейной форме уравнения БЭТ.*

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. В результате данных исследований установлено, что природный образец КБ характеризуется большим содержанием микро-, мезопор и незначительным содержанием макропор диаметром частиц более 50 нм. Данная величина соответствует среднему расстоянию между соседними слоями. Показаны, что различия в изотермах адсорбции отражают селективность поверхности КР по отношению к полярным адсорбтивам. Адсорбция паров воды, пиридина и бензола на образце КБ носит стадийный характер: в области низких относительных давлений реализуется мономолекулярная адсорбция, тогда как при P/Ps > 0,2 преобладает полимолекулярная адсорбция, наиболее выраженная для воды.

ISSN 3030-3907

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Крупин С.В., Трофимова Ф.А. Коллоидно-химические основы создания глинистых суспензий для нефтепромыслового дела. Казань: ФГУП ЦНИИ геолнеруд; 2010, 411 с.
2. Никитина Н.В. Физико-химические свойства сорбентов на основе природного бентонита, модифицированных полигидроксокатионами металлов: Автореф. дис. … канд. хим. наук (02.00.04). – Саратов: Ин-т химии ФГБОУ ВО «Саратовский нац. исс. гос. университет им. Н.Г. Чернышевского, 2019. – 23 с.
3. Abdikamalova A.B., Eshmetov I.D. Formulation of recipes of inhibiting the drilling mud without solid phase on the basis of industrial waste // XXXVIII International scientific and practical conference «International Scientific review of the problems and prospects of modern science and education» Boston. USA, 24-25 October. 2017. – PP. 7-11.
4. Абдикамалова А.Б., Абдисаттарова Э.А. Изучение состава и структурных особенностей бентонитовых глин Крантауского месторождения // Матер. конф. VI Научно-практическая конференция «Рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья». Нукус, 2017. – С. 135.
5. Abdikamalova A.B., Eshmetov I.D. Formulation of recipes of inhibiting the drilling mud without solid phase on the basis of industrial waste // XXXVIII International scientific and practical conference «International Scientific review of the problems and prospects of modern science and education» Boston. USA, 24-25 October. 2017. – PP. 7-11.
6. Абдикамалова А.Б., Абдисаттарова Э.А. Изучение состава и структурных особенностей бентонитовых глин Крантауского месторождения // Матер. конф. VI Научно-практическая конференция «Рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья». Нукус, 2017. – С. 135.
7. Пулатов Х.Л Поликонденсацион турдаги катионитлар билан саноат ва оқова сувларни деминераллаштириш ва тозалаш: автореф. дис. канд. хим. наук: 02.00.13 / 02.00.15 Пулатов Хайрулла Лутпуллаевич. – Ташкент, – 2019. – 38 с.
8. Рентгенография основных типов породообразующих минералов (силикаты) / под ред. Франк-Каменецкого. – М.: Недра, 1984. – 261 с.
9. Дриц, В. А. Рентгеноструктурный анализ смешанно-слойных минералов / В. А. Дриц, Б.А. Сахаров. — М.: Мир, 1976. – 256 с.
10. Seitnazarova O.M., Kalbaev A.M., Mamataliev N.N., Abdikamalova A.B., Eshmetov I.D. Organobentonites synthesis and their sorption characteristics

6. Rakhimov, G. B., Buronov, F. E., & Zamonov, O. N. (2025). Investigation of abrasive wear and erosion processes and enhancement of operational performance in pumps used for the transfer of heavy hydrocarbons (Wax with solids). Экономика и социум, (11-2 (138)), 433-436.
7. Буронов, Ф., & Рахимов, Г. (2025). Research of the process of ethylene production from methane.
8. Buronov, F. E., Rakhimov, G. B., & Narzyev, S. S. (2025). Research of the process of ethylene production from methane. Экономика и социум, (5-1 (132)), 166-171.
9. Khurmamatov, A. M., Ismailov, O., Auesbaev, A. U., Rakhimov, G. B., Muminov, J. A., & Khametov, Z. M. (2025). Increasing the efficiency of heat exchange by improving the design of heat exchangers. Nafta-Gaz, 81.
10. Rakhimov, G., & Yuldashev, T. (2024, November). Study of the degree of foaming of absorbent compositions used when purifying gases from acidic components. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1, p. 050008). AIP Publishing LLC.
11. Rakhimov, G. B., & Sayfiyev, E. K. (2024). Research of the process of producing alcohols based on by-products obtained in the fischer-tropsch synthesis. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 2(03).

ISSN 3030-3907

12. Raximov, G. A., & Poyonov, L. (2024). Absorber konstruksiyasini takomillashtirish orqali gazlarni tozalash samaradorligini oshirish. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 1(1), 27-35.
13. Raximov, G. A. B. (2024). Qobiq-quvurlardan foydalangan holda issiqlik almashinish uskunasining samaradorligini oshirish uchun konstruksiyani takomillashtirish. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 2(03).
14. Rakhimov, G. B. (2023). Development of anti-detonation additive. Экономика и социум, (12 (115)-1), 604-607.
15. Normurod, F., Sadokat, N., Davron, H., & Ganisher, R. (2024). Catalytic aromanication of propane mixture. Universum: технические науки, 12(11 (128)), 5-8.
16. Bakhtiyorovich, R. G., & Khalmakhmatogli, S. E. (2024). Research of the process of producing alcohols based on by-products obtained in the fischer-tropsch synthesis. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 2(3), 139-143.
17. Rakhimov, G. B., Buronov, F. E., & Saidov, S. L. (2024). To study the operation of the fractionating apparatus in increasing the efficiency of separation of hydrocarbon fractions.
18. Рахимов, Г. Б. (2024). Изучение влияния эффективности теплообмена в кожухотрубчатого теплообменник на гидродинамические параметры. Экономика и социум, (12-1 (127)), 998-1007.
19. Yuldashev, T. R., Rakhimov, G. B., Bekmurodov, A. A., & Jabborov, N. X. (2024). Increasing the efficiency of cleaning natural gases from sour components. Экономика и социум, (11-1 (126)), 626-631.
20. Rakhimov, G., Kuybokarov, O., & Karshiyev, M. (2024). Research of the catalytic properties of a catalyst selected for the production of high-molecular weight liquid synthetic hydrocarbons from synthesis gas. In E3S Web of Conferences (Vol. 498, p. 01008). EDP Sciences.
21. Rakhimov, G. (2023). Qobiq quvurli issiqlik almashinish qurilmalaridagi issiqlik almashinish samaradorligini gidrodinamik parametlariga ta’sirini o ‘rganish. Innovatsion texnologiyalar, 51(03), 77-86.

ISSN 3030-3907

LOTIN TILIDA O‘SIMLIKLARNING BOTANIK VA FARMOKOLOGIK TERMIN SIFATIDA TIBBIYOTDA NOMLANISHI

Hamdamova Muqaddas Xamidovna

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada lotin tilini o‘rgatuvchi kollej, institut, universtitet o‘qituvchilari hamda talabalariga lotin tilida o‘simliklarning botanik va farmokologik termin sifatida tibbiyot sohasida qo‘llanilishini xususan, og‘zaki va yozma nutqda oson hamda qulay ishlatishni o‘rgatishlari uchun kichik metodik ishlanma hisoblanadi. Bu yerda keltirilgan ma’lumotlar orqali tinglovchilarga o‘simliklarning botanik va farmokologik termin orasida qanday farqli tomonlari mavjudligini tushuntirishga harakat qiladi.

Kalit so‘zlar: lotin tili, leksik minimum, fonetika, o‘simlik, botanic, farmakologik, tibbiyot, grammatik fragmentlar, atama element va klinik terminlar.

Аннотация. В данной статье представлена небольшая методическая разработка для преподавателей колледжей, институтов и университетов, а также для студентов, изучающих латинский язык. В ней рассматривается использование названий растений на латинском языке как ботанических и фармакологических терминов в медицине, а также обучение их удобному и правильному применению в устной и письменной речи. На основе приведённых материалов предпринимается попытка объяснить слушателям различия между ботаническими и фармакологическими терминами, связанными с названиями растений.

Ключевые слова: латинский язык, лексический минимум, фонетика, растение, ботанический, фармакологический, медицина, грамматические фрагменты, терминоэлемент, клинические термины.

Abstract. This article presents a brief methodological guide for teachers of colleges, institutes, and universities, as well as for students studying Latin. It examines the use of plant names in Latin as botanical and pharmacological terms in medicine and aims to facilitate their correct and convenient application in both oral and written speech. The materials provided attempt to explain the differences between botanical and pharmacological terms related to plant names.

Keywords: Latin language, lexical minimum, phonetics, plant, botanical, pharmacological, medicine, grammatical fragments, term elements, clinical terms.

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatning istalgan sohasida bilimli,yuqori salohiyatga ega bo‘lgan zukko, o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha xorijiy tillarda erkin faoliyat yurita oladigan malakali kadrlarga nafaqat bizning yurtimiz balki butun dunyo mamlakatlari mana shunday mutaxassislarga ehtiyoji yuqori ekanligi kundan

ISSN 3030-3907

kunga ortib bormoqda. Xususan, dunyo tan olgan xorijiy tillarni o‘rgangan holda, tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha lotin tilida o‘simliklarning botanik va farmokologik nomlanishini bilish bugungi kunda dolzarb asosiy fragmentlardan biri bo‘lib bormoqda. Chunki bunday ustunlik va imkoniyatlarga ega bo‘lgan kadrlar o‘z yurtida hamda dunyo bo‘ylab samarali tajriba almashinib, kasbiy barkamollikka erishishi mumkin. Tibbiyot va farmatsiya sohalarida dorivor o‘simliklardan foydalanish ming yillik tarixga ega. Dorivor o‘simliklarning to‘g‘ri tanilishi, tasniflanishi va nomlanishi ilmiy aniqlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tibbiyotda o‘simliklar botanik va farmakologik nomlar asosida yuritiladi. Ushbu nomlanishlar asosan lotin tili orqali xalqaro miqyosda bir xillikni saqlashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISIM: Tibbiyot kabi, biologiya fanining rivojlanish tarixi antik davrga borib taqaladi, Avvalgi qadimgi grek faylasufi Arastu (Aristotel, 384-322 er.av.yillar), uning shogirdi Teofrast (Tirtam), so‘nggi qadimgi grek shifokori Pedaniy Dioskorid (eramizning I yuz yillik) va boshqalar o‘simlik dunyosi haqidagi bilimlarni tizimlashtirdi, o‘simliklar tasnifini tuzishdi, o‘simliklarning tibbiyotda qo‘llanilishi haqidagi bilimlarini umumlashtirishdi. Antik davr olimlarining ishlari Uyg‘onish va Yangi davr (XV-XVIII asrlar)da izlanuvchilarning o‘simliklarning tizimlanishi ishlarida muhim rol o‘ynadi. XVII-XVIII asrlarda biologiya fanining keyingi taraqqiyoti tufayli (zoologik atamalar singari) grek va lotin so‘zlaridan vujudga kelgan ko‘plab botanik atamalar yaratildi. o‘simlik va hayvonot dunyosi tasniflanishida yangi metodlar yuzaga keldi. o‘simlik va hayvon turlari umumiy e’tirofdagi nomlanishga ega emas edi, ular ma’lum qiyinchilik va noqulaylik tug‘diradigan uzun iboralar bilan nomlanib kelar edi. Shved olimi Karl Linney (1707-1778) har bir o‘simlik yoki hayvonni ikki xil usulda: nasliga ko‘ra va turiga ko‘ra nomlashni, ya’ni ikki so‘zli atamani amaliyotga kiritdi. Nasliy nomlanish Nominativus (bosh kelishik) dagi ot bilan, turini ifodalaydigan nomlanish ko‘proq sifat, kamroq ot bilan ifodalanadi. Xususan, botanik nomlanish, besh grammatik modelga bo‘linadi:

1.Nominativusdagi ot +Nominativusdagi ot: Artemisia absinthium – achchiq shuvoq.

2.Nominativusdagi ot + Genetivusdagi ot: Primŭla veris –bahorgi boychechak.

3.Nominativusdagi ot + turlanmaydigan ot: Theobroma cacao – shokolad daraxti.

4.Nominativusdagi ot +aniqlovchili ot: Arctostaphylos uva - ursi –oddiy ayiqtovon.

5.Nominativusdagi ot +sifat: Crataegus sanguinea –qon rangli qizil do‘lana.

ISSN 3030-3907

Botanik nomlanish — o‘simliklarning ilmiy tasnifi bo‘lib, u Karlos Linney tomonidan ishlab chiqilgan binominal nomenklatura (ikki nomli atama) tizimiga asoslanadi. Har bir o‘simlik nomi ikki qismdan iborat:

Avlod (Genus) va Tur (Species) **Misollar:** Mentha piperita — yalpiz; matricaria chamomilla — moychechak

Farmakologik nomlanish o‘simlikning dori sifatida ishlatiladigan qismi yoki ta’sir etuvchi moddasiga asoslanadi. Bu nomlar farmakopeyalar va retsepturalarda keng qo‘llanadi.

Misollar: Botanik nom Farmakologik nom O‘zbekcha
Valeriana officinalis Radix Valerianae Valeriana ildizi
Plantago major Folia Plantaginis Zubturum bargi

Ikki so‘zli atamalar tamoyili ekish kuni sistematikasida saqlanib qoladi. Dorivor o‘simlik xom-ashyosi sifatida qo‘llaniluvchi o‘simlik ko‘p hollarda faqat bir nomlanishga: nasliga ko‘ra yoki turiga ko‘ra nomlanishga ega. Agar o‘simlikning botanik nomi birinchi, uchinchi yoki to‘rtinchi model bo‘yicha yozilgan bo‘lsa, turiga ko‘ra sifatlash deb ataladi va bu o‘simlikning farmatsevtik nomi deb yuritiladi. Agar ikkinchi yoki beshinchi model bo‘yicha nomlansa, nasliy sifatlash deb ataladi . Ikki so‘zli atamalar tamoyili ekish kuni sistematikasida saqlanib qoladi. Dorivor o‘simlik xom-ashyosi sifatida qo‘llaniluvchi o‘simlik ko‘p hollarda faqat bir nomlanishga: nasliga ko‘ra yoki turiga ko‘ra nomlanishga ega. Agar o‘simlikning botanik nomi birinchi, uchinchi yoki to‘rtinchi model bo‘yicha yozilgan bo‘lsa, turiga ko‘ra sifatlash deb ataladi va bu o‘simlikning farmatsevtik nomi deb yuritiladi. Agar ikkinchi yoki beshinchi model bo‘yicha nomlansa, nasliy sifatlash deb ataladi .

BIR XIL BOTANIK VA FARMATSEVTIK NOMLANISHDAGI O‘SIMLIKLAR

O‘simlikning botanik nomlanishi	Farmatsevtik nomlanishi	Tarjima
Adōnis vernālis	Adōnis vernālis	Bahorgi gulizardak
Anīsum vulgāre	Anīsum vulgāre	Oddiy arpabodiyin
Erysĭmum canescens	Erysĭmum canescens	Kulrang sariqo‘t
Helichrysum arenarium	Helichrysum arenarium	Qumloq bo‘znochi
Ledum palustre	Ledum palustre	Botqoq bagulnigi

ISSN 3030-3907

BIR XIL BOTANIK VA FARMATSEVTIK NOMLANISHDAGI O‘SIMLIKLAR

O‘simlikning botanik nomlanishi	Farmatsevtik nomlanishi	Tarjima
Mentha piperīta	Mentha piperīta	Qalampir yalpiz
Polygōnum hydropĭper	Polygōnum hydropĭper	Suv qalampir
Polygōnum aviculāre	Polygōnum aviculāre	Qush toroni
Rhamnus cathartĭca	Rhamnus cathartĭca	Yumshatuvchi itjumrut
Ribes nigrum	Ribes nigrum	Qora qarag‘at

XULOSA: Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, tibbiyotda o‘simliklarning botanik va farmakologik nomlanishi ilmiy aniqlik, xavfsizlik va samaradorlikni ta’minlaydi. Botanik nomlar o‘simlikning tabiiy xususiyatlarini ifodalasa, farmakologik nomlar uning dorivor ahamiyatini ochib beradi. Dorivor o‘simliklarning to‘g‘ri tanilishi, tasniflanishi va nomlanishi ilmiy aniqlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tibbiyotda o‘simliklar botanik va farmakologik nomlar asosida yuritiladi. Ushbu nomlanishlar asosan lotin tili orqali xalqaro miqyosda bir xillikni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi zamonaviy tibbiyot va farmatsiyaning muhim poydevorlaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.T.Umarov, Z.M.Maxmudov, U.A.Safarova “Lotin tili va tibbiy- farmasevtik terminalogiya asoslari” HILOL MEDIA nashriyoti Toshkent 2023y.
2. L.U.Xo‘jayeva, Z.Z.Rahmatullayeva, N.S. Mamasaliyev” Lotin tili” O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2005 y.
3. Айтмуратова, П. Г. (2022). Важность обучения латинскому языку в медицинских вузах. Science and Education, 3(12), 897-902.
4. Айтмуратова, П. Г. (2024). I-III Склонения имён существительных в латинском языке. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 22(5), 37-42.
5. Alisherovna, A. U., & Uves, S. (2023, November). Clinical terminology: understanding word-formation, greek roots, suffixes, and prefixeS. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 206-209).

ISSN 3030-3907

6. Mardanovich, M. Z. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta’siri. Research Focus International Scientific Journal, 2(6), 132-136.
7. Beknazarova, M. K. (2022). Lotin tilini o‘qitish jarayonida klinik kafedralar bilan integratsiyalashtirilgan mashg‘ulotlarning maqsadli yo‘naltirilishidagi natijalar. Science and Education, 3(11), 653-656. Hamdamova Muqaddas
8. Xamidovna. (2024). Fransuz tilida murakkab nisbiy olmoshlarning ishlatish metodikasi. Miasto Przyszłości, 53, 451–452. Retrieved from http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4859
9. Hamdamova Muqaddas Xamidovna. (2024). Le Developpement De Tourisme Entre La France Et L'ouzbekistan. https://doi.org/10.5281/zenodo.14001984

ISSN 3030-3907

AMIN ERITMALARI ASOSIDA GAZLARNI TOZALASH JARAYONIDA REGENERATSIYA BOSQICHINING ENERGIYA SARFINI KAMAYTIRISH USULLARINI TADQIQ ETISH.

Najmiddinov Shahriddin Sherzod o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti magistr
Cho‘liyev Jamshid Ro‘ziboyevich
Qarshi davlat texnika universiteti PhD
E-mail: jamshid.chuliyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida joylashgan Sho‘rtan neft va gazni qayta ishlash zavodida qo‘llanilayotgan aminli gaz tozalash texnologiyasining regeneratsiya bosqichi tadqiq etilgan. To‘yingan amin eritmalarini qayta tiklash jarayonida ishlatiladigan mavjud desorbsion qurilmalarning yuqori energiya talabi texnologik jarayonning asosiy kamchiliklaridan biri sifatida aniqlangan. Tadqiqot davomida desorber qurilmasining issiqlik almashinuvi va ish rejimlarini takomillashtirishga qaratilgan texnologik yechim taklif etildi. Taklif etilgan sxema regeneratsiya jarayonida bug‘ sarfini kamaytirish, issiqlik resurslaridan samarali foydalanish hamda umumiy energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: amin eritmalari, gazlarni tozalash, regeneratsiya, desorbsiya, desorber, energiya samaradorligi, Sho‘rtan NQIZ.

Abstract. This article investigates the regeneration stage of the amine-based gas treatment technology applied at the Shurtan Oil and Gas Processing Plant located in the Kashkadarya region. It has been identified that the high energy demand of conventional desorption units used for regenerating rich amine solutions is one of the main technological drawbacks of the process. In the course of the study, a technological solution aimed at improving the heat exchange and operating conditions of the desorber unit has been proposed. The proposed scheme makes it possible to reduce steam consumption during the regeneration process, ensure more efficient utilization of thermal resources, and enhance overall energy efficiency.

Keywords: amine solutions, gas treatment, regeneration, desorption, desorber, energy efficiency, Shurtan Oil and Gas Processing Plant.

Аннотация. В данной статье исследуется стадия регенерации аминной технологии очистки газа, применяемой на Шуртанском нефтегазоперерабатывающем заводе, расположенном в Кашкадарьинской области. Установлено, что высокая энергоёмкость существующих десорбционных установок, используемых для регенерации насыщенных аминных растворов, является одним из основных технологических недостатков процесса. В ходе исследования предложено технологическое

ISSN 3030-3907

решение, направленное на совершенствование теплообменных процессов и режимов работы десорбера. Предлагаемая схема позволяет снизить расход пара в процессе регенерации, обеспечить более рациональное использование тепловых ресурсов и повысить общую энергетическую эффективность.

Ключевые слова: аминные растворы, очистка газа, регенерация, десорбция, десорбер, энергетическая эффективность, Шуртанский нефтегазоперерабатывающий завод.

KIRISH

Neft-gaz sanoatida texnologik gazlarni zararli aralashmalardan tozalash jarayonlari butun ishlab chiqarish zanjirining ajralmas va strategik muhim bosqichlaridan biri sanaladi [1]. Gaz tarkibida uchraydigan nordon komponentlar, xususan karbonat angidrid (CO_2) va oltingugurt vodorodi (H_2S) nafaqat mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki texnologik uskunalarning korroziyaga uchrashini tezlashtiradi, quvurlar va issiqlik almashinish apparatlarining xizmat muddatini qisqartiradi hamda atrof-muhitga zararli tashlamalar miqdorini oshiradi [2]. Ayniqsa, H_2S ning zaharli va agressiv xususiyatlari ishlab chiqarish xavfsizligi nuqtayi nazaridan ham alohida e’tibor talab qiladi.

Sanoat amaliyotida gazlarni nordon komponentlardan tozalashning bir necha usullari mavjud bo‘lib, ular orasida amin eritmalari asosidagi absorbsiya jarayoni iqtisodiy va texnologik jihatdan eng maqbul usullardan biri sifatida keng qo‘llaniladi [3]. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, nordon gaz komponentlari suyuq amin eritmasi bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, eritmada bog‘langan holda ushlab qolinadi. Keyinchalik to‘yingan eritma regeneratsiya qilinib, faol amin qayta tiklanadi va jarayonga uzatiladi.

Sho‘rtan neft va gazni qayta ishlash zavodida amalda monoetanolamin (MEA) hamda dietanolamin (DEA) asosidagi eritmalar qo‘llaniladi [4]. Bu aminlar nordon gazlarni yutish qobiliyati, nisbatan barqarorligi va sanoat sharoitida sinovdan o‘tganligi bilan ajralib turadi. Biroq ularning samaradorligi ko‘p jihatdan regeneratsiya jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq.

Amin eritmasini regeneratsiya qilish jarayoni odatda desorber (stripper) kolonnasida amalga oshiriladi. Bu bosqichda eritma tarkibidagi bog‘langan CO_2 va H_2S issiqlik ta’sirida ajralib chiqadi va aminning faol shakli qayta tiklanadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, aynan regeneratsiya bosqichi umumiy energiya sarfining eng katta qismini tashkil etadi. Ayniqsa, qayta qizdirgich (reboiler)da sarflanadigan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish tannarxiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [5].

Energiya sarfining yuqoriligi bir nechta omillar bilan izohlanadi: eritmaning issiqlik sig‘imi katta bo‘lishi, issiqlik almashinuvi jarayonining yetarli darajada

ISSN 3030-3907

optimallashtirilmaganligi, issiqlik yo‘qotishlari hamda qurilma konstruksiyasining takomillashmaganligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, eritma tarkibida parchalanish mahsulotlarining to‘planishi ham issiqlik sarfini oshirishi mumkin.

Shu bois amin eritmalarini regeneratsiya qilish bosqichini energiya tejamkor usullar asosida takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Issiqlik almashinish apparatlarini modernizatsiya qilish, issiqlikni rekuperatsiya qilish tizimlarini joriy etish, ko‘p bosqichli regeneratsiya usullaridan foydalanish hamda optimal texnologik rejimlarni tanlash orqali energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Natijada, regeneratsiya bosqichini energiya jihatdan samarali tashkil etish nafaqat ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi, balki korxonaning umumiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, ekologik xavfsizlikni oshiradi va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi.

TAJRIBA QISMI.

Dastlabki materiallar. Sho‘rtan neft va gazni qayta ishlash zavodida (NQIZ) qo‘llanilayotgan aminli gaz tozalash texnologiyasida nordon gaz komponentlari bilan to‘yingan amin eritmalari regeneratsiya bosqichida qayta tiklanadi. Regeneratsiya jarayoni desorber (stripper) kolonnasida amalga oshirilib, unda eritma tarkibiga kimyoviy bog‘langan CO_2 va H_2S yuqori harorat ta’sirida ajratib olinadi. Jarayonning harakatlantiruvchi kuchi sifatida issiqlik energiyasi xizmat qiladi.

Desorber kolonnasining pastki qismiga beriladigan suv bug‘i eritmani qizdiradi va amin–gaz komplekslarining parchalanishiga olib keladi. Natijada nordon komponentlar gaz fazaga o‘tadi va kolonnaning yuqori qismidan chiqariladi, regeneratsiyalangan amin eritmasi esa kolonnaning pastki qismidan olinib, sovitish bosqichidan so‘ng yana absorbsiya jarayoniga qaytariladi [6].

Amaldagi texnologik sxemada regeneratsiya bosqichi umumiy energiya sarfining eng katta ulushini tashkil etadi. Xususan, reboilerda hosil qilinadigan bug‘ sarfi sezilarli miqdorda yoqilg‘i-energiya resurslarini talab qiladi. Issiqlik almashinuvi jarayonlarining yetarli darajada samarali tashkil etilmaganligi, issiqlik yo‘qotishlari hamda texnologik parametrlarning optimal qiymatlarda olib borilmasligi regeneratsiya samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi [7]. Shu bois jarayonni energiya jihatdan takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

Desorbsion qurilmani energiya tejamkorlashtirish yo‘llari. O‘tkazilgan texnologik tahlillar va amaliy kuzatuvlar asosida Sho‘rtan NQIZ sharoitida desorbsion qurilmaning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator takliflar ishlab chiqildi [8]. Ular quyidagilardan iborat:

ISSN 3030-3907

- to‘yingan amin eritmasini desorberga uzatishdan oldin regeneratsiyalangan issiq eritma hisobiga oldindan qizdirish;
- issiqlik almashinish apparatlarining konstruksiyasini takomillashtirish va issiqlik uzatish yuzasini kengaytirish;
- kolonnaning ish bosimi va harorat rejimlarini optimal texnologik ko‘rsatkichlarda barqaror ushlab turish;
- ikkilamchi bug‘ va chiqindi issiqlik energiyasidan rekuperatsiya asosida qayta foydalanish.

Taklif etilgan sxemaga ko‘ra, absorbsiya jarayonidan kelayotgan to‘yingan amin eritmasi regeneratsiyalangan issiq eritma bilan qarama-qarshi oqimda ishlovchi plastinali yoki quvurli issiqlik almashinuvchidan o‘tkaziladi. Buning natijasida to‘yingan eritmaning desorberga kirish harorati oshadi, shu bilan birga reboilerda sarflanadigan tashqi bug‘ miqdori kamayadi [9].

Mazkur yondashuv energiya balansini optimallashtirishga xizmat qilib, jarayonning issiqlik samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash va issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirish ham qo‘shimcha energiya tejash imkonini beradi.

Takomillashtirilgan sxemaning afzalliklari. Taklif etilgan energiya tejamkor texnologik yechimni Sho‘rtan NQIZ sharoitida qo‘llash quyidagi ijobiy natijalarga olib kelishi kutiladi:

- regeneratsiya bosqichida bug‘ sarfining sezilarli kamayishi;
- amin eritmasining qayta tiklanish darajasining ortishi va absorbsiya samaradorligining yaxshilanishi;
- yoqilg‘i-energiya resurslari sarfining qisqarishi hisobiga ekspluatatsion xarajatlarning kamayishi;
- qurilmaning issiqlik rejimining barqarorlashuvi va ishonchli ishlash muddati uzayishi.

Texnologik hisob-kitoblar natijalariga ko‘ra, taklif etilgan sxema asosida bug‘ sarfini o‘rtacha 10–15 % ga kamaytirish imkoniyati mavjud [10]. Bu ko‘rsatkich ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ISHNING AMALIY AHAMIYATI. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan energiya tejamkor texnologik yechimlar Sho‘rtan neft va gazni qayta ishlash zavodi sharoitida amaliy ahamiyat kasb etadi. Desorbsion qurilmaning issiqlik almashinuvi jarayonlarini optimallashtirish va ish parametrlarini ilmiy asoslangan holda tanlash orqali bug‘ hamda boshqa energiya resurslari sarfini kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari mavjud sanoat qurilmalarini to‘liq rekonstruksiya qilmasdan, ya’ni minimal konstruktiv o‘zgartirishlar va qo‘shimcha issiqlik almashinish elementlarini joriy etish orqali amaliyotga tatbiq etilishi mumkin. Bu esa kapital xarajatlarni keskin oshirmagan holda regeneratsiya jarayonining samaradorligini yaxshilash imkonini beradi.

Taklif etilgan konstruktiv va texnologik chora-tadbirlar ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, uskunalarning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish hamda atrof-muhitga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari aminli gaz tozalash jarayonida regeneratsiya bosqichini energiya jihatdan optimallashtirish sanoat miqyosida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu asosda ishlab chiqilgan yechimlar sanoat sharoitida joriy etish uchun tavsiya etiladi hamda kelgusida kengroq texnik-iqtisodiy tahlillar o‘tkazish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kohl A.L., Nielsen R. Gas Purification. – Houston: Gulf Publishing Company, 1997.
2. Mokhatab S., Poe W.A., Mak J.Y. Handbook of Natural Gas Transmission and Processing. – Elsevier, 2019.
3. GPSA. Engineering Data Book. – Gas Processors Suppliers Association, 14th ed., 2018.
4. Абдурахманов А.А., Юсупов Б.С. Газларни амин усулида тозалаш жараёнлари. – Тошкент: Фан, 2015.
5. Speight J.G. Natural Gas: A Basic Handbook. – Gulf Professional Publishing, 2018.
6. Campbell J.M. Gas Conditioning and Processing. Vol. 2. – Campbell Petroleum Series, 2016.
7. Smith R. Chemical Process Design and Integration. – Wiley, 2016.
8. Turton R. et al. Analysis, Synthesis, and Design of Chemical Processes. – Prentice Hall, 2018.
9. Coulson J.M., Richardson J.F. Chemical Engineering, Vol. 6. – Butterworth-Heinemann, 2019.
10. Perry R.H., Green D.W. Perry’s Chemical Engineers’ Handbook. – McGraw-Hill, 2019.

ISSN 3030-3907

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РАЗЛИЧНЫХ ВИДОВ ЗУБНОГО ПРОТЕЗИРОВАНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Рахимбердиев Рустам Абдуносирович
Заведующий кафедры детской стоматологии СамГМУ, PhD,доцент
Муродова Дилноза Дилшодовна
Клинический ординатор, кафеды детской стоматологии, СамГМУ

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ эффективности различных видов зубного протезирования у детей дошкольного возраста. Актуальность исследования обусловлена высокой распространённостью преждевременной потери молочных зубов, которая может приводить к нарушениям формирования прикуса, речи, жевательной функции и психоэмоционального состояния ребёнка. В работе рассмотрены основные виды детских зубных протезов, применяемых в клинической практике (съёмные пластиночные протезы, несъёмные пространственные удерживатели, коронки и другие конструкции), а также проведена оценка их функциональной эффективности, адаптационного периода, влияния на рост челюстей и профилактику зубочелюстных аномалий. На основании полученных данных определены преимущества и недостатки различных ортопедических конструкций и даны рекомендации по выбору оптимального метода протезирования с учётом возраста ребёнка и клинической ситуации.

Ключевые слова: зубные протезы, тонкостенные коронки, съёмные пластинчатые протезы, кариес зубов, заболевания пародонта, эпидемиологическое исследование, интенсивность кариеса, индекс распространенности кариеса.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda turli xil tish protezlash usullarining samaradorligi bo‘yicha qiyosiy tahlil keltirilgan. Tadqiqotning dolzarbligi sut tishlarining erta yo‘qotilishi keng tarqalganligi bilan izohlanadi, bu esa tish qatorining shakllanishi, nutq, chaynash funksiyasi hamda bolaning psixoemotsional holatida buzilishlarga olib kelishi mumkin. Ishda klinik amaliyotda qo‘llaniladigan bolalar tish protezlarining asosiy turlari (olinadigan plastinkali protezlar, olinmaydigan joy saqlovchi moslamalar, koronkalar va boshqa konstruksiyalar) ko‘rib chiqilgan hamda ularning funksional samaradorligi, moslashuv davri, jag‘ suyaklari o‘sishiga ta’siri va tish-jag‘ anomaliyalarining oldini olishdagi ahamiyati baholangan. Olingan natijalar asosida turli ortopedik konstruksiyalarning afzallik va kamchiliklari aniqlanib, bolaning yoshi va klinik holatini inobatga olgan holda optimal protezlash usulini tanlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: tish protezlari, yupqa devorli koronkalar, olinadigan plastinkali protezlar, tish kariyesi, parodont kasalliklari, epidemiologik tadqiqot, kariyes intensivligi, kariyes tarqalish indeksi.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the effectiveness of various types of dental prosthetics in preschool children. The relevance of the study is обусловлена the high prevalence of premature loss of primary teeth, which may lead to disturbances in occlusion development, speech, masticatory function, and the child’s psycho-emotional state. The paper examines the main types of pediatric dental prostheses used in clinical practice (removable plate prostheses, fixed space maintainers, crowns, and other constructions) and evaluates their functional effectiveness, adaptation period, impact on jaw growth, and role in the prevention of dentoalveolar anomalies. Based on the obtained results, the advantages and disadvantages of different orthopedic constructions are identified, and recommendations are provided for selecting the optimal prosthetic method considering the child’s age and clinical situation.

Keywords: dental prostheses, thin-walled crowns, removable plate prostheses, dental caries, periodontal diseases, epidemiological study, caries intensity, caries prevalence index.

ВВЕДЕНИЕ

Необходимость преждевременного удаления молочных зубов, возникающая при их разрушении и безуспешном лечении по поводу осложненного кариеса, ведет к морфологическим и функциональным нарушениям в челюстно-лицевой системе. При дефектах зубного ряда снижается жевательная эффективность и работоспособность жевательных мышц, формируются вредные привычки, отстают в работе альвеолярные отростки, нарушается процесс становления высоты прикуса [1,2,10]. Л. В. Ильина-Маркосян описала своеобразный феномен - деформацию зубных дуг и альвеолярных отростков, развивающуюся вследствие зубо-альвеолярного удлинения антагонистов и корпусного смещения зубов, расположенных рядом с дефектом. Такое смещение зубов приводит к уменьшению размеров дефекта по вертикали в 73,18 % случаев, по горизонтали в 79,82%. Предупредить возникновение зубочелюстных аномалий вследствие преждевременной утраты молочных зубов можно только с помощью своевременного протезирования. Учитывая, что данные литературы о влиянии зубных протезов на формирование прикуса, ткани и органы полости рта у детей дошкольного возраста немногочисленны, мы сочли необходимым поделиться своими наблюдениями [3,5,10,15].

ISSN 3030-3907

Цель: заключается в совершенствовании методов зубного протезирования нормальной формировании прикуса у детей дошкольного возраста.

Материал и методы исследования. У 304 (125 мальчиков, 179 девочек) воспитанников детских садов города Самарканда изучали ближайшие (до 6 мес.) и у 225 (86 мальчиков, 139 девочек) детей отдаленные (1-3 года) результаты протезирования зубов, проведенного в возрасте 4-6 лет в процессе диспансерного наблюдения у ортодонта на кафедре Детской стоматологии Самаркандского медицинского университета в Самаркандской областной детской стоматологической поликлинике. За период 2019-2023 гг. детям 1, I и III диспансерных групп изготовлено 405 тонкостенных коронок, 304 съемных зубных протеза и 34 протеза-аппарата. Детям IV диспансерной группы протезирование проводили после аппаратурного лечения. Тонкостенные коронки готовили на пломбированные зубы с ослабленными стенками и уменьшенной высотой Клинической коронки после предварительной рентгенографии (Рис.1). Съемными пластиночными протезами как на верхней, так и на нижней челюсти дети пользовались при преждевременной утрате двух и более молочных моляров (Рис.2). Кроме топографии и протяженности дефекта зубного ряда, учитывалась форма альвеолярного отростка в области отсутствующих зубов. Базис протеза с оральной стороны покрывал протезное поле почти до линии А на верхней челюсти и до переходной складки на нижней, захватывая язычную поверхность дистально расположенных зубов.

С вестибулярной стороны при заостренном альвеолярном отростке базис доводился до переходной складки, при средне округлой- несколько укорачивался.



Рисунок 1. Пациент У.М. 5 лет, изготовлены тонкостенные коронки на 54, 55, 74, 84 зубы

Протезы фиксировали с помощью удерживающих кламмеров, изготовленных из ортодонтической проволоки сечением 0,6 мм на молочных зубах. После адаптации к протезам у тех детей, у которых имелись

ISSN 3030-3907

благоприятные условия для анатомической ретенции (преимущественно на верхней челюсти). Кламмеры спиливались. Кроме кламмеров, для фиксации иногда использовали зубо-альвеолярные пелоты, которые захватывали зубы, расположенные рядом с дефектом, и часть альвеолярного отростка. При сочетании дефектов зубных рядов с зубочелюстными аномалиями лечение проводили с помощью протезов-аппаратов (повышающих прикус, с винтами, пружинящими отростками, наклонной плоскостью). В процессе пользования протезами проводились их коррекция и перебазирование быстротвердеющей пластмассой для того, чтобы предотвратить задержку роста альвеолярных отростков. Показанием к перебазированию было ухудшение фиксации протезов.



Рисунок 1. Пациент А.С. 5 лет, Съемный пластиночный протез на верхнюю челюсть

При значительных изменениях протезного поля изготовлялись новые протезы.

• Протезы изготовляли в 3- 4 посещения.

Слепки снимали преимущественно эластическими материалами. При определении центрального соотношения челюстей. И в ходе подготовки к протезированию создавали фиксированный прикус: готовили предварительно тонкостенные коронки на естественные зубы, что предотвращало повышение прикуса на искусственных зубах. Детям рекомендовали пользоваться протезами круглосуточно в течение первых 2 суток, а затем днем, соблюдать правила ухода за полостью рта.

РЕЗУЛЬТАТЫ: Тонкостенные коронки не вызывают отрицательных изменений у детей. Как правило, дети привыкают к ним сразу и к 3-му дню пользования перестают их замечать. В процессе диспансерного наблюдения в течение 3 лет расцементировались и были утеряны 3 коронки у 3 (0,7 %)

ISSN 3030-3907

детей. У остальных детей молочные зубы, покрытые тонкостенными коронками, сохранялись до перехода физиологической смены.

Подавляющее большинство детей после получения съемных пластиночных протезов жалоб на неприятные ощущения не предъявляли и привыкали к ним в течение первых 3-6 дней, о чем мы судили по четкой дикции и отсутствию дополнительной мимики. Диспансерное наблюдение за этой группой показало, что 79 (25,9 %) из 304 детей прекратили пользоваться протезами в течение первых 2 мес. по разным причинам: теряли и прятали протезы, забывали ими пользоваться даже после неоднократного напоминания родителей.

Отдаленные результаты прослежены у 225 человек. 44 (19,56 %) ребенка прекратили пользоваться протезами по истечении 1- 2 лет, из них 16 с односторонними дефектами. Дети испытывали чувство неудобства, ухудшение фиксации протезов, которые, как выяснилось в последующем, возникли в связи с изменением протезного поля перед протезированием постоянных зубов. Мы не выявили нарушений прикуса у детей этой группы. Видимо, в наиболее опасный период для формирования зубочелюстных аномалий с помощью протезов было предотвращено смещение антагонистов и рядом стоящих зубов в сторону дефекта. Изменение прикуса у детей дошкольного возраста в процессе пользования зубными протезами представлены в таблице.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: У 108 (59,7‡3,2 %) детей физиологический прикус к периоду смены зубов не изменился. Полная саморегуляция зубочелюстных аномалий наступила у 40 (22,1 = #3,1 %) человек, частичная - у 10 (5,51,6 %) Вновь сформировались зубочелюстные аномалии лишь у 6 (3,3÷ 1,3 %) детей. Изменения прикуса у детей, пользовавшихся зубными протезами, мы сравнивали с нарушениями прикуса у 527 воспитанников детских садов 1, II, III диспансерных групп, которые также были взяты на диспансерное наблюдение, но по разным причинам им не осуществляли профилактических мероприятий. У детей этой группы значительно был снижен (42,62,1) процент стабильного физиологического прикуса, чаще закреплялись (20,1 ‡1,7 %) и вновь формировались (20,1=#1,7 %) зубочелюстные аномалии, нежели у детей, пользующихся зубными протезами (коэффициент достоверности равен соответственно 4,5;4,1; 8).

В процессе пользования зубными протезами 7,8 % детей был выявлен начальный кариес в местах прилегания базиса к шейкам зубов, у 4,4 %- катаральный гингивит, у 12,7 % преждевременно прорезались постоянные

ISSN 3030-3907

зубы, у 0,5 % имела место задержка прорезывания премоляров. Поломка протезов отмечена у 1,1 % детей.

ВЫВОДЫ: Замещение дефектов коронок зубов у детей дошкольного возраста тонкостенными коронками способствует фиксации пломб, сохранению молочных зубов до периода физиологической смены, создает благоприятные условия для становления высоты прикуса, жевания и роста зубных дуг. Замещение дефектов зубного ряда у детей съемными зубными протезами предупреждает возникновение зубочелюстных аномалий. У 81,8 % детей I, II и III диспансерных групп к периоду смены зубов сформировался нормальный прикус.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Rizaev Z. A., Abdunosirovich R. R., Sharipovna N. N. Ways to improve the organization of dental services for chemical industry workers //The American journal of medical sciences and pharmaceutical research. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 35-39.
2. Ризаев Ж. А., Назарова Н. Ш., Кубаев А. С. Особенности течения заболеваний полости рта у работников производства стеклопластиковых конструкций //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-1 (99). – С. 79-82.
3. Ризаев Ж., Шомуродов К., Агзамова С. Медицинская реабилитация больных с переломами скуло-орбитального комплексА //Журнал стоматологии и краниофациальных исследований. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 8-11.
4. Ризаев Э., Бекжанова О. Современные подходы к организации лечения заболеваний пародонта //Stomatologiya. – 2019. – Т. 1. – №. 3 (76). – С. 70-76.
5. Ризаев Ж. А., Туксонбоев Н. Х. У. Деформация носа с расщелиной и ринопластика //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 92-104.
6. Zoyirov T. E., Indiaminova G. N. Improvement of Methods of Providing Dental Care for Children with Mental Delay //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 167-170.
7. Indiaminova G. N., Zoirov T. E. Improvement Of Methods Of Providing Dental Care For Children With Mental Delayed Development //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 3. – №. 01. – С. 111-116.
8. Gavhar I., Utkurovna U. Y. Improving the methods of preventhing caries in the fissure area of permanent teeth in children //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 18. – №. 4. – С. 16-18.

ISSN 3030-3907

9. Nuriddinovna I. G., Utkurovna U. Y. Improving methods to prevent caries of the permanent tooth fissure area in children //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 436-439.
10. Индиаминова Г. Н., Якубова С. Р. Применение местных индивидуальных методов профилактики кариеса постоянных зубов у детей с умственными отклонениями //журнал биомедицины и практики. – 2022. – Т. 7. – №. 6.
11. ЮИНДИАМИНОВА Г. Н. Ақли заиф болалар махсус мактаб интернатлари тарбияланувчиларига стоматологик ёрдам кўрсатишда махсус it-дастурларни ишлаб чиқиш хамда унинг самарадорлигини бахолаш //журнал биомедицины и практики. – 2022. – Т. 7. – №. 6.
12. ЮИндиаминова Г., Зоиров Т. Maxsus yordamchi maktablarda tarbiyalanuvchi aqli zaif bolalarga stomatologik yordam ko‘rsatishni optimallashtirish //Журнал стоматологии и краниофациальных исследований. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-14.
13. ЮAbduvakilov J. et al. Evaluation of early inflammatory changes in the periodon of the basic teeth //European journal of molecular medicine. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
14. ЮAbduvakilov J. et al. Effects of non-metal non-ceramic dental prosthetics on salic acid balance and mineral homeostasis //European journal of molecular medicine. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
15. Abduvakilov J. et al. Effects of non-metal non-ceramic dental prosthetics on salic acid balance and mineral homeostasis //European journal of molecular medicine. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

ISSN 3030-3907

STUDY OF SORPTION CHARACTERISTICS OF MESOPOROUS MATERIALS BASED ON ALUMINUM OXIDE AND TITANIUM DIOXIDE IN CHROMATOGRAPHIC PROCESSES

Ruziev I.Kh.
Institute of Biochemistry, Samarkand State University named after Sh. Rashidov
Samiyev R.A.
Urgut Branch of Samarkand State University named after Sh. Rashidov
Kulmaxmatov A.N.
Institute of Biochemistry, Samarkand State University named after Sh. Rashidov
Xalilov S.Sh.
Urgut Branch of Samarkand State University named after Sh. Rashidov
Ganiyeva G.N.
Urgut Branch of Samarkand State University named after Sh. Rashidov

Abstract. This article presents the results of a study of the sorption properties of mesoporous materials based on aluminum oxide (Al_2O_3) and titanium dioxide (TiO_2) used in chromatographic processes. The synthesis features and structural characteristics of the obtained sorbents, including their porosity, surface area and pore size distribution, are considered. By conducting model chromatographic experiments, the influence of the oxide nature, material structure and modification conditions on the efficiency of component separation is established. The mechanisms of sorption, as well as the influence of acid-base and hydrophilic properties of the surface on the selectivity of interaction with the analyzed substances are analyzed. The results indicate high promise for the use of mesoporous oxide materials as effective stationary phases for various chromatographic methods.

Keywords: mesoporous materials, aluminum oxide, titanium dioxide, sorption properties, chromatography, stationary phase, porosity, selectivity, surface properties, sorption, SEM, sol-gel technology.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования сорбционных свойств мезопористых материалов на основе оксида алюминия (Al_2O_3) и диоксида титана (TiO_2), используемых в хроматографических процессах. Рассмотрены особенности синтеза и структурные характеристики полученных сорбентов, включая их пористость, площадь поверхности и распределение пор по размерам. Путем проведения модельных хроматографических экспериментов установлено влияние природы оксида, структуры материала и условий модификации на эффективность разделения

ISSN 3030-3907

компонентов. Проанализированы механизмы сорбции, а также влияние кислотно-основных и гидрофильных свойств поверхности на селективность взаимодействия с анализируемыми веществами. Результаты указывают на высокую перспективность использования мезопористых оксидных материалов в качестве эффективных стационарных фаз для различных хроматографических методов.

Ключевые слова: мезопористые материалы, оксид алюминия, диоксид титана, сорбционные свойства, хроматография, стационарная фаза, пористость, селективность, свойства поверхности, сорбция, СЭМ, золь-гель технология.

Annotatsiya. Ushbu maqolada xromatografik jarayonlarda qo‘llaniladigan alyuminiy oksidi (Al_2O_3) va titan dioksidi (TiO_2) asosidagi mezoporoz materiallarning sorbsiya xususiyatlarini o‘rganish natijalari keltirilgan. Olingan sorbentlarning sintezi va strukturaviy xususiyatlari, jumladan, ularning g‘ovakliligi, sirt maydoni va g‘ovak o‘lchamlari taqsimoti muhokama qilinadi. Komponentlarning ajratish samaradorligiga oksid tabiati, material tuzilishi va modifikatsiya sharoitlarining ta'sirini aniqlash uchun model xromatografik tajribalar qo‘llanildi. Sorbsiya mexanizmlari, shuningdek, sirtning kislota-asos va gidrofil xususiyatlarining tahlil qilinayotgan moddalar bilan o‘zaro ta'sirning selektivligiga ta'siri tahlil qilinadi. Natijalar mezoporoz oksid materiallarini turli xromatografik usullar uchun samarali statsionar fazalar sifatida qo‘llash uchun yuqori salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: mezoporoz materiallar, alyuminiy oksidi, titan dioksidi, sorbsiya xususiyatlari, xromatografiya, statsionar faza, g‘ovaklilik, selektivlik, sirt xususiyatlari, sorbsiya, SEM, sol-gel texnologiyasi.

INTRODUCTION

Modern analytical methods place high demands on efficiency, selectivity, and sensitivity in the separation and analysis of complex multicomponent mixtures. Chromatography, as one of the most universal and widely used analytical methods, is largely dependent on the properties of the sorbents used. In recent years, special attention has been paid to mesoporous materials with high specific surface area, thermal stability, and the ability to modify the surface.

Aluminum oxide and titanium dioxide are promising inorganic matrices for creating sorbents used in chromatographic systems. Their physicochemical properties, such as acid-base activity, hydrophilicity, resistance to aggressive environments, and structural features, have a significant impact on the sorption efficiency. However, comparative studies of their sorption properties in chromatographic processes are not sufficiently presented in the scientific literature.

ISSN 3030-3907

In particular, given the growing need to develop more efficient and selective sorbents for environmental monitoring, pharmaceutical analysis and quality control, a comprehensive comparative study of alumina and titanium dioxide as sorbents is of particular scientific and practical importance. The obtained data can be used to optimize chromatographic separation conditions and develop new materials for analytical chemistry. Titanium dioxide (TiO_2) is one of the most widely used oxide materials due to its unique physicochemical properties. It finds applications in various fields such as photocatalysis, sensors, solar cells and medicine. Optimizing its properties such as morphology, particle size and texture is a key factor in improving its functional performance.

Titanium (II) oxide-based materials are currently of great practical and scientific interest. These materials are widely used in the production of solar cells, antireflective and self-cleaning coatings, and photocatalysis, and are also active components in gas sensors. Additionally, titanium oxide exhibits high chemical stability, thermal stability, and is non-toxic to humans, making it safe for use in various technological processes. Due to these properties, titanium dioxide-based materials are also used in the production of food additives, cosmetics, and pharmaceuticals. Nanostructured TiO_2-based materials exhibit high surface activity, which improves their catalytic properties. This has led to the use of these materials as catalysts for various reactions, including the oxidation of organic compounds, hydrogenation processes, and photocatalysis [1].

